49. Мирзахонов, М., & Валиев, Г. Н. (2020). Разработка новой структуры плательно-костюмной ткани из натурального шелка Development of a new structure of dress-costume fabric made of natural silk. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной (pp. 261-264).

50. Хомидов, В. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2018). Устройство для испытания натяжных приборов текстильных машин. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2018) (pp. 89-92).

51. Валиев, Г. Н. (2016). Пространственное распределение угла подъема витка намотки мотальной паковки. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (Инновации-2016) (pp. 36-40).

52. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunova, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. Scientific progress, 2(8), 622-626.

## TURLI TIKUV-TRIKOTAJ MASHINALARIDA MAHSULOTLARNI TIKISHGA SARFLANADIGAN VAQT ME'YORINI O'RGANISH

C. P. Mamatkulova

*Farg'ona politexnika instituti, "Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi" kafedrasida  
tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yengil sanoat korxonalaridagi mavjud bo'lgan vaqt meyorlari va asosiy turgan vazifalar, uskunalar, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va yangi oqim liniyalarini qurish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ish ko'rilgan.*

**Abstract:** *his article deals with time standards and main tasks, equipment, production volume increase and construction of new flow lines and production efficiency improvement in light industrial enterprises.*

**Kalit so'zlar:** *trikotaj, nafas olish qobiliyati, gigroskopiklik, issiqlik uzatish, fiziologik sharoitlar, funktsional trikotaj matolar, kaput, kamuflyaj.*

**Key words:** *knitwear, breathability, hygroscopicity, heat transfer, physiological conditions, functional knitted fabrics, hood, camouflage.*

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishishdan oldin (sobiq ittifoq davrida), tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarida ishchining razryadi va foydalanayotgan asbob uskunasi qarab, kiyim tikish texnologik jarayoni sarf vaqti me'yori bo'yicha I.A.Kulikova, A.I.Nazarova, Ye.M.Matuzova, T.N.Reut, I.G.Nikitina va V.A.Shishova kabi Rossiyalik olimlar ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borganliklari ma'lum.

Lekin, zamonaviy, kam operatsiyali tikuv mashina va jihozlarni qo'llab turli assortimentlarning tikish texnologik jarayoni sarf vaqti me'yorini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilganligi haqida deyarli ma'lumotlar yo'q.

Yuqoridagi dolzarb muammolardan kelib chiqib vazifasiga ko'ra turli zamonaviy tikuv-trikotaj mashinalarida mahsulotlarni tikishga sarflanadigan vaqt me'yorini ishlab chiqish zarurdir.

1957 yili tikuvchilik markaziy ilmiy-tadqiqot instituti SNIISHP (Syentralniy nauchno-issledovatel'skiy institut shveynoy promishlennosti) tomonidan "Kattalar ust kiyimini ishlab chiqarish va uni kiyish" jarayonidagi ko'rsatmalar bo'yicha sarf vaqt me'yori ishlab chiqildi.

Keyingi yillarda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari texnik darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xildagi assortimentlar sarf vaqt me'yorini tavsiya etildi.

Quyidagi 1.1-jadvalda 1988 yil ishlab chiqarish jarayonida kiyimni biriktirish bo'yicha mehnat unumdorligini taqqoslash jadvali berilgan [10, 11, 12].

### 1.1-jadval

Kiyimni biriktirish bo'yicha mehnat unumdorligini taqqoslash

Bajariladigan ishlar nomi	Ishning turi	Qishki ustki kiyim			Mavsumiy ustki kiyim			Foydalanilgan jihoz
		Umumiy sarf vaqti (minut)	Takrorlanish (%)	% hisobi bilan sarf vaqti	Umumiy sarf vaqti (minut)	Takrorlanish (%)	% hisobi bilan sarf vaqti	
Kiyim barcha detallarini tekshirish	C	,54	00	,54	,54	00	,54	1
Tahlamani ko'klash (5%)	N /M	,28		,06	,28		,06	0
Old bo'lak bilan yaxlit bichilgan va alohida bichilgan bort qotirmalarini biriktirish	N	,08	5	,27	,08	0	,43	0
Ort bo'lak o'rta qirqimini qo'lda biriktirish	C	,7	7,5	,65	,7	7,5	,65	0
Ort bo'lak o'rta qirqimini tikuv mashinasida biriktirish	N /M	,22	2,5	,17	,22	2,5	,17	1
Kiyim etagini ichkariga bukib tikish	N /M	,41	00	,41	,41	00	,41	2

1.1-jadvalda erkaklar va ayollar ustki kiyimlarini (qishki va mavsumiy) tikishda sarflanadigan umumiy vaqtlar (minutda) 3 va 6 ustunchalarda ko'rsatilgan. Undan xulosa qilish mumkinki, mazkur sarf vaqt me'yori universal ya'ni bitta baxyaqator yurituvchi 1022 va 2222 klass tikuv mashinasida bajariladigan ishlar uchun ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda tikuvchilik sanoatida kiyimni modellash bosqichida ham qo'l mehnatining salmog'i katta bo'lib, bu mehnat unumdorligini o'sishini sekinlashtiradi. Shuning uchun, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish borasida ko'pgina ishlar amalga

oshirilmoqda. Bular tezyurar tikuv mashina va yarim avtomatlari, namlab isitib ishlash jihozlaridan iborat.

Hozirgi vaqtda respublikamiz sanoat korxonalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri: uskunalarni zamonaviylashtirish, yuqori sifatli, chiroyli kiyimlarni ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, tezda moslashuvchi yangi oqim liniyalarini qurish, tikuvchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun korxonalarni qayta qurish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologiyani takomillashtirish talab qilinadi.

Yangi, kam operatsiyali texnologiyalar yaratish tikuvchilik mahsulotlariga ishlov berishni takomillashtirishdagi istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Kiyim detallariga va uzellarining konstruksiyasida choklarni iloji boricha kamaytirish, namlab isitib ishlov berish, uskunalarni vibromaniken singari bir jarayonli turlarida materiallarga ularning termoplastik xususiyati hisobiga shakl berish, biriktirish va bezash jarayonlarini birlashtirish, yelim materiallardan keng foydalanish va hokazolar ana shunday kam operatsiyali texnologiyalarga kiradi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda zamonaviy tikuv mashinalarida vaqt sarfi me'yori ishlab chiqish tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalarining oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

Mehnat sarf vaqti me'yori-bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotning normasi (me'yori) yoki tikish jarayonidagi har bir operatsiyaga ketadigan vaqt sarf normasini nazariy asoslashdan iborat.

Bitta mahsulotni ishlab chiqarish vaqt me'yoriga quyidagilar kiradi:

- 1) Mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jarayon vaqt sarf me'yorini ishlab chiqish;
- 2) Mahsulotga ishlov berish usulini tahlil qilish: kiyim shaklini rasional bo'linishini loyihalash, ish joyini tashkillashtirish va ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshirish;
- 3) Tikish jarayonida tajriba olib borishni o'rganish;
- 4) Ishlab chiqarish tajriba sinov natijalarini olish;
- 5) Sinov natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish;
- 6) Sinov natijalari bo'yicha sarf vaqt me'yorini tahlil qilish.

Tikuvchilik korxonalarining texnologik jarayonlari mahsulot ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi va mehnat unumdorligini 85-90% ni tashkil qiladi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan jadvallardan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Rossiyalik olimlar tomonidan tikish jarayonidagi o'rtacha sarf vaqt me'yori maishiy xizmat uyining tikuvchi va yakka tartibdagi (uy sharoitida ishlaydigan) chevarlar shuningdek, bichuvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, unda qo'llanilgan tikuv mashina jihozlarining markasi va nomi keltirilmagan. Keyingi yillarda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari texnik darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xildagi assortimentlar sarf vaqt me'yorini tavsiya etildi.

Fan-texnika va ijtimoiy ishlab chikarishdagi o'zgarishlar, yangilanish davri texnika va texnologiyalarni yangi avlodini joriy etish, iqtisodiyotning yangi asosini yaratishdek murakkab sharoitda bormoqda. Bunday o'zgarishlar albatta, soha mutaxassisini bilim darajasini keng qamrovli, mukammal ayni paytda aniq mutaxassislikni egallashga qaratilgan bo'lishini taqozo etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.
2. Raxmatovna, M. S. (2022). Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5, May, 2022.7
3. Raxmatovna, M. S. (2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(10), 15-20.
4. Mamatqulova, S., & Tadjikuziyev, R. (2020). Метод оцінки рівня кваліфікації ремонтних робітників підприємства автомобільного обслуговування. *Мистецтво Наукової Думки*, (10), 41-44.
5. Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(9), 18-23.
6. Tursunova, X. Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
7. Ulugboboyeva, M. M. (2021). Creation of new modern clothes from national fabrics. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 63-68.
8. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.
9. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.
10. Ulug'boboyeva M. Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric // *Eurasian Journal of Engineering and Technology*. – 2022. – T. 10. – C. 121-124.
11. Samiyevna, T. S., & Raxmatovna, M. S. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(5), 1-10.

12. Tursumatova, S. (2022). Selection of sewing machines and establishment of manufactured assortments. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 42-46.
13. Sodiqovna A. M., Abdugodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 284-288.
14. Sodiqovna, A. M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga reglan bichimli yeng turlarini avfzalligi. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 130-133.
15. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. (2021). Study of female abnormal body types and analysis. *Journal INX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 333-335
16. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O 'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.
17. Sovridinova, M. H., & Yusupova, D. U. (2021). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 675-679.
18. Yusupova, D. U., & Sovridinova, M. X. (2020, November). O 'ZBEKISTONDA KEKSAYGAN AYOLLAR UCHUN KIYIM-KECHAK DIZAYNIDAGI HOZIRGI DAVLAT VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 190-192).
19. Samievna, T. S., Mirkomilovna, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 275-277.
20. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 125-132.
21. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunuva, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.
22. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.
23. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). STUDY OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF SILK FABRICS AND THEIR ANALYSIS. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.
24. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.
25. Jaxongirovna, X. D. (2022). ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O 'RNI. *Uzbek Scholar Journal*, 7, 112-117.

26. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isroilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. Eurasian Research Bulletin, 17, 204-209.

27. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. The American Journal of Engineering and Technology, 3(05), 56-64.

28. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. Central Asian Journal Of Arts And Design, 2(12), 74-78.

29. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.

30. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O 'RNASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH. Scientific Impulse, 1(8), 599-603.

31. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. Scientific Impulse, 1(4), 1626-1630.

32. Валиев, Г. Н. (2018). Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на ее основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика ее определения. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 106-113.

33. Мирзахонов, М., & Валиев, Г. Н. (2020). Разработка новой структуры платьено-костюмной ткани из натурального шелка Development of a new structure of dress-costume fabrik made of natural silk. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной (pp. 261-264).

34. Хомидов, В. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2018). Устройство для испытания натяжных приборов текстильных машин. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2018) (pp. 89-92).

35. Hamidullo o'g'li T. H., Kamolovich B. E. IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 648-653.

36. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

37. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

38. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

39. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537

40. Валиев, Г. Н. (2016). Пространственное распределение угла подъёма витка намотки мотальной паковки. In *Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (Инновации-2016)* (pp. 36-40).

41. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2020). Product-an object of artistic thinking. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1172-1176.

42. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). Retro style in modeling women's clothing. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 372-376.

43. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59.

44. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59..

45. Abdullaev, M. M. (2022). Features of calculating the consumption of raw materials in the production of terry fabrics on rapier LOOMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(07), 1-9.

46. Абдуллаев, М. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ШИРИНЫ И ДЛИНЫ ШТУЧНЫХ МАХРОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 132-136.

47. Орипов, Ж. И., & Валиев, Г. Н. (2020). Исследование качественных характеристик шёлка-сырца механического и автоматического кокономотания. *Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX)*, (1), 84-87.

48. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И. О., & Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин. In *Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 110-летию со дня рождения профессора АГ Севостьянова* (pp. 147-151).

49. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In *Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева* (pp. 63-67).

50. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. *Актуальная наука*, (11), 9-12.

51. Nozimjonovna, O. I. (2022). Constructive analysis of modern circular needle knitting machines. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 75-79

52. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(09), 1-9.



## ZAMONAVIY YAXLIT YENG BICHIMIDAGI AYOLLAR KO'YLAGINI KONSTRUKTSIYASINI QURISH

*Farg'ona Politehnika Instituti*

**G.A. Mirboboyeva.**

**Annotasiya,** *Ushbu maqolada ayollar ko'ylaklarini turli xil bichimlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, bundan tashqari ayollar yaxlit bichimli ko'ylagini model konstruksiyasini qurishni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan*

**Tayanch so'zlar:** *Ayollar ko'ylagi, furnituralar, bichim, ijodiy g'oyalar, koketka, fason, kant, yeng o'mizi.*

**Аннотация.** *В этой статье представлена информация о различных фасонах женских платьев а также информация о том как сделать модель женского платья*


**Ключевые слова :** *Женская одежда, фурнитура, дизайн, креативные идеи, кокетка, мода, край, рукав.*

**Annotation.** *This article provides information about various styles of womens dresses as well as information on how to make a model of a women's dress*

**Key words:** *Womens clothing, accessories, design, creative ideas, yoke, fashion, hem, sleeve.*

Ayollar ko'ylaklari turli hil uslubda va turlicha matolardan tikiladi. Nozik didli ayollarimizga ko'ylak yaratayotgan dizaynerlar o'ta e'tiborlik bilan yaratishi lozim. Bir biriga o'xshamasligi har bir detali bilan ajralib turishi kerak. Matolar bilan bezaklari uyg'unlashgan holda uzunligi maksimi, mini, angilizkiy uzunlikdagi liboslar urfda. Ayollar ko'ylaklarida qora, oq, ko'k, yashil va har xil turdagi kombinatsiya kuzatiladi. [1]. Furnituralarga kichik hajmdagi tugmalar, bezak vishifka tasmalar, belbog', aplekatsiya va kashtalar misol bo'ladi. Hozirgi davrda yangi uslublarning ko'plab va tez suratlarda dunyo yuzini ko'rishi nafaqat moda tendentsiyalarini kuzatish, balki baholashga ham imkon bo'lmay qolyabdi. Zamonaviy modani rangli ekstravazasiz va yorqin iz qoldirmasdan tasavvur qilish mumkin emas. 2023 yilda ayollar ko'ylagi eng qiziqarli ijodiy g'oyalar va jasur eksperimentlarning amalga oshirilishiga aylandi. [2].

Bu yaratgan modelimda yoz mavsumlari uchun mo'ljallangan ayollar ko'ylagi jatka matosidan tikilgan bo'lib, silueti kengaygan, yaxlit yengli bichimda. Ko'ylak oldi taqilmasi markaziy, 3 ta tugma fason sifatida qo'yilgan, oldi qismi uchburchak koketkali bo'lib koketka va ko'ylak tanasi orasiga varoqlar bilan ishlov berilgan hamda oldi qismiga uyg'unlashgan holatda yeng qismi ham varoqlar bilan ishlov berilgan. Ko'ylak ort bo'lagi sal kengaygan siluetli hech qanday chok mavjud emas. Bo'yin o'yindisiga kant bilan ishlov berilgan.



1-rasm Ayollar yaxlit bichimli ko'ylagi

1. Bo'yinning yarim aylanasini-18;
2. Ko'krakning yarim aylanasini-46;
3. Ko'krak ostining yarim aylanasini-41;
4. Belning yarim aylanasini-36;
5. Orqaning belgacha uzunligi-37;
6. Ko'ylak uzunligi-100;
7. Yelka kengligi-13;
8. Yeng uzunligi-16.

Andoza chizmasini chizish.

To'g'ri burchak chizib, uchiga A harfi qo'yiladi.

Yeng o'mizining chuqurligi. A nuqtadan pastga 21,3 sm (ko'krak yarim aylanasining  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 6 sm qo'shiladi., ya'ni  $46:3+6=21,3$  sm) o'lchab, G nuqta qo'yiladi. G nuqtadan o'nga ixtiyoriy gorizontali chiziq tortiladi.


Bel chizig'i. A nuqtadan pastga 37 sm (orqaning beligacha uzunligi) o'lchab, T nuqta qo'yiladi. T nuqtadan o'ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontali chiziq chiziladi.

Son chizig'i. T nuqtadan pastga 18 sm ( barcha razmerlar uchun) o'lchab B nuqta qo'yiladi. B nuqtadan o'nga ixtiyoriy uzunlikda gorizontali chiziq tortiladi.

Etak chizig'i. A nuqtadan pastga 100 sm uzunlikda (ko'ylakning uzunligi) chiziq tushurib uchiga H nuqta qoyiladi. H nuqtadan o'nga ixtiyoriy uzunlik gorizontali chiziq tortiladi.

Orqaning kengligi. G nuqtadan o'ngga 18,3 sm (ko'krak yarim aylanasining  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 3 sm qo'shiladi, ya'ni  $46:3+3=18,3$  sm o'lchab, G<sub>1</sub> nuqta qo'yiladi. G<sub>1</sub> nuqtadan yuqoriga gorizontali chiziq bilan kesishguncha tik chiziq chiqarilib chiziqlar kesishgan nuqta H bilan belgilanadi.

Yeng o'mizining kengligi. G<sub>1</sub> nuqtadan o'ngga 11,5 sm (ko'krak yarim aylanasining  $\frac{1}{4}$  qismi, ya'ni  $46:4=11,5$  sm) o'lchab G<sub>2</sub> nuqta qo'yiladi. G<sub>2</sub> nuqtadan yuqoriga ixtiyoriy uzunlikda tik chiziq chiqarilib uning chiziq bilan kesishgan nuqtasi P1 bilan belgilanadi.



2-rasm Ayollar yaxlit bichimli ko'ylagini asos konstruksiyasi.

Ko'ylakning ko'krak chizig'i bo'yicha kengligi. G nuqtadan o'nga 50 sm (ko'krak yarim aylanasiga barcha razmerlar uchun 4 sm qo'shiladi, ya'ni  $46+4=50$  sm) o'lchab  $G_3$  nuqta qo'yiladi  $G_3$  nuqta orqali vertikal chiziq o'tkazilib, uning pastki gorizontaal chiziq ya'ni etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $H_1$  bilan bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $T_1$  bilan, son chizig'i bilan kesishgan nuqtasi esa  $B_1$  bilan belgilanadi.

Oldi lifning balandligi.  $G_3$  nuqtadan yuqoriga 24 sm (ko'krak yarim aylanasining  $\frac{1}{2}$  qismiga barcha razmerlar uchun 1 sm qo'shiladi, ya'ni  $46:2+1=24$ ) o'lchab SH nuqta qo'yiladi. SH nuqtadan chapga vertical chiziq bilan kesishguncha gorizontaal chiziq chizilib, chiziqlar kesishgan nuqta  $P_2$  bilan belgilanadi.

Yon chiziq.  $G_1$  nuqta bilan  $G_2$  nuqta orasidagi chiziq teng ikki qismga bo'linadi, bo'lish nuqtasi  $G_4$  bilan belgilanadi.  $G_4$  nuqtadan pastga etak chizig'igacha to'g'ri chiziq tushurilib, uning etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $H_2$  bilan, bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $T_2$  bilan, son chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $B_2$  bilan belgilanadi. . [1].

### KO'YLAKNING ORQASINI CHIZISH.

Yoqa o'mizi. A nuqtadan 6,5 sm (bo'yin yarim aylanasining  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 0,5 qo'shiladi ya'ni  $18:3+0,5=6,5$  sm) o'lchab shu yerga 6,5 raqami qo'yiladi. Va 6,5 nuqtasidan yuqoriga 2,5 sm o'lchab 2,5 nuqtasi qo'yiladi. Nuqtalar botiq egri chiziq orqali tutashtiriladi.

Yelka chizig'i. 2,5 nuqtasidan o'nga P nuqta orqali 14,5 sm (yelka kengligiga vitochka solish yoki tikish uchun 1,5 sm qo'shiladi ya'ni  $13+1,5=14,5$  sm) uzunlikda chiziq chiziladi va uchiga P3 qo'yiladi. Yelka chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasi 0,5 nuqtaga tutashtiriladi.

Yengning yuqori chizig'i. P<sub>3</sub> nuqta G<sub>3</sub> nuqtaga tutashtiriladi. P<sub>3</sub> nuqtadan o'ngga 16 sm uzunlikda yengning o'lchangan uzunligiga teng uzunlikda chiziq tortilib uchiga 16 raqami qo'yiladi.

Yeng o'mizining qiyaligi va yon chok. G<sub>4</sub> nuqtadan 2 sm pastga G<sub>5</sub> nuqta qo'yiladi. T<sub>2</sub> nuqtadan 1 sm chapga 1 raqami qo'yiladi. H<sub>2</sub> nuqtadan 3 sm o'ngga 3 raqami yoziladi. G<sub>5</sub>, 1, B<sub>5</sub> va 3 nuqtalar tutashtiriladi, natijada yon chok tushadigan chiziq hosil bo'ladi.

Yengning kesigi va yeng uchi. G<sub>1</sub> nuqta G<sub>5</sub> nuqtaga tutashtiriladi. G<sub>5</sub> nuqtadan o'ngga G<sub>1</sub> nuqta yo'nalishida 5 sm o'lchab, 5 raqami qo'iladi. Natijada yeng kesigi hosil bo'ladi. G<sub>5</sub> nuqta 16 nuqtasiga tutashtirilsa, shunda yeng uchi hosil bo'ladi.

Etak chizig'i. Pastki gorizontal chiziqdagi 3 nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo'yiladi. Bu nuqta H nuqtaga rasimdagidek tutashtiriladi va etak chizig'i hosil bo'ladi.

Bel chizig'idagi vitochka. GG<sub>1</sub> chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasidan 1 sm chapga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasidan pastga, son chizig'iga vertikal chiziq tushurib, bu chiziqlar kesishgan nuqta B<sub>3</sub> bilan belgilanadi. Vertikal chiziq bilan bel chizig'i kesishgan nuqtadan 1 sm chapga va 1 sm o'nga 1 raqamlar qo'yiladi. GG<sub>1</sub> chizig'idagi 1 nuqtasidagi 4 sm pastga 4 raqami, B<sub>3</sub> nuqtadan esa 3 sm yuqoriga 3 raqami qo'yiladi. 4,1,3 va 1 nuqtalari o'zaro ketma- ket tutashtiriladi.

Ko'ylakning oldini chizish.

Yelka o'mizi. SH nuqtadan chapga 6,5 sm (bo'yin yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 0,5 sm qo'shiladi, ya'ni  $18:3+0,5=6,5$  sm) o'lchab SH<sub>1</sub> nuqta qo'yiladi. SH nuqtadan pastga 7,5 sm (bo'yin yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 1,5 sm qo'shiladi. Ya'ni  $18:3+1,5=7,5$  sm) o'lchab, bu nuqta SH<sub>2</sub> bilan belgilanadi. SH<sub>1</sub> nuqta SH<sub>2</sub> nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi va punktir chiziq teng ikkiga bo'linadi bo'lish nuqtasidan 2 sm chapga 2 raqami qo'yiladi. SH<sub>1</sub> nuqta 2 nuqtasi orqali SH<sub>2</sub> nuqtaga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi, bu yoqa o'mizi bo'ladi.

Yelkaning yoqa o'mizidan yelka vitochkasigacha bo'lgan kengligi. SH<sub>1</sub> nuqtadan 4 sm chapga P<sub>4</sub> nuqta qo'yiladi.

Yelka vitochkasi. P<sub>4</sub> nuqtadan pastga GG<sub>3</sub> chizig'igacha punktir chiziq tushuriladi. Uning GG<sub>3</sub> chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan 1 sm o'nga B nuqta qo'yiladi. B nuqta P<sub>4</sub> nuqtaga tutashtiriladi. P<sub>4</sub> nuqta PG<sub>1</sub> chizig'idagi yuqori bo'lish nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. P<sub>4</sub> nuqtadan chapga punktir chiziq bo'yicha 5 sm (vitochkaning kengligi) o'lchab B<sub>1</sub> nuqta qo'yiladi (ko'krakning yarim aylanasi ko'krak ostining yarim aylanasi ayriladi, ya'ni  $46-41=5$  sm). B<sub>1</sub> nuqta B nuqtaga tutashtiriladi. So'ngra B nuqtadan yuqoriga P<sub>4</sub> nuqta yo'nalishida BB<sub>1</sub> chizig'iga teng keladigan chiziq chiqariladi. Vitochkaning har ikkala chizig'i bir biriga teng bo'lishi kerak. B<sub>2</sub> nuqta SH<sub>1</sub> nuqtaga tutashtiriladi.

Yelkaning vitochkadan yenggacha bo'lgan kengligi.  $P_2$  nuqtadan pastga 5 sm o'lchab 5 raqami qo'yiladi.  $B_1$  nuqtadan chapga 5 nuqtasi orqali 9 sm uzunlikda (yelka kengligidan 4 sm ayriladi, ya'ni yelkaning yoqa o'mizidan yelka vitochkasigacha bo'lgan kengligi : $13-4=9$  sm) chiziq tortib uchiga  $P_5$  nuqta qo'yiladi.

Yeng ustki qismining uzunligi.  $GG_1$  chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasidan 3 sm chapga 3 raqami qo'yiladi. 3 nuqtasi  $P_5$  nuqtaga tutashtiriladi.  $P_5$  nuqtadan chapga qiya chiziq bo'yicha 16 sm (yengning o'lchangan uzunligi) o'lchab 16 raqami qo'yiladi.

Yeng o'mizining qiyaligi va yon chok.  $G_4$  nuqtadan 2 sm pastga  $G_5$  nuqta qo'yiladi.  $T_2$  nuqtadan 1 sm o'ngga 1 raqami,  $H_2$  nuqtadan 4 sm chapga 4 raqami qo'yiladi.  $G_5$  nuqta 4 nuqtasiga 1,  $B_2$  nuqtalar orqali tutashtiriladi.

Yengning kesigi va yeng uchi.  $G_5$  nuqta  $G_2$  nuqtaga tutashtiriladi.  $G_5$  nuqtadan o'ngga  $G_2$  nuqta yo'nalishida 5 sm o'lchab, 5 raqami qo'yiladi.  $G_2G_5$  chizig'i yeng kesigi hisoblanadi.

Bel chizig'i.  $T_1$  nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo'yiladi. Bu nuqta yon chiziqdagi 1 nuqtasiga tutashtiriladi.

Son chizig'i.  $B_1$  nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasi  $B_2$  nuqtaga tutashtiriladi.

Etak chizig'i.  $H_1$  nuqtadan 1 sm pastga 4 nuqtasidan esa 1 sm yuqoriga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. [3].

Bel chizig'idagi yon vitochka. B nuqtadan pastga son chizig'i bilan kesishguncha punktir chiziq tushiriladi. Chiziqlar kesishgan nuqta  $B_4$  bilan belgilanadi. Punktir chiziqning bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan o'ngga va chapga 1 raqamlar qo'yiladi. B nuqtadan pastga 4 sm o'lchab 4 raqami qo'yiladi.  $B_4$  nuqtadan 3 sm yuqoriga 3 raqami qo'yiladi. 4,1,3 va 1 nuqtalar o'zaro tutashtiriladi.

Oldi koketkasi.  $G_3$  nuqtadan pastga 8 sm tushib 8 raqami qo'yiladi va yuqori yelka qismidagi 4 raqami bilan tutashtiriladi.

Hulosa. Ayollar kiyimlarini konstruksiyalashda turli xil bichimlardan iborat bo'ladi. Shu bichimlar ichida hozirgi kunda qulayligi bilan aloxida ajralib turadigan yaxlit bichimli ayollar kiyimlarini konstruksiyalashni oddiy usulda yechishni o'rganib chiqdik

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2020). Product-an object of artistic thinking. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1172-1176.

2. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). Retro style in modeling women's clothing. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 372-376.

3. Abdusattorovna, M. G., & Nasimjanovna, N. N. (2022). Technological features of the work of a double-knitting machine. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(06), 22-34.

4. Abdusattorovna, M. G. (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. *Open Access Repository*, 4(03), 246-251.

5. Abdusattorovna, M. G. (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. *Open Access Repository*, 4(03), 246-251.

6. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59.

7. Ulugboboyeva, M. M. (2021). Creation of new modern clothes from national fabrics. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 63-68.

8. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.

9. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.

10. Ulug'boboyeva M. Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric // *Eurasian Journal of Engineering and Technology*. – 2022. – Т. 10. – С. 121-124.

11. Samiyevna, T. S., & Raxmatovna, M. S. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(5), 1-10.

12. Tursumatova, S. (2022). Selection of sewing machines and establishment of manufactured assortments. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 42-46.

13. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI // *Science and innovation*. – 2022. – Т. 1. – №. A3. – С. 284-288.

14. Sodiqovna, A. M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga reglan bichimli yeng turlarini avfzalligi. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 130-133.

15. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. (2021). Study of female abnormal body types and analysis. *Journal INX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 333-335

16. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O 'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.

17. Sovridinova, M. H., & Yusupova, D. U. (2021). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 675-679.

18. Yusupova, D. U., & Sovridinova, M. X. (2020, November). O 'ZBEKISTONDA KEKSAYGAN AYOLLAR UCHUN KIYIM-KECHAK DIZAYNIDAGI HOZIRGI DAVLAT VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 190-192).

19. Samieva, T. S., Mirkomilova, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 275-277.

20. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 125-132.

21. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunova, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.

22. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.

23. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). STUDY OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF SILK FABRICS AND THEIR ANALYSIS. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.

24. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.

25. Jaxongirova, X. D. (2022). ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O'RNI. *Uzbek Scholar Journal*, 7, 112-117.

26. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isoilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 204-209.

27. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.

28. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. *Central Asian Journal Of Arts And Design*, 2(12), 74-78.

29. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.

30. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O'RINASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific Impulse*, 1(8), 599-603.

31. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. *Scientific Impulse*, 1(4), 1626-1630.

32. Валиев, Г. Н. (2018). Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на ее основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика ее определения. *Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности*, (3), 106-113.

33. Мирзахонов, М., & Валиев, Г. Н. (2020). Разработка новой структуры платьечно-костюмной ткани из натурального шелка Development of a new structure of

dress-costume fabrik made of natural silk. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной (pp. 261-264).

34. Хомидов, В. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2018). Устройство для испытания натяжных приборов текстильных машин. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2018) (pp. 89-92).

35. Hamidullo o'g'li T. H., Kamolovich B. E. IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 648-653.

36. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

37. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

38. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. International Journal of Advance Scientific Research, 2(09), 1-9.

39. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537

40. Валиев, Г. Н. (2016). Пространственное распределение угла подъема витка намотки мотальной паковки. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (Инновации-2016) (pp. 36-40).

41. Орипов, Ж. И., & Валиев, Г. Н. (2020). Исследование качественных характеристик шёлка-сырца механического и автоматического кокономотания. Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX), (1), 84-87.

42. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И. О., & Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 110-летию со дня рождения профессора АГ Севостьянова (pp. 147-151).

43. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева (pp. 63-67).

44. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. Актуальная наука, (11), 9-12.

45. Nozimjonovna, O. I. (2022). Constructive analysis of modern circular needle knitting machines. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 75-79



## KIYIM MODELLARINI YARATISHDA ESKIZLAR VA SHAKLLARNING RO`LI

**Nizamova Barno Baxtiyorovna**

*Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi kafedrasida, katta o`qituvchi,  
Farg`ona politexnika instituti, Farg`ona, O`zbekiston*

**Annotatsiya** Dizayner – modelerlar yaratayotgan modellar ularning mashaqqatli mehnati hisoblanadi. Modellarini namoyon etishda eskizlarning ro`li haqida ma`lumotlar mavjud bo`lib, ular uchun materialni o`rganish, tahlil qilish, ishlov berish loyiha ustida ishlash davomida olib borilishi zarur bo`lgan hamda har doim taqqoslash va tanlash davom etadi. Hamda o`zining qonuniyatiga bo`ysunadi.

**Kalit so`zlar:** Dizayn, modelyer, eskiz qonuniyati, loyiha turlari, materialni o`rganish, vertikal va gorizontaal chiziqlar, rivojlanish davri, mayda va yirik gulli, pigment, rang, kostyum, geometrik va plastik shakllar, shakl chegarasi.

Respublika to`qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o`shirish sur`atlarini ta`minlash, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o`zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo`lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o`rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg`or «klaster modeli»ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo`yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, to`qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o`zgaruvchan kon`yunkturasi sohani davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa o`z navbatida soha mutaxassislarini oldiga juda katta vazifalarni yuklaydi, ayniqsa modeler-dizaynerlarga chunki ularning mahorati sababli yangi turdagi kiyimlar assortimenti va moda yo`nalishlari shakllanadi va rivojlanadi.

Shunga ko`ra eskizni buyum ko`rinishi, umumiy gaboriti, xarakterini hisobga olgan holda, detallariga unga aniqlik kiritilmay tayyorlash mumkin. Shakllar aniqlanib bo`lgach, eskizga aniqroq ishlab beriladi. Agar buyum o`lchamlari katta bo`lsa masshtab aniqlanadi. Agar buyum o`lchami katta bo`lmasa eskiz haqiqiy kattaligida bajariladi, chunki alohida bo`limlarni mutanosibligini his etish, plastik, konstruktiv va estetik bog`liqlikni aniqlash lozim.

Eskizni ish xomakisidan tizimli va ketma-ket foydalanish mumkin bo`lgan hatolarga yo`l qo`ymaslik, qaytadan ishlashni oldini oladi. Eskizlar masshtabda kichraytirilgan proyeksiyalarni loyiha ustida ishlash tugallanguncha saqlash zarur. Izlanish jarayonining barcha bosqichlarini yaxshi va yomon tomonga o`zgarishi aniqlanadi, eng yaxshisi varianti tanlanadi. Eskizlarni barchasini taqqoslash va faqat muallif ishi sifatini aniqlash osonlashtiriladi, rahbariga eng yaxshi variantni tanlashga yordam beradi.

Materialni o`rganish, tahlil qilish, ishlov berish loyiha ustida ishlash davomida olib borilishi zarur. Har doim taqqoslash va tanlash davom etadi. Eskizda izlanish ishlarida navli qog`ozdan foydalanish mumkin. Eskiz yumshoq bajarilgani maqul: qattiqligi 3m, 4m . Bunday qalamda chizilgan chiziqlar aniq bo`lmasa yoki ortiqcha chiziqlar oson o`chiriladi. Eskizga eng oddiy umumiy talablar qo`yiladi. U ohirgi yakuniy Shaklga dahldor emas, aksincha musavvirning fantaziyasi, hayolan ishni mukammallashtirishga ishlaydi. Eskiz tayyorlashda loyiha grafikasi vositalari keng qo`llaniladi. Eskiz chiziqli va rang-soyali bo`lishi mumkin. Ob`yektlarning turli-tumanligi, loyihani eskizlashda turli xil grafik ishlov berishlardan foydalaniladi. Eskiz o`z xarakteri bo`yicha asosiy mavzu omillari bilan bog`liqdir. Loyiha ustida ishlashda barchaga bir xil ketma-ketlikda ishlashni tavsiya qilish



noto`g`ri bo`ladi. Masalan, dizayn sohasida ishlaydigan insonlar ma`lumot to`plagach, o`xshashi bilan tanishgach, shu zohotiy oq eskiz yaratishga, asosan qalamda, Shakl va rang tonlarida bajarish kerakmi? - yo`q albatda. Tajribadan ma`lumki, ba`zi musavvir konstruktorlar loqal taqriban hajmiy yechim bo`lmasa grafik ulanishga kirisha olmaydi. Hajmiy namunasiz ular o`z fikrlarini grafikada ifoda eta olmaydi. Boshqalar esa bir vaqtda buyum loyihasi yechimini ham hajmiy, ham qalam, rangda izlanish olib borishadi. Shu sababli loyiha ustida ishlayotganda qo`l ostida yengil o`zgartiriladigan materiallar bo`lishi maqsadga muvofiq va bir vaqtda hajmida, grafikasida ishlash imkoni tug`iladi.

1-rasm. Eskiz

Mavzu yechimiga har kimda o`z yo`li bo`lishi kerak. Ushbu bosqichda barcha asosiy masalalar hal etiladi: Shakl, rang, masshtablilik, proporsiya, funksional holati va boshqalar. Eskizlashdan so`ng musavvirlik- konstruktiv takliflar masalasi yechiladi. Loyihani bajaruvchi tomon ham vaqtni egallaydi va firklarish yuklamasi kam talab etiladi. Eskizning rang

masalalari yechimi asli qaysi texnikada bajarilgan bo'lsa shunday texnikada bajarilishi va shu materialdan bajarilgan bo'lishi kerak. Rang variantlari qancha ko'p bo'lsa, shuncha ishonch bo'ladi. Taqqoslashda yaxshi aniqlanadi. Lekin eskizda ishlash mashqlari juda ortiq bo'lishi va ularning mexanik qaytarilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ishlanish bo'lar-bo'lmasga emas ongli ravishda olib borilishi kerak. Eskizlarni yaratishda shakllarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shakllarni rivojlantirish bir necha qonuniyatlar bilan amalga oshiriladi:

Kostyumning asosiy elementlari to'g'ri burchak, trapetsiyava oval bo'lgan. Bularning har biri ma'lum vaqt siklida takrorlanadi, ya'ni siklsimon qonuni bo'yicha rivojlanadi, Vaqti-vaqti bilan bitta shakl boshqalariga nisbatan peshqadam – lider bo'ladi. Lekin ikkita boshqa shakllar g'oyib bo'lmasdan, birga "yashaydi" va doimo rivojlana boradi. Ma'lum bir vaqt o'tganda peshqadam Shakl inqirozga uchraydi va ikkitadan bittasi peshqadamlikka o'tadi.

Spiral qonuni rivojiga ko'ra bu voqea doimo takrorlanadi va qonuniyat bo'lib qoladi. Peshqadam shakllar ma'lum bir vaqtda takrorlanib, Shaklni o'xshash (analog) qatorini yaratadi.

Shaklning siluyetlari geometrik turi bo'yicha o'xshash bo'lgan holda uning ichki yechimi, dekorativ elementlari, konstruktiv tizimi, siymo yechimi har xil bo'ladi, chunki har bir vaqt davomida o'ziga xos texnik, va ma'naviy turmush farovonligi bo'ladi.



2-rasm. Eskiz

Shakl rivojlanish jarayonida geometrik va plastik shakllar bir-biring o'rniga keladi. Nozik, figuraning tabiiy proporsiyalarini taqidlaydigan kiyim Shakli o'rniga, figurani yashiradigan hattoki uni o'zgartiradigan geometriklashgan kiyim Shakllari modaga keladi. Bu ketma-ketlik bir-biridan chiqib, Shakl rivojlanishida uzilmas zanjirni yaratadi.

Modani rivojlanish jarayonida plastik va geometrik Shakllarni rag`batlantirilgan qarama-qarshiligi ular eng yuqori darajaga erishgan vaqtida seziladi. Lekin shakllar rivojlanishi jarayonida ushbu rag`batlarni o`zaroaloqadorligiyuzagachiqadi.

Mobil elementlari shakllantiruvchi bo`lib, plastik yoki geometrik shakllarni yetilishi yoki inqirozga uchrashini ifodalaydi.

O`z navbatida asosiy rag`batlarni almashishi mobil elementlarni tarkibiga ta`sir etadi.

Modaning geometrik yoki plastik davri kompozitsiyani barcha elementlarida namoyon bo`ladi, ya`ni ichki bo`linishlari va detallarida, rang va fakturada.

3-



rasm. Eskizlar

Kostyumning muayyan shakli doimo o`zgaradi, ammo u hech qachon butunlay yo`qolmasdan vaqt sari o`zgaradi. Paydo bo`lish va rivojlanish davrlarida kostyum shakliga ichki tebranish, kattalanish yoki siqilish, transformatsiya, aktsentni bir qismdan boshqasiga o`tishi mansub. Bu juda muhim, chunki shaklni ma`naviy eskirishi va uzoq yashashi zamonaviy dizaynni murakkab savollaridan biridir.

Vaqt sari shaklni o`zgarishi turg`unlik va noturg`unlik bilan bog`liq, ya`ni uni elementlarini stabilligi va mobilligi bilan. Shaklning har xil qismlari turli turg`unlik darajasiga ega. Ba`zi elementlariga noturg`unlik umuman mansub emas, ular shakl tarkibiga bevosita ta`sir etmasa ham, bevosita uni shakllanishiga yoki inqiroziga sabab bo`ladi. Ularga chiziqlar, rang, faktura, bezak va b. kiradi. Shakl tarkibi va konstruksiyasi esa turg`un elementlaridir.

Tarkibni o`zgarishi bironda ro`y bermaydi. Avval xarakat, ko`chish, uni ichki elementlarini tangligini o`zgarishi ro`y beradi.

Ular shaklni rivojlanish yo`nalishni hosil qiladi, ya`ni usishni yoki inqirozni. Shakl o`z oxirgi chegarasiga yetib, doira, kvadrat yoki uchburchakka maksimal yaqinlashib, befarq holatga keladi, bu holat uni o`zgarish belgisidir. Shaklni bu rivojlanish qonunini G.Veylg` isbotlagan.

Kostyum shaklini rivojlanish chegarasi cheksiz emas. Uni rivojlanishi asosida va niqoblarini energetik pulsatsiyasida odam figurasi va uni o'lchamlari (bo'yi, eni, qo'l va oyoq uzunligi) yotadi.

Shakl tirik organizmlar kabi tashqi o'zgarishlar ta'sirida pulsatsiya etadi. Pulsatsiya vertikal va gorizontal yo'nalishida bo'lishi mumkin. Kostyum rivojlanish jarayonining o'z amplitudasi bor: tanaga yopishib turishdan, hattoki siqib qo'ygan holdan (mahsus korsetlar va b.), to tanadan maksimal uzoqlashishgacha (krinolin, turnyur va b. yordamida). Bu pulsatsiya turi gorizontal yo'nalishda ro'y beradi.

Vertikal yo'nalishdagi pulsatsiya kiyimni uzunligini (mikro-minidan to supermaksigacha) va yelka holatini nazarda tutadi. Ularda vrestetikideali va texnik imkoniyatlari bilan bog'liq. Shakl muayyan vaqt mobaynida o'z o'qi atrofida pulsatsiya etadi, bu holda har bir davrda kostyumni ma'lum joylariga e'tibor beriladi.

Mobil elementlar shakllantiruvchi bo'lib, shaklni paydo bo'lishiga, rivojlanishiga va inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.
2. Qaxxorovich, N. Q., Juraevich, Y. N., Nozimjonovna, O. I., & Baxtiyorovna, N. B. (2021). The Perspective Directions For The Development Of Sericulture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(09), 24-27.
3. Baxtiyorovna, N. B. (2021). Analysis of New Assortments of Women's Dresses Made of Knitted Fabric. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 4-8.
4. Baxtiyorovna, N. B. (2022). The features of pattern formation on flat knitting machines. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(02), 1-11.
5. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.
45. Абдуллаев, М. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ШИРИНЫ И ДЛИНЫ ШТУЧНЫХ МАХРОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 132-136.

46. Орипов, Ж. И., & Валиев, Г. Н. (2020). Исследование качественных характеристик шёлка-сырца механического и автоматического кокономотания. *Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX)*, (1), 84-87.

47. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И. О., & Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин. In *Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 110-летию со дня рождения профессора АГ Севостьянова* (pp. 147-151).

48. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In *Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева* (pp. 63-67).

49. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. *Актуальная наука*, (11), 9-12.

5. Nozimjonovna, O. I. (2022). Constructive analysis of modern circular needle knitting machines. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 75-79

50. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(09), 1-9.

51. Ulugboboyeva, M. M. (2021). Creation of new modern clothes from national fabrics. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 63-68.

## TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION, KREATIV YONDASHUV

**Tolipova Marxabo**

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** *Ta'lim tizimida innovatsion, kreativ yondashuv haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya, innovatsion, kreativ yondashuv, Kreativ pedagogika.*

XXI asr ta'lim-tarbiyasi jarayonida bu soha mutaxassislaridan qattiq talab qilinayotgan narsa-bu sohaga innovatsiyalarni olib kirishdan iborat. Avvalo, o'qituvchi, o'quvchi-talabalarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berishi zarurdir.

Bizning ishonchimiz bo'lmish yoshlarimizga yanada keng yo'l ochib berish, fazandlarimizni zamonaviy bilim va tajribaga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan ma'naviy yuksak komil insonlar etib tarbiyalar, ularning jamiyatimizda mustahkam va munosib joy olishi yo'lida zarur shart-sharoitlarni yaratib berish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Raqamli texnologiyalari davrida, yoshlar tamomila yangi davrga mos, avvalo raqobat bardosh, maqsad sari intiladigan, bugungi globallashuv davrida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bo'lib yetishmoqdalar, mutaxassis sifatida xalqaro maydonlarda o'zini ko'rsata oladigan kadr sifatida o'z ustida ishlamoqdalar. Bunday vaziyatda avvalo ichki imkoniyatlardan keng foydalanilmoqda, xalqaro, rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalaridan ham foydalanilmoqda. Ta'lim ohada ayniqsa ustozlar namunasi, ularning ma'rifatga oshnoligi, mehnatsevarligi, intizomi, ma'suliyati yosh avlod ongiga kuchli ta'sir qiladi.

2019-yilning 8-oktabr kuni Prezidentimizning tegishli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlandi. Ta'lim muassasalarida konsepsiyani o'rganish, uning asosida kerakli vazifalarni belgilab olishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi bosqichda kasb-hunar maktab ta'lim muassasalari yetuk shaxslarni tarbiyalash va barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'g'in sanaladi. Kasb-hunar maktab ta'lim muassasalari ma'naviy-axloqiy, ilmiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'nolarni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish va rivojlantirishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ko'rsatib berishdan iborat.

Oxirgi yillarda o'quv jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish jarayoni sezilarli darajada kuchaydi. Ular sekin asta ta'lim sohasini egallab olyapti va ulardan an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda faol ravishda foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli

yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tmish mutafakkirlaridan biri "Yo ilm o'rgatuvchi, yo uni o'rganuvchi yoki eshitiruvchi yohud uni sevuvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan" degan ekan.

Darhaqiqat shu ma'noda hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida "ustoz-shogird" an'anasiga katta e'tibor berilmoqda. Chunki o'z shogirdlarining qaysi fanga qiziqishini boshqalardan oldinroq anglab olaoladi. Mana shu jarayonda ustoz shogirdini ma'rifatni sevishga o'rgatishi maqsadga muvofiqdir. Shogird ma'rifatni sevishigina emas, unga nisbatan muhabbat tuyg'usiga ham ega bo'lishi zarur. Ustoz o'z shogirdining tanlagan sohasi bo'yicha zaruriy malakani bilib olishga yo'naltirishi ham zarur. Bu jarayonda talabaga bo'lgan yondoshuv muhim tamoyil amalga oshirilishi kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchidagi mehnatsevarlik fazilatining singdirilishi ham zarurdir. Chunki bu holatda passiv, faqat og'zaki ma'ruza bilan ta'lim berish talabada dangasalik loqaydlikni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada talabatelefon o'ynab o'tirishi, ba'zilarining mizg'ib qolishi, yonidagi kursdoshi bilan gap sotishi hodisalari sodir bo'ladi. Bu esa olib borilayotgan darslarni qoniqarsiz o'zlashtirish bilan yakunlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida muhim tamoyillardan biri-intizom va mas'uliyat hisoblanadi. Chunki intizom ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida katta ahamiyatga egadir. Olib boriladigan ta'lim-tarbiyada talabaning darsga kechikib kelishi, darslarni qoldirishi, darsning sifati va samaradorligiga qanchalik darajada zarar keltirishini iqtisodiy jihatdan dalillar bilan asoslabberishsa, darsga nisbatan talabaning mas'uliyati oshishi muqarrar. Shuni alohida qayd qilish mumkinki, qaerda intizom, mas'uliyat bo'lmasa, o'sha yerda hech qanday yutuq, samara, o'zlashtirish ham bo'lmaydi. Shuning ustozning ham, shogirdning ham intizomi, mas'uliyati havo bilan suv kabi bilim olish, berilgan topshiriq va vazifani o'tashda bajarishda juda muhim o'rin egallaydi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmaticklarini ishlab chiqarish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo'nalishi bo'yicha kreativ pedagogikaga murojaat qilishga yordam beradi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etik va boshqalarda ko'rib chiqiladi.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan qo'yilgan ijodiy yo'nalishdir.

Lotinchada "kreativlik" nuqtai nazari. "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu insonning ijodiy faoliyatining namoyon bo'lishidir.

Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'lim fani va san'atdir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga

qarama-qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi.

Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi.

Kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi bu o'quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan bir oz oldin fikrga emas, balki biroz yuqoriroq bo'lgan talablarni qo'yishimiz kerak

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar bo'lishi kerak, u axborotchi emas, balki o'quvchilarning individual maslahatni o'z ichiga oladi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab- va boshqaradi, qiziqarli kashfiyotlarni rag'bat qiladi, muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni mag'lub va g'alabalarni amalga oshirishga undaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxsning iymon-e'tiqodining shakllanishi juda ham zarurdir. Agar talabaning mustahkam e'tiqodi shakllangan bo'lsa, uni hech qanday yomon maqsadlarga og'ishi sodir bo'lmaydi. Aksincha e'tiqodning pastligi, shakllanmaganligi ta'lim oluvchini yosh, begona, zararli g'oyalarga yetaklashi mumkin.

E'tiqodli insonning shakllanishi quyidagilardan yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Aqidaparastlik, "ommaviy madaniyat" sektantlik, missionerlik, prozelitizm kabi illatlardan himoya qilish vazifasini o'taydi;

2. Inson hayotida sodir bo'ladigan sinovlardan matonat bilan o'tishda manba, asos, garov bo'lib xizmat qiladi;

3. Mamlakatimizda bunyodkorlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini mustahkamlashda yurtimizni yanada obod qilishda, xalqimiz koriga xizmat qilish kabi ezgu xislat va fazilatlarni voyaga yetkazishda shaxsga kuch-g'ayrat bag'ishlaydi;

4. Jahon, Vatanimiz faniga juda katta hissa qo'shgan yurtimizda xorazmiylar, farg'oniyalar, buxoriylar, samarqandiylar, termiziylar, nasafiylar, shoshiylarni kamol topishida muhim xizmat qilishi muhim ahamiyat egallaydi.

Zamonaviy ta'lim tarbiya to'g'risida o'z vaqtida I.A.Karimov shunday degan edilar:

"Pedagogning o'ziga zamonaviy bilim berish; ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabipaysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak", shu sababli talabalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalar orqali dars berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida faoliyat yuritish maqsadga muvofiqdir. Chunki ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, exgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi.

Shu boisdan innovatsion texnologiyalar asosida zamonaviy bilim berish hozirgi davrning eng dolzarb talabi va ehtiyojidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik.qo'llanma.. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
2. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O'quv qo'llanma. - Toshkent, O'qtuvchi, 1996, - 301-bet.
3. Шагеева Ф. Т. Педагогическое мастерство преподавателя инженерного вуза: пути совершенствования //Высшее образование. – 2019. – №.
4. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
6. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO 'ZI OJIZ O 'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O 'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
7. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li T. H., Kamolovich B. E. IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 648-653..
9. Jaxongirovna X. D. ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O 'RNI //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 7. – С. 112-117.
10. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 204-209.
11. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 550-553.
12. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O 'RNASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH. Scientific Impulse, 1(8), 599-603.
13. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. Scientific Impulse, 1(4), 1626-1630.

14. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 284-288.
15. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), 125-132.
16. Sodiqovna, A. M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga reglan bichimli yeng turlarini avfzalligi. PEDAGOGS jurnali, 13(1), 130-133.
17. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research, 2(03), 16-21.
18. Tursunova, X. S. (2021). Study of Preliminary Design Work for the Selection and Manufacture of Fabrics Based on the Analysis of School-Age Girls' Clothing. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 568-572.
19. Mamatqulova, S. R., Nurmatov, D. X. O., Ergashev, M. I. O., & Moydinov, N. X. O. G. L. (2020). The influence of the qualification of repair workers on the efficiency of technical operation of automobiles. Science and Education, 1(9), 193-197.
20. Raxmatovna, M. S. (2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(10), 15-20.
21. Tursumatova, S. (2022). Selection of sewing machines and establishment of manufactured assortments. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 42-46.
22. Qaxxorovich, N. Q., Juraevich, Y. N., Nozimjonovna, O. I., & Baxtiyorovna, N. B. (2021). The Perspective Directions For The Development Of Sericulture. The American Journal of Engineering and Technology, 3(09), 24-27
23. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». Science and Education, 3(5), 584-590.
24. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). STUDY OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF SILK FABRICS AND THEIR ANALYSIS. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 1(3), 28-34.
25. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 29-33.
26. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
27. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. Central Asian Journal Of Arts And Design, 2(12), 74-78.
28. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.



29. Husanqizi, S. M., Ubaydulloyevna, Y. D., & Valiyevich, H. J. (2021). Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing). *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 377-381.
30. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.
31. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O 'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.
32. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59.
33. Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable for Women With An Non Typical Figure. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 10, 22-26.
34. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 284-288.
35. Nozimjonovna O. I., Xusanboyevna I. D. ZAMONAVIY TRIKOTAJ TO 'QIMALARINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 577-580.
36. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(09), 1-9.
37. Uralov L. et al. Analysis of the effect of technological parameters of physical and mechanical indicators of two-layer knitted fabrics //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
38. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева (pp. 63-67).
39. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. *Актуальная наука*, (11), 9-12
40. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.
41. Ulug'boboyeva M. Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 10. – С. 121-124.

## TIKUVCHILIK KORXONALARIDA TABIIY TOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Rahmatova Nilufar Bahodirovna**

*Toshkent viloyati, Toshkent tumani*

*1-son kasb-hunar maktabi*

*maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola tikuvchilik texnologiyasida ishlab chiqilgan tolalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Kalit so'zlar: tola, eshish koeffitsienti, bir davrli va ko'p davrli ko'rsatkichlar, yarim davrli, bikrlik ko'rsatkichlari.*

### KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o'zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom-ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'lga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning har bir sohasi oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Jumladan, tikuvchilik sanoatini rivojlantirish, xalqimizni yuqori sifatli, chiroyli kiyimlar bilan ta'minlash, kiyim ishlab chiqarishda eng sermahsul uskunalardan foydalanish imkoniyatini beradigan, kamroq sonli ishchilar kuch bilan mahsulot hajmini ko'paytiradigan texnologik jarayonlarni va kiyim konstruksiyalarini yaratish tikuvchilik sanoati xodimlari oldida turgan muhim vazifalardandir

Raqamli texnologiyalari davrida tikuvchilik korxonalari fan-texnikaning oxirgi yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan jihozlarni bilan to'ldirilmoqda. Mashina va uskunalarni xilma-xil moslamalar bilan jihozlash orqali texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalashtirish va yengil sanoatda avtomatlashtirish davom etmoqda.

Yengil sanoat — xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki chizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki chizimda amalga oshiriladi. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyab-zal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat maqsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va b. sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqalar. sohalarda ishlatiladi.

To'qimachilik tolalaridan iborat bo'lgan materiallar to'qimachilik materiallari deb ataladi. Tolalarning o'zi, iplar, shuningdek ulardan ishlangan buyumlar shunday materiallar jumlasiga kiradi.

To'qimachilik tolalari ko'ndalang o'lchamlari juda kichik, uzunligi cheklangan, qayishqoq hamda pishiq jismlar bo'lib, kalava ip va to'qimachilik buyumlari tayyorlash uchun ishlatiladi. Tolalar elementar va texnik tolalarga bo'linadi. Yanada maydaroq tolalarga bo'linmaydigan yakka tolalar elementar tolalar deb, bir necha elementar tolani biribiriga yopishtirib olingan kompleks tolalar texnik tolalar deb ataladi. Bu ikkala tolaning

uzunligi cheklangan bo'lib, bir necha o'n-yuz mm ga yetadigan, elementar ip uzunligi bir nechao'n va yuz metr ga yetadigan elementar toladir. To'qimachilik tolalar, iplar va tikuvchilik iplari oddiy sharoitda yumshoq, ingichka, egiluvchan bo'ladilar. Shuning uchun ular erkin holatda tartibsiz joylashgan bo'ladi. Tolalar, iplar olinishida va ulardan mahsulot ishlab chiqarishda ular turli egilish deformatsiyalariga uchraydi. Egilish deformatsiyasida ham yarim davrli, bir davrli va ko'p davrli ko'rsatkichlar o'rganiladi. To'qimachilik tolalar, iplar yarim davrli egilish deformatsiyasidan uzilmaydi. Bajarilgan ilmiy ishlardan ma'lumki agar tolalar, iplar 80-90 mkm radiusli qirrada egilsa shikastlanishi mumkin. Lekin amalda tolalar, iplar bunday kichik radiusli qirrada egilmaydi. Shuning uchun iplarning yarim davrli egilish deformatsiyasi o'rganilmaydi. Iplarning mustahkamligini va ko'p davrli deformatsiyalarga chidamligini oshirish uchun ular eshiladi va bir qancha eshilgan iplar qo'shib pishiriladi. Iplarni eshish koeffitsienti oshishi bilan ularning bikrligi oshadi. Iplarning bikrligi mayin mahsulot ishlab chiqarishda salbiy ta'sir qiladi.

Ip ishlab chiqaruvchi korxonalarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tikuvchilik iplariga qachalik ko'p buram beradigan bo'lsa, ularning bikrlik ko'rsatkich shunchalik ortib boraveradi. Lekin, tikuvchilik iplarida buramlar soni ortishi natijasida bikrlik ko'rsatkichi ortishi mumkin, aks holda ularning uziluvchanlik miqdori ortib ketadi. Shu sababli, tikuvchilik iplariga ham buram berayotganda optimal varianttanlanishi lozim bo'ladi. Iplarning bikrlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Uning uchun, tolalar tarkibi va buramlar soni turlicha bo'lgan tikuvchilik iplaridan namunalar olinib, ularning bikrlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Paxta tolasining fizik-mexanik xossalari chiziqli zichligi (yo'g'onligi), uzunligi, pishiqligi, uzayishi va qayishqoqligi, yeyilishga, egilishga, qisilishga, buralishga hamda tolaning tola ustida sirpanishga qarshiligi, gigroskopikligi, rangi, elektr va issiqlik o'tkazuvchanligi kiradi.

Tolaning uzunligi ham paxtaning sifatini belgilaydigan juda muhim xarakteristikadir. Tola qancha uzun bo'lsa, u kalava ipdagi boshqa tolalar bilan shuncha ko'proq tutashadi va ularni ajratib olish shuncha qiyinlashadi. Demak, uzun tolalardan chiziqli zichligi bir xil bo'lgan pishiq kalava ip olish mumkin, boshqa tomondan, ancha uzun tolalardan normal pishiqlikdagi ingichka kalava ip olish mumkin. Bu holda gap ixtiyoriy uzunlikdagi tola haqida ketyapti. Tolaning pishiqligi deb, uning ch o'zuvchi kuchlarga qarshilik qilish xususiyatiga aytiladi. Pishiqlikni baholash uchun uzilish nagruzkasn kattaligidan, ya'ni tola uzilguncha chidaydigan eng katta kuchdan foydalaniladi.

Turli tarkibli tolalar aralashmasi va 200 br/m buramlar sonining 12,1x2 teksli tikuvchilik iplarining bikrlik ko'rsatkichlarini aniqlashda olingan sinov natijalarini 100% paxta tolasidan olingan 12,1x2 teksli tikuvchilik iplarining sifat ko'rsatkichlariga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, 90% paxta bilan 10% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 10,0% ga, 80% paxta bilan 20% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 13,2% ga, 70% paxta bilan 30% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 20,9% ga oshdi, buramlar soni 300 br/m bo'lganda 100% paxta tolasidan olingan 12,1x2 teksli tikuvchilik iplarining sifat

ko'rsatkichlariga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, 90% paxta bilan 10% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 37,1% ga, 80% paxta bilan 20% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 39,8% ga, 70% paxta bilan 30% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 44,3% ga oshdi, buramlar soni 400 br/m bo'lganda 100% paxta tolasidan olingan 12,1x2 teksli tikuvchilik iplarining sifat ko'rsatkichlariga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, 90% paxta bilan 10% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 1,5% ga, 80% paxta bilan 20% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 5,5% ga, 70% paxta bilan 30% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 10,3% ga oshdi, buramlar soni 500 br/m bo'lganda 100% paxta tolasidan olingan 12,1x2 teksli tikuvchilik iplarining sifat ko'rsatkichlariga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, 90% paxta bilan 10% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 40,8% ga, 80% paxta bilan 20% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 47,3% ga, 70% paxta bilan 30% lavsan tolalari aralashmasidan olingan tikuvchilik ipining bikrligi 53,5% ga oshdi.

Tikuvchilik iplariga yuqori buram berilganda, bikrlik ko'rsatkichi oshadi. Bundan kelib chiqadiki, tikuvchilik iplariga buram berishda optimal varianti tanlab olinadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, 12,1x2 teksli tikuvchilik iplariga 500 br/m buram berilganda, 12,1x2 teksli tikuvchilik iplariga 400 br/m buram berilganda, bikrlik ko'rsatkichi boshqa buramlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. И.Г.Борзунов, К.И.Бадалов, В.Г.Гончаров, Т.А.Дугинова, Н.И.Шилова. Прядение хлопка и химических волокон. 2016.-238-248 б. 2. N.G.Abbasova, B.B.Axmedov, Sh.M.Maxkamova, T.A.Ochilov. Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi. 2016.-30-38 б. 3. Фомченкова Л.Н. Швейные нитки на отечественном рынке// Текстильная промышленность. -2015. № 4.-б. 28-33. 005.95/.96
4. Sh.R. Marasulov. Paxta va ximiyaviy tolalarni yigrish. 2015.-214-222 б.
5. I.S.Soliev. TIKUVCHILIK BUYUMLARI TEXNOLOGIYASI. Darslik. Buxoro.2021
6. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
7. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
8. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
10. Hamidullo o'g'li T. H., Kamolovich B. E. IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 648-653..
11. Jaxongirovna X. D. ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O 'RNI //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 7. – С. 112-117.
12. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 204-209.
13. .Xoshimova, M. X. Q., & Tursunuva, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. Scientific progress, 2(8), 622-626.
14. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». Science and Education, 3(5), 584-590.
15. Sh, T. X., Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis Of The Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(09), 18-23.
16. Samiyevna, T. S., & Raxmatovna, M. S. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(5), 1-10.
17. Mamatqulova, S., & Tadjikuziyev, R. (2020). Метод оцінки рівня кваліфікації ремонтних робітників підприємства автомобільного обслуговування. Логос. Мистецтво Наукової Думки, (10), 41-44.
18. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 29-33.
19. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
- 20..Abduraximova, M. (2022). NOTIPAVIY QOMATLI AYOLLARGA MOS TUSHUVCHI KIYIM TURINI ANIQLASH. Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(18), 41-45.
- 21.Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable for Women With An Non Typical Figure. Texas Journal of Engineering and Technology, 10, 22-36..Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), 125-132.
- 22.Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 550-553.

23. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O'RNASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific Impulse*, 1(8), 599-603.

24. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. *Scientific Impulse*, 1(4), 1626-1630.

25. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI // *Science and innovation*. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 284-288.

26. Samieva, T. S., Mirkomilova, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 275-277.

27. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. *Central Asian Journal Of Arts And Design*, 2(12), 74-78.

28. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ // *Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.

29. Husanqizi, S. M., Ubaydulloyeva, Y. D., & Valiyevich, H. J. (2021). Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing). *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 377-381.

30. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.

31. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.

## DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR...

**Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti o'qituvchisi, O'zbekiston*

**Annotatsiya:** *Maqolada rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonlari va ularning bir-biridan farqlari keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Finlandiya ta'lim tizimi, o'qituvchilar faoliyati, Yaponiya ta'limi, GCSE va A-daraja, Oksford, Kembrij.*

Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini tahlil qilsak, ushbu tizim ularning milliy qadriyatlari va milliy ruhiyatiga qanchalik mos kelishini ko'ramiz. Chunki har bir millatning o'ziga xos rivojlanish yo'li, o'ziga xos ruhiyati va o'ziga xos milliy qadriyatlari bor. O'sha davlatda yashayotgan etnik xalqlarning ham qaysidir ma'noda bilim olishga bo'lgan qiziqishlari muhim rol o'ynashini ko'rishimiz mumkin. Har bir ta'lim tizimi tegishli mamlakatlar yoki jamoalarning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini aks ettiruvchi o'ziga xos kuchli jihatlarga va ayrim qiyinchiliklarga egadir. Ta'lim inson uchun ham, umuman jamiyat uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bizning geografik joylashuvimiz, etnik kelib chiqishimizdan qat'iy nazar, bilimlarni saqlash va oshirishni ta'minlash uchun ta'lim tizimimizni himoya qilish va rivojlantirish juda muhim ekanligini unutmasligimiz lozim. Quyidagi jahon tan olgan o'qitilish uslublarini zamonaviy davlatlar misolida ko'rib chiqsak:

**Finlandiya:** Finlandiya ta'lim tizimi o'zining muvaffaqiyati bilan mashhur. U o'quvchilar va talabalar farovonligiga, keng imkoniyatlarga va individual ta'limga qaratilgan. Ular standartlashtirilgan testlarga kamroq e'tibor beradi, shuningdek, o'qituvchilar sinfda sezilarli erkinliklarga ega. Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosligi ta'lim jarayonida asosiy ustuvorlik o'qituvchi va o'quvchi, talaba uchun imkon qadar erkin, qulay, jismoniy zo'riqish va ruhiy bosimlardan holi muhit yaratishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. O'qituvchilar faoliyati baholanmaydi, tekshiruvlardan o'tkazilmaydi. Ya'ni o'qituvchilarga hisobdorlik emas, mas'uliyat yuklanadi. O'qituvchilar tayyorlash tizimining uzluksizligi va sifati sababli faoliyatlari davomida ularga erkinlik: o'qitish usullari va o'quv materiallarini milliy va mahalliy darajadagi o'quv dasturlari asosida mustaqil tanlash huquqi beriladi. Standartlashtirilgan testlar va maktablar faoliyati inspeksiyasi tizimi mavjud emas, maktablar reytingi yuritilmaydi. O'qituvchiga nisbatan ishonch o'ta yuqori hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha o'quv materiallari bepul taqdim etiladi. O'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi bir oyda – 3900 dollarni tashkil qiladi. [9]

**Yaponiya:** Yaponiyada ta'lim juda qadrlanadi va intizom hamda mehnatsevarlikka urg'u beriladi. O'quv rejasi qat'iy va talabalar ko'pincha qo'shimcha repetitorlik yoki maxsus maktablarga qatnashadilar. Ustozlarga hurmat hokimiyat madaniyatiga chuqur singib

ketgan. Qonunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. Yaponiya konstitutsiyasida barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan. Yaponiya ta'limining ustun jihatlari bisyor. Ulardan yana biri o'qituvchilarning maoshi yuqoriligidadir. Bu esa o'qituvchilarga bo'lgan hurmat-e'tiborning bir ko'rinishidir. Yaponiyada dars boshlanishidan 5 daqiqa oldin o'quvchi, albatta, sinfda bo'lishi lozim. O'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi bir oyda – 4000 dollarni tashkil qiladi. [8]

Germaniya: Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Germaniya dual ta'lim tizimini taklif etadi, bu sinfda o'rganishni amaliy kasbiy ta'lim bilan birlashtiradi. Talabalar akademik yoki kasbiy yo'nalishlarni tanlashlari mumkin, bu esa keng ko'lamli martaba imkoniyatlariga olib keladi. O'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi bir oyda – 4298 dollarni tashkil qiladi. [8]

Amerika Qo'shma Shtatlari: Amerika maktabidagi o'quv yili ikki semestrda bo'lingan. Maktab kuni 6 soatgacha davom etishi mumkin, shu jumladan tushlik tanaffusi, har bir dars 25 daqiqa davom etadi. To'lov evaziga farzandingiz ta'limiy o'yinlar o'ynaydigan yoki uy vazifasini bajarishda yordam beradigan "kengaytmalar" mavjud. O'quv kuni boshlanishidan oldin va oxirida maktabda politsiya xodimlari doimo navbatchilik qilishadi. Bundan tashqari, ertalab va o'quv kunining oxirida maktab xodimlari chorrahalarga borib, yo'l nazoratchisi sifatida o'quvchilarga yo'lni kesib o'tishda yordam berishadi. AQSh ta'lim tizimi shtatlarda farq qiladi, lekin u odatda boshlang'ich, o'rta va o'rta maktab ta'limini o'z ichiga oladi. Bu keng o'quv dasturiga, darsdan tashqari mashg'ulotlarga va standartlashtirilgan testlarga urg'u beradi. Oliy ta'lim imkoniyatlari jamoat kollejlari, universitetlar va kasb-hunar maktablarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi bir oyda – 3521 dollarni tashkil qiladi. [8]

Buyuk Britaniya: Boshlang'ich ta'lim Buyuk Britaniyada yetti yoshdan boshlanadi va o'n yillar davom etadi. Shundan so'ng, bolalar, odatda, shu muassasa ichida o'rta maktabga borishadi. Britaniya ta'lim tizimi boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limga tizimli yondashuvga amal qiladi. U akademik fanlarni jamlaydi va ko'pincha GCSE va A-darajalari kabi standartlashtirilgan imtihonlarni o'z ichiga oladi. Oksford va Kembrij kabi nufuzli universitetlar bilan mashhur. O'qituvchilarning o'rtacha oylik ish haqi bir oyda – 2703 dollarni tashkil qiladi. [8]

Qolgan davlatlarda ham quyidagicha o'rtacha bir oylik maoshini ko'rishimiz mumkin bo'ladi: Singapur 3782 dollar, Janubiy Koreya 2964 dollar, Irlandiya 3671 dollar, Avstriya 2940 dollar, Andorra 3388 dollar, Shvesiya 2893 dollar, Yangi Zelandiya 3354 dollar, San-Marino 2843 dollar, Avstraliya 3346 dollar, Italiya 2726 dollar, Fransiya 3332 dollar, Buyuk Britaniya 2703 dollar, Niderlandiya 3238 dollar, Gonkong 2196 dollar, Bagama



orollari 3189 dollar , Ispaniya 2133 dollar, Kanada 3151 dollar , Kipr 2126 dollar, Isroil 3064 dollar , Sloveniya 1914 dollar, Malta 1783 dollar , Estoniya 1560 dollar, Makedoniya 699 dollar , Botsvana 633 dollar, Braziliya 552 dollar , Xitoy 955 dollar, Chexiya 1454 dollar , Litva 1419 dollar, Malayziya 712 dollar , Meksika 401 dollar, Hindiston 119 dollar , Bangladesh 158 dollar, Qozog'iston 486 dollar, Tojikiston 155 dollar, Qirg'iziston 255 dollar. Yurtimizda hozirgi kunda o'rtacha 208 dollarni tashkil qiladi. [10] O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning — “Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak. Ochiq aytish lozim, biz bu zahmatkash, fidoyi insonlar oldida hali qarzdormiz. Shu boisdan ham, qanchalik qiyin bo'lmasin, o'qituvchilar mehnatini munosib rag'batlantirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. 2025 yilga borib, oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish choralari ko'riladi” , — degan fikrlari butun bir O'zbekiston o'qituvchilarining qanchalik o'z ustilarida ishlashsa, o'rganishsa, albatta, rag'batlanishlarini bilishlari uchun aytilgan eng ishonchli va tasdiqlangan fikr bo'ldi. Zero, har bir o'qituvchi bilim berishdek mashaqqatli yo'lni bosib o'tishda, yurtboshimizning qo'llab – quvvatlashlarini his qilib turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://kun.uz/en/news/2022/09/27/differences-between-schools-of-uzbekistan-and-developed-countries-uzbek-man-in-switzerland-provides-a-comparison-of-public-education>
2. <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/622/519>
3. <https://www.indiatoday.in/education-today/featurephilia/story/10-different-education-systems-around-the-world-2388988-2023-06-05>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/28/fin-education/>
5. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) / ISSN 2181-0842. Sanaqulov Bekzod Oybek o'g'li Shahriyor Suvon o'g'li Shavqiyev Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
6. <https://abt.uz/blog/germaniya-talim-tizimi-va-uning-besh-oltin-qoidasi>
7. <https://oimurschool.ru/uz/samorazvitie/kakie-uroki-v-amerikanskih-shkolah-shkolnoe-obrazovanie-v-ssha-kak-uchatsya-v/>
8. <https://kun.uz/uz/news/2021/03/13/oqituvchilarga-eng-kop-maosh-qaysi-davlatda-berilishi-malum-qilindi>
9. <https://darakchi.uz/oz/136997>
10. <https://daryo.uz/2022/06/08/markaziy-osiyodagi-qaysi-davlatda-oqituvchilar-uchun-eng-yuqori-maosh-tolanadi>

## МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ХРОНИЧЕСКОГО МИЕЛОЛЕЙКОЗА

**Рахманова У.У**

*доцент кафедры военно-полевой терапии и гематологии Ургенчского  
филиала ТМА*

**Юсупов Ш.Э**

*магистр кафедры военно-полевой терапии и гематологии Ургенчского  
филиала ТМА*

**Баходирова Д.Д**

*-студентка педиатрического факультета  
Ургенчского филиала ТМА*

### ВВЕДЕНИЕ

Хронический миелолейкоз — это клональное опухолевое заболевание, вызванное злокачественным перерождением полипотентной стволовой гемопоэтической клетки пролиферация и дифференцировка которой приводит к расширению ростков кроветворения, представленных преимущественно зрелыми и промежуточными формами миелоидных клеток [1,2,3].

ХМЛ является наиболее часто встречающейся разновидностью миелопролиферативного заболевания, на его долю приходится от 15 до 20% всех лейкозов, с обязательным выявлением филадельфийской хромосомы -транслокации t(9;22)(q34;q11) [7,8].

Успехи достигнутые учеными в понимании патогенеза и терапии ХМЛ позволили значимо изменить продолжительность и качество жизни больных, а в настоящее время уже рассматривается вопрос об их излечении [Маһон F. 2015, Ионова Т.И. 2021]. Однако, несмотря на все достижения, остается проблема развития резистентности и прогрессии данной патологии [Шуваев В.А., 2015, Абдулкадыров К.М. 2016]. В связи с этим все чаще встречаются работы по изучению молекулярно-генетических основ ХМЛ, прогноза эффективности таргетной терапии на основании молекулярно-биологических механизмов развития резистентности лечения [Савченко В.Г., 2017, Тихонова В.В.2018].

Следовательно, дальнейшее изучение эпидемиологических показателей ХМЛ в различных регионах, в том числе в Хорезмской области, позволит выявить местные особенности развития и течения ХМЛ, сравнить их с показателями других стран. Выявление частоты встречаемости различных мутаций и их комбинаций на разных территориях даст возможность прогнозировать течение заболевания и на ранних этапах переключаться на более эффективные препараты. А исследование полиморфизма генов, позволит уточнить некоторые механизмы патогенеза данной патологии.

Цель исследования: Изучение эпидемиологии, клинико-гематологической характеристики больных ХМЛ в Хорезмской области, с изучением полиморфизма генов и анализом клинико-генетических ассоциаций, что позволит уточнить некоторые механизмы патогенеза данной патологии, развития резистентности к терапии, и в свою очередь поможет при выборе лечебной тактики и определении прогноза заболевания.

Материалы и методы исследования: Изучены результаты отечественных и зарубежных исследований по эпидемиологии, этиологии, патогенезу, диагностике и лечению больных с ХМЛ.

Все больные по совокупности основных клинико-гематологических признаков, свойственных ХМЛ, были подразделены на 2 группы.

Первую группу составили 28 больных ХМЛ в возрасте от 20 до 70 лет с длительностью заболевания 1 месяца до 6 лет. Из них у 19 больных установлена хроническая стадия - 1-подгруппа; у 6 фаза акселерации 2-я подгруппа; и у 3 фаза бластного криза 3-я подгруппа. У всех больных данной группы исследовался кариотип лейкозных клеток.

Во вторую группу вошли 22 больных в возрасте от 19 до 77 лет с длительностью заболевания от 2 месяцев до 9 лет клинико-гематологическими признаками ХМЛ и с неисследованным кариотипом.

В работе использовались эпидемиологические, клинические, инструментальные, лабораторные, в том числе генетические и статистические методы исследования.

Результаты исследований: Эпидемиологических данных о заболеваемости, распространенности, группах и факторах риска развития ХМЛ в Узбекистане до последнего времени было не достаточно и они имели разрозненный характер. В экономически развитых странах опыт сбора эпидемиологических данных в рамках различных регистров был гораздо шире [2,4]. Так как планирование комплекса лечебно-диагностических и профилактических мероприятий для пациентов с этим заболеванием предполагает необходимость не только ведения регистра больных, но и эпидемиологических, генетических исследований в каждом регионе [5]. По данным мировой литературы регистрируемая заболеваемость ХМЛ составляет 1,0-1,5 на 100 000 населения и занимает 5 место среди гемобластозов [2]. Заболевание встречается у людей любого возраста и обоего пола, но редко у детей младше 10 лет. Пик заболеваемости приходится на возраст 30-50-лет, около 30% - составляют больные старше 60 лет. Ценность эпидемиологических исследований возрастает, когда предоставляется возможность их сравнения. Установлено, что медиана возраста составляет 55 лет, доля больных ХМЛ репродуктивного возраста до 40 лет, составляет 29-30%, из них 39-54 % женщины, пик заболеваемости приходится на 50-59 лет - это наиболее социально активная часть населения .

Эпидемиологические исследования проведенные в Хорезмской области за период 2021-2023гг показали, что количество пациентов с хроническим миелолейкозом в регионе значительно увеличилось за счет повышения заболеваемости в 2 раза и роста распространенности в 5 раз после внедрения современных методов исследования, что указывает на повышение эффективности диагностики и лечения за этот период. Показатели смертности от ХМЛ значимо не изменились.

Клинико-гематологическая характеристика больных с ХМЛ в Хорезмской области по сравнению с данными других авторов не выявила существенных региональных особенностей заболевания.

В рамках данного исследования проведен анализ молекулярно-генетических основ развития хронического миелолейкоза проживающих в условиях Хорезмской области.

При цитологическом исследовании пациентов первой группы у 23 (82,1%) из 28 была выявлена классическая транслокация t(9;22)(q34;q11)-филадельфийская хромосома. При отдельном анализе по подгруппам было отмечено следующее: в первой подгруппе филадельфийская хромосома определялась у 16 (84,2%) больных и в том числе у одной больной обнаружена трисомия по хромосоме 8; у больных второй подгруппы Ph хромосома выявлена у 5 (83,3%) из 6 обследованных, а у 1 (17%) - обнаружен кариотип 2n=47,ху+22 с перестройкой фрагмента BCR по типу B2A2. Между тем, у больных третьей подгруппы, наряду с Ph-хромосомой в опухолевых клетках, у 1(33,3%) больного найдена изомерия хромосомы 17.

Таблица 1

Результаты цитогенетического анализа

Фаза болезни	Ph положительные	Ph негативные	Общее количество (n=28)
Хроническая	16 (84,2%)	3 (15,7%)	19
Акселерация	5 (83,3%)	1 (16,7%)	6
Бластный криз	3 (100%)	0	3
Среднее значение в группе	24 (85,7%)	4 (14,2%)	28

Таким образом, полученные данные основных клинико-гематологических признаков, присущих к хроническому миелолейкозу, выявили однородность их в

исследуемых группах больных (первая группа с обнаруженной Ph-хромосомой или перестройкой фрагмента BCR, вторая - с неизвестным кариотипом, детекция перестройки фрагмента BCR не производилась) Клинико-гематологические параметры обеих групп были близки в абсолютном выражении и претерпевали параллельные изменения по мере прогрессирования клинико-гематологических показателей. Особенно это актуально для больных в хронической фазе заболевания, в которой, большинстве случаев и осуществляется диагностика ХМЛ (таблица 1).

Клиническая симптоматика ХМЛ весьма разнообразна. Как известно, характерным признаком заболевания является увеличение размеров печени и селезенки. Причем начальные признаки болезни нередко связаны именно с увеличением размеров селезенки. При расспросе и объективном осмотре больных ХМЛ выявлена следующая клиническая картина обследованных в зависимости от стадии заболевания (таблица 2)

Таблица 2

Жалобы обследованных больных в зависимости от стадии ХМЛ

Признак	Хроническая стадия (n=28)	Развернутая стадия (n=14)	Терминальная стадия (n=8)
Похудание	13 (46,4%)	12 (85,7%)	8 (100%)
Понижение аппетита	4 (14,2%)	10 (71,4%)	7 (87,5%)
Тошнота, рвота	4 (14,2%)	8 (57,1%)	8 (100%)
Боль в области сердца	14 (50%)	10 (71,4%)	6 (75%)
Сердцебиение	13 (46,4%)	10 (71,4%)	8 (100%)
Гипотония	3 (10,7%)	9 (64,2%)	8 (100%)
Одышка при физической нагрузке	10 (35,7%)	9 (64,2%)	8 (100%)
Боль и тяжесть в левом подреберье	6 (21,4%)	12 (85,7%)	8 (100%)
Частые инфекции	2 (7,1%)	11 (78,5%)	8 (100%)
Геморрагический синдром	3 (10,7%)	3 (21,4%)	5 (62,5%)
Симптомы нейрорлейкоза	-	2 (14,2%)	4 (50%)
Лейкемиды	-	3 (21,4%)	6 (75%)

3. Semenova N.N., Ivanova I.A., Vasilkina A.A. Otsenka ustoychivosti razvitiya kommercheskogo banka na osnove metoda analiza iyerarxiy. Finansi: teoriya i praktika/Finance: Theory and Practice. 2021;25(4):121-135. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2021-25-4-121-135>
4. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726. .
5. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.
6. Ходжанов , Искандар, и Фаррух Гафуров. 2021. «Опыт применения внутрикостного остеосинтеза при разрывах связок дистального межберцового синдесмоза». Общество и инновации 2 (4):123-26. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4-pp123-126>.

## O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING MUHIMLIGI VA AUDITOR RISKI BOSHQARISH YO'LLARI

**Qo'ldoshev Dilshod Melixo'rovich.**

*Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banlari va ularda ichki auditning ahamiyati hamda uning muhimligi borasida fikr va mulozalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Insoniyat, jamiyat, bank, audit, auditorlik tekshiruv, raqobat, bozor munosabatlari, kredit.*

Insoniyat tarixiga bir nazar solsak, jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatda bo'layotgan xodisa va voqealarning kelib chikish sabablari, kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'rganuvchi bir qator tabiiy, iqtisodiy va gumanitar fanlar shakllana boshladi. Bu fanlar bilan birga iqtisodiyot fani ham jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy hodisalarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda jamiyatdagi moddiy ne'matlar yaratishdan tortib, uni iste'moli bilan bog'liq muammolarni o'rgana boshladi. Butun dunyoda jamiyatning tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning a'zolari insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish va hayotlari uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni yaratish ustida izlanishlar olib boradilar. Bu izlanishlar natijasida jamiyat rivojlanishi shakllana boshlaydi. Shu bilan birga jamiyat a'zolari ya'ni kishilar, guruhlar, tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida o'zlarida mavjud bo'lgan resurslardan foydalanib yuqori daromad olishga erishish va olingan daromaddan samarali foydalanish orqali barqaror turmush tarzini yaratishga bo'lgan intilish kishilar o'rtasida iqtisodiy raqobat kurashini keltirib chiqaradi. Bu raqobat kurashi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'rinmas kuch sifatida doimo turtki beradi va iqtisodiyot va jamiyat shu raqobat kurashi orqali rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi - mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlari tamoyillarini to'liq qaror toptirishdan iboratdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida izchil islohotlar olib borilayotgan hozirgi bosqichda tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi roli tobora oshib bormoqda.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida ichki audit tekshirishlarimuhimhamiyatga egadir. Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish muxim xisoblanadi.

Jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganish, qilingan ishlarni sarhisob qilish, natijalarni oydinlashtirish, oldindan amalga oshirmoqchi bo'lgan imkoniyatlarni chamalash, kelgusi ishlarni rejalashtirish, faoliyatni sarhisob qilish va faoliyatga baho berish tizimlari o'zo'zidan jamiyat uchun zarurat sifatida asta sekin shakllana boshladi. Shunday faoliyat turlaridan biri bu auditorlik faoliyatidir. Ma'lumki,

tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Ichki auditning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ichki audit tekshiruv natijalari asosida bankning real holati va ichki nazorat samaradorligining aniq holati to'g'risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan Bank Kengashini ta'minlash;

- ichki audit tizimini va ichki audit tekshiruv jarayonlarining samaradorligini baholash va tahlil qilish;

- bank faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;

- tavakkalchilikni boshqarish jarayonini qo'llanilishini va tavakkalchilikni baholash metodologiyasining samaradorligini kuzatish;

- moliyaviy axborot tizimini, shuningdek elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;

- buxgalterlik hisoboti va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini kuzatish;

- bank kapitalining tavakkalchiligini baholash tizimini kuzatish;

- bank faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

- doimiy taqdim etiladigan hisobotlarning to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

- Buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini va ishonchliligini o'rganish;

- Bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;

- Bank kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o'tkazish yoki o'tkazishga amaliy yordam berish;

- Audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarlik holatlari to'g'risida bank Kengashiga axborot berish.

Auditorning korxon va tashkilotlarning moliyaviy hisobotini tasdiqlash to'g'risidagi xulosasining bo'lishi, mazkur moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun unga bo'lgan ishonchni oshiradi. Auditorlik tekshiruvlarini maxsus auditorlik firmalari yoki alohida sertifikatga ega auditorlar o'tkazishi mumkin. Auditorlik nazorati amaliyotda ikkiga ajratiladi: ichki va tashqi audit. Ichki audit auditorlik nazoratini o'tkazish usuliga ko'ra tashqi audit bilan o'xshash bo'lib, u mustaqil auditorlar yoki auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi audit uchun axborotlarni olish manbai bo'lib hisoblanadi. Tashqi va ichki audit o'rtasidagi sezilarli farq ularning maqomi, asosiy vazifalari va auditorlik tekshiruvini bajarish vaqtiga qarab ajratiladi. Ichki audit asosan mulkdorlar manfaatlariga xizmat qilib, uning asosiy vazifasi korxonaning iqtisodiy ahvoli to'g'risida muayyan korxonaning mulkdorlari uchun axborot tayyorlashdir iborat. Tashqi audit esa nafaqat mulkdorlar, balki davlat va kreditorlar manfaatlari uchun ham xizmat qiladi va uning bosh maqsadi, ushbu korxonaning tashqi foydalanuvchilari: aktsiyadorlar, investorlar, banklar,



soliq va boshqa davlat organlari, sheriklar uchun korxonaning moliyaviy holatiga xolis xulosa tayyorlashdan iboratdir.

Tijorat banklari faoliyatini tashqi auditdan o'tkazish bank va mustaqil auditorlik firmalari o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi va ushbu shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi, ish davomida auditor o'z majburiyatlarini unutmasligi va bank ma'muriyati esa auditor oldida hamma ma'lumotlarni ochiq-oydii tushuntirib berishi va barcha hujjatlarni etkazib berish majburiyatini olishi lozim. Ichki audit banklarda tashkil qilingan ichki audit xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchilik va muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha tegishli maslahatlar berish, ichki me'yoriy hujjatlarga mos kelishini va kelgusi istiqbollarni belgilash imkoniyatlarini ko'rsatishdir. Ichki audit faoliyati moslashuvchan audit qoidalariga asoslangan bo'lib, keng ravishda amalga oshiriladi hamda har bir davlatning birliklariga moslashuvchi bo'lib, xar xil sektorlar faoliyatini boshqarish va alohida shaxslarning madaniyatini ham qamrab oladi. Ushbu tarifdan kelib chiqan holda ichki audit tizimi ichki audit tarifi (ichki auditni o'z ichiga oluvchi elementlar), ichki audit ishonch va maslahat tamoyillarini shuningdek uning qamrov darajasi (risklar, ya'ni nazorat va xodimlarni boshqarish) va bank faoliyatiga o'zining foydasini keltirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Muayyan tijorat bank bo'limini nazorat qilish uchun ichki audit xizmati tomonidan quyidagi dastlabki ishlar amalga oshiriladi: audit o'tkazish ish rejasi tuziladi; auditorlar ro'yxati va ular tomonidan bajariladigan ishlarning maqsadi va vazifalari belgilanadi; o'tgan davrdagi auditorlik xulosasi ko'rib chiqilib, ular bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishi ko'rib chiqiladi; audit o'tkazish bo'yicha buyruq va kassa qiymatliklarini tekshirish uchun guvohnoma tayyorlanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil qilish va uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 25 noyabrdagi 405-sonli Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yilgan talablar to'g'risidagi yo'riqnomasida ichki audit xizmati xodimlarining javobgarliklari belgilangan. Shuningdek, Markaziy bankning yuqorida aytib o'tilgan yo'riqnomasiga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari quyidagi talablarga javob berishlari shart: bajarayotgan vazifalari xarakteriga taalluqli oliy ma'lumotga hamda tegishli kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari; bank qonunchiligi hamda Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi hududida bank faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni bilishlari; umumiy qabul qilingan xalqaro buxgalteriya hisobi va audit andozalarini yaxshi bilishlari; o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari; vazifalarini hal etish ko'lami va muddatiga doir auditorlik dasturlari rejalashtirilayotganda cheklovlarga ega bo'lmasliklari kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2000 y. 26 may.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida" gi qonunni. Adliya vazirligidan 2003 yil 30 avgustda 530-2-son bilan ro'yhatga olingan.
3. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi" muallif: F.M.Mullajonov [va boshq.] F.M. Mullajonovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri.T.: O'zbekiston, 2011.- 368 b.
4. SH.Z.Abdullaeva. Xalkaro valyuta-kredit munosobotlari. Darslik B.m.: T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. - 576 b
5. Банковское дело: Управление и технология: Учѐб. Пособие для ВУЗов Под ред. Проф. А.Н. Товашева, Н. Юнитидана, 2005 г.
6. Белоглазова Г.Н. Банковское дело, 5-е изд., перераб. и доп. Учебник 2008. 320 ст. Фи.С.

## TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI (ATB QISHLOQQURILISH BANK MISOLIDA)

**Karimova Nargiza Karimovna.**

*Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyasi haqida soʻz boradi.*

**Kalit soʻzlar.** *Modernizatsiya, integratsiya, zamonaviy xizmat, moliya tizimi, texnologiya, ATB, investor, bank faoliyati.*

Iqtisodiyotning raqamli modernizatsiyasi hozirgi kunda juda ham ommaviy masalalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va toʻlov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz toʻlov shakllari, banklarning raqamli zamonaviy xizmatlari turlarini rivojlantirish yoʻnalishi kuzatilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini globalashtirish hamda ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida bank va moliya tizimini tubdan isloh qilish, bank tizimiga xorijiy investorlarning ishonchini yanada oshirish hamda ularning eʼtiborini jalb qilish shuningdek, soha barqarorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng qoʻllagan holda, koʻrsatilayotgan bank xizmatlarining turi va xizmatlar bozori koʻlamini kengaytirib borish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga koʻra, moliyaviy sektorning global innovatsion transformatsiyasiga yoʻnaltirilgan, zamonaviy xizmatlar rivojlangan yangi iqtisodiy davridamiz va bu anʼanaviy moliya institutlari uchun ulkan raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning tijorat banklari faoliyatiga integratsiyalashuv darajasi ularning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi.

Bugun jahon iqtisodiyotida keskin raqobat muhiti ustuvor. Jamiyat talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti ham keskin raqobatdan xoli emas. Bunda, shubhasiz, bank tizimining roli yuqori. Tijorat banklari faoliyati biznesga asoslangani bois, ular samaradorligini taʼminlash nafaqat milliy, balki xorijiy tijorat banklari hamda hukumatlarning ham doimiy diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bunda esa oʻz-oʻzidan bank tizimining transformatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotidagi moliyalashuv va raqamlashuv sharoitida Oʻzbekiston milliy bank tizimi transformatsiyasi borasida soʻnggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu haqda Prezidentimiz raisligida shu yil 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi boʻyicha oʻtkazilgan yigʻilishda ham alohida toʻxtalib oʻtildi. Jumladan, sohani isloh qilish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar natijasida soʻnggi uch yilda banklar kapitali 1,8, yillik kredit ajratish hajmi esa 2 barobar koʻpaydi. 4 ta bank ilk bor “evrobond” chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib

keldi. Ipoteka-bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog'iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobar oshdi.

Tahlillarga ko'ra, 2010-yillardan boshlab moliyaviy texnologiyalarga asoslangan Fin-tech kompaniyalari jahon moliya bozorida faollashdi. 2018-yilga kelib, bunday kompaniyalar raqamli amaliyotlar tufayli yuqori samaradorlikka ega ekanini namoyon etib, ma'lum bir moliyaviy amaliyotlar bo'yicha tijorat banklari bilan raqobatlasha boshladi. Shunday bir sharoitda tijorat banklari raqamli transformatsiyasi zarurati kun tartibiga chiqdi. Natijada tijorat banklari tomonidan Fin-tech kompaniyalarini qo'shib olish yoki moliyaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli bank mahsulotlarini joriy etish keskin rivojlandi. Ushbu jarayonda global pandemiya sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatish zarurati ham ijobiy ta'sir etdi. Xorij an'anaviy banklarining yuqori sur'atda raqamli banklarga transformatsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizdagi tijorat banklari transformatsiyasi global raqobatga kirishishda muhimdir. Bunda xususiy banklar transformatsiyasi, asosan, raqamli transformatsiyaga yo'naltirilsa, davlat ishtirokidagi tijorat banklari transformatsiyasi ikkita yo'nalishda tashkil etiladi. Bular, birinchisi, bank aktivlarida xususiy banklarning ulushini keskin oshirishga erishish, ikkinchisi, raqamli transformatsiya amaliyotidir.

Ayni yo'nalishlarda, yuqorida qayd etilganidek, tizimli ishlar olib borilmoqda. Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan alohida maqsad ijrosi tomon intilishni o'zida namoyon qiladi. Shuningdek, onlayn bank xizmatlari hajmining 2,7 barobar oshgani bank tizimi raqamli transformatsiyasidagi dastlabki natijalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi Farmoni bank tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash va ommabopligini ta'minlashda dasturilamal bo'lmoqda. Mazkur Farmonga asosan, "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlangan. Strategiyaning asosiy maqsadi "inson qadri uchun" tamoyilini hayotga tatbiq qilish, aholini va mijozlarni rozi qilishdir. Ushbu maqsadni ATB "Qishloq qurilish bank" ham o'zi uchun eng ustuvor vazifa sifatida belgilab olgan. Shu asosda bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, yangi innovatsion xizmatlarni yo'lga qo'yish, mobil dasturlarni takomillashtirish orqali aholiga keng qulaylik yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviylik, tezkorlik va yuqori sifat bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning asosini tashkil etadi.

Hozirda ATB "Qishloq qurilish bank"ning transformatsiyasi doirasida "Osiyo taraqqiyot banki" va Xalqaro konsalting kompaniyalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Jumladan, xalqaro

konsalting kompaniyasi bilan “Bankning 2020-2025 yillardagi rivojlantirish strategiyasi” ishlab chiqildi, bankning tashkiliy tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi va bankda Loyiha ofisi tashkil etildi. Transformatsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi - bank xizmatlarining sifatini oshirish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xizmat ko‘rsatish qamrovini oshirish maqsadida, 46 ta bank xizmatlari markazlari va 77 ta o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish shoxobchalari (24/7) tashkil etildi.

Aholi va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida raqamli va masofaviy bank xizmatlarining yangi turlari yaratilmoqda. Xususan:

- Mijozlar uchun shaxsiy kabinet, bank mahsulotlariga onlayn arizalar va bank plastik kartalarini uyga yetkazib berish xizmatlari joriy qilindi;
- 35 mingdan ortiq Kobeyjing kartalari muomalaga chiqarildi;
- Quant yangi mobil platformasi yaratildi va takomillashtirilmoqda;
- Smartfonlardan NFC, QR-Code orqali savdo terminali va to‘lov karta sifatida foydalanish imkoniyati yaratildi;
- yangicha tizimda ishlaydigan Call markaz tashkil etildi;
- bank mijozlari uchun 24/7 rejimida bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi;
- xalqaro pul o‘tkazmalarini bankka bormasdan bank kartasiga qabul qilib olish imkoniyati yaratildi;
- Bankomatlar orqali avtomatlashtirilgan shaklda 3,5 mln. AQSh dollaridan ortiq operatsiyalar bajarildi;
- Loyihalarni moliyalashtirish tizimini samarali tashkil etish maqsadida bankda Anderrayting tizimi joriy qilindi;
- bankning yangi mobil ilovasi ishlab chiqildi va bunda kontaktsiz to‘lovlar amalga oshirish, bankning nafaqat onlayn omonatlari, balki bank tomonidan taklif etilayotgan barcha omonatlarni masofadan boshqarish imkoniyatlari yaratildi.

Bu transformatsiya jarayonlarida yangi bank xizmatlari turlarini ko‘paytirish bo‘yicha ishlarning hammasi emas. Yangi xizmatlarni joriy qilish ustida izlanishlar to‘xtamaydi. Xususan, ayni paytda ham transformatsiya jarayonlari faol davom ettirilmoqda. Buning natijasida, joriy yilda Chakana biznes, Moliya bloklari, Risklarni boshqarish, MHXS, G‘aznachilik & ALM yo‘nalishlari hamda yangi tashkil etilgan Loyiha ofisi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan xalqaro ekspertlarni jalb qilish bo‘yicha tender asosida Ernst and Young Advisory xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 “2020 — 2025- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. <https://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi qarori loyihasi. <https://regulation.gov.uz/uz/document/9413>.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik.–T.:“Sharq” nashriyoti, 2010.
5. Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K. Axmedov “Raqamli iqtisodiyot”, Toshkent, 2018.
6. Ходжанов , Искандар, и Фаррух Гафуров. «Опыт применения внутрикостного остеосинтеза при разрывах связок дистального межберцового синдесмоза». Общество и инновации 2, no. 4 (август 30, 2021): 123–126. просмотрено ноябрь 15, 2023. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1111>.

## TIJORAT BANLARIDA KREDIT PORTFELI RISKI VA UNI BOSHQARISH

**Shokirov Bekzod Inomjonovich.**

*Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada tijorat banklarida kredit portfeli riski va uni boshqarish jarayoni haqida soʻz boradi.*

**Kalit sozlar.** *Iqtisodiyot, bank tizimi, daromad, kredit portfeli, tijorat banklari, samara, kredit, mablagʻ.*

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bank tizimini liberallashtirish sharoitida kredit operatsiyalari muhim oʻrin tutadi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat boʻlganligi sababli kredit portfelining sifat darajasi barqarorligini taʼminlash bugungi kunda banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega boʻlgan faoliyat turi hisoblanadi, chunki tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy taʼsir qiladi, yaʼni muddati oʻtgan kreditlarning kredit qoʻyilmalari hajmidagi salmogʻining oshishi bankning likvidligini keskin pasayishiga olib keladi. Shu sababli, tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xoʻjalik sub'ektlarining kredit mablagʻlariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, “Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yoʻl qoʻyilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda. Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish boʻyicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni oʻrganishimiz lozim. Bu masalada yetti oʻlchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta oʻylab ish olib boradigan davr keldi” deb taʼkidlab oʻtganlari bejiz emas. Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yoʻnaltirilayotgan bank kreditlari xajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar miqdorining koʻpayishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar boʻyicha hisoblangan foizlarni oʻz vaqtida undirib olishni taʼminlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar oʻrtasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklararo raqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank xizmatlarining miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qoʻshib kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bogʻliqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli

aktivlarning mavjudligi sezilarli bo'lmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzдор korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim». Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan.

Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir. Bank kredit portfelini boshqarish tizimi faoliyatining zahirida to'rt asosiy tamoyil turadi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida» gi talablari doirasida bank kreditlari asosiy mezonlar bo'yicha muntazam ravishda baholanadi;

Ikkinchidan, bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarning ta'minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Bunda shuni hisobga olish zarurki, ta'minot kredit berilayotganda uni so'ndirishning bosh manbai hisoblanmaydi. Bank ta'minotdan kredit so'ndirilmasligi risklarini kamaytirish maqsadida foydalanadi, xolos.

Uchinchidan, kredit monitoringini amalga oshirish. Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) kreditni monitoring qilish;
- b) kredit portfelini monitoring qilish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. To'rtinchidan, kredit portfelini auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Tijorat banklari risklarning har qanday turida konsentratsiya o'sishining ahamiyatli yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlari qayd etilganda Markaziy bankka darhol xabar berishlari lozim.

Bank risklarini boshqarishning samarali tarkibi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

bankning risklarni qabul qilish va boshqarishda ishtirok etadigan organ va shaxslarining, shu jumladan, kuzatuv kengashi, risklarni boshqarish qo'mitasi, bank



boshqaruvi va risklarni boshqarish tarkibining bank risklarini boshqarishdagi roli (funktsiyalari), vakolatlari va majburiyatlarini (mas'uliyatlari) aniq belgilab beradigan risklarni boshqaruvchi tashkiliy tuzilmani;

risklarni boshqarish madaniyati, axloq kodeksi hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishni;

risk appetiti va uning natijasida paydo bo'ladigan risk limitlarini;

riskni boshqarish tizimini – risklarni aniqlash, o'lchash, hisobotlarni tayyorlash, monitoring va nazorat qilishni o'z ichiga oluvchi risklarni boshqarishning aniq ifodalangan me'yoriy hujjatlari, metodlari, instrumentlari va jarayonlari;

yangi mahsulotlarni joriy qilish siyosatini;

riskni informatsion boshqarish tizimini.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa sifatida shuni aytish joizki, tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

☒ kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;

☒ ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;

☒ kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;

☒ kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;

☒ muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;

☒ yaratilayotgan zaxiralarni yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;

☒ kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;

☒ bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagilarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o'z navbatida, bankning ko'radigan foydasi ham oshadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, T.: O'zbekiston, 1996 yil 25 aprel.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi № 3620 qarori. 2018 yil 23 mart.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturi 2017 yil 12 sentyabr.

4. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi 2696-sonli nizom. 2015 yil 14 iyul.

5. Arzikulov O. Economic-statistical analysis of the regional development of small enterprises and micro-firms in the conditions of accelerated economy //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – С. 92-105.

## KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI O‘STIRISHDA BANK MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION SHAKLLARI

**Axatqulov Akramjon Atham o‘g‘li**  
*Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada korxonalar eksport salohiyati va uni o‘stirishda bank moliyalashtirishning innovatsion shakllari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Modernizatsiya, kompleks rivojlantirish, infratuzilma, korxonaga, moddiy-texnik, rivojlanish.*

Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur‘atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan hisoblanadi. SHu bois, sanoat korxonalaridagi mavjud moddiy-texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish ob‘ektlarini rivojlantirish, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarda innovatsion muhitni yaratish, innovatsion ishlab chiqarishni rag‘batlantirish doimiy ravishda amalga oshirib borilishi darkor.

Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarini muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlanishida esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati yuqoridir. Chunki sanoat tarmoqlari iqtisodiy o‘shish sur‘atini ta‘minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliyashtirilishini rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o‘shishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lgan mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatishicha, ular muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida, xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalaridagi tuzilmaviy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Sanoatning boshqa tarmoqlardan farqli jihati - yuqori darajadagi qo‘shimcha qiymat yaratishidir. Qo‘shimcha qiymat – bu aniq turdagi mahsulotni yaratish, qayta ishlash, marketing faoliyatini olib borish va pirovard iste‘molga chiqarilgunga qadar ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligidir.

Korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda banklar tomonidan moliyalashtirish hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Banklar yordam ko‘rsatishning ba‘zi usullari:

1. Eksportni moliyalashtirish: Banklar eksport aylanma mablag‘larini kreditlash, eksportni jo‘natishdan oldingi va jo‘natishdan keyingi moliyalashtirish va eksport faktoringi kabi eksportni moliyalashtirish yechimlarini taklif qilishlari mumkin. Ushbu moliyaviy

mahsulotlar korxonalarga eksport jarayonida naqd pul oqimlarini boshqarishda yordam beradi va eksport buyurtmalarini bajarish uchun mablag' bilan ta'minlaydi.

2. Savdoni moliyalashtirish imkoniyatlari: Banklar xalqaro savdo operatsiyalarini osonlashtirish uchun akkreditivlar (AK) chiqarishi va kafolatlar berishi mumkin. LClar eksportyorga shartnoma shartlari bajarilgandan so'ng to'lov amalga oshirilishini kafolatlaydi, shu bilan birga eksportchilar va importchilar uchun xavflarni kamaytiradi.

3. Eksport kreditlarini sug'urtalash: Banklar eksport kredit agentliklari bilan hamkorlik qilishlari yoki eksportchilarni to'lamaslik yoki siyosiy xavflardan himoya qilish uchun eksport kreditlarini sug'urtalashlari mumkin. Bu qamrov eksportchilarning yangi bozorlarga kirishga bo'lgan ishonchini oshiradi va to'lamaslik xavfini kamaytiradi.

4. Valyuta xizmatlari: Banklar eksportchilarga xalqaro savdo bilan bog'liq valyuta risklarini boshqarishda yordam berish uchun raqobatbardosh valyuta kurslari va xedjlash vositalarini taklif qilishlari mumkin. Bu korxonalarga o'z mahsulotlarini raqobatbardosh narxda belgilash va valyuta kursi o'zgarishi ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

5. Eksportni rag'batlantirish dasturlari: Banklar eksportchilarga ixtisoslashtirilgan moliyalashtirish dasturlari va maslahat xizmatlarini taqdim etish uchun davlat organlari va eksportni rag'batlantiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Bu dasturlar eksport bo'yicha treninglar, bozor tadqiqotlari va eksport bilan bog'liq imtiyozlar va grantlardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

6. Ayborot kapitalini moliyalashtirish: Banklar eksportchilarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan aylanma mablag'lar kreditlarini taqdim etishi mumkin, bu ularga mahsulot ishlab chiqarish va jo'natishni moliyalashtirish imkonini beradi. Bu korxonalarga inventarni boshqarish, xom ashyo sotib olish va boshqa operatsion xarajatlarni qoplashda yordam beradi.

7. Eksportni rivojlantirish jamg'armalari: Banklar eksportga yo'naltirilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus fondlar tashkil etishlari mumkin. Bu mablag'lar korxonalarga eksport imkoniyatlarini kengaytirish va yangi bozorlarga kirishda yordam berish uchun imtiyozli moliyalashtirish, aktsiyadorlik investitsiyalari yoki grantlar taqdim etishi mumkin.

Korxonalar uchun xalqaro savdoni moliyalashtirish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan va eksportchilarning o'ziga xos talablarini tushunadigan banklar bilan hamkorlik qilish muhim. Banklar har bir korxonaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish va eksport salohiyatini ochishga yordam berish uchun o'zlarining moliyalashtirish yechimlarini moslashtirishi mumkin.

Korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga yordam beradigan bank moliyalashtirishning bir qancha innovatsion shakllari mavjud. Mana bir nechta misollar:

1. Eksportni moliyalashtirish: Banklar eksportni moliyalashtirishning turli variantlarini taklif etadilar, masalan, jo'natishdan oldin va jo'natishdan keyingi moliyalashtirish, eksport aylanma mablag'lar kreditlari va eksport krediti kafolatlari. Ushbu ob'ektlar korxonalarini

eksport buyurtmalarini bajarish va pul oqimini samarali boshqarish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlaydi.

2. Savdoni moliyalashtirish: Banklar akkreditivlar, bank kafolatlari va hujjatli inkassolar kabi savdoni moliyalashtirish yechimlarini taqdim etadi. Ushbu vositalar xalqaro savdo bilan bog'liq risklarni yumshatishga yordam beradi va eksportchilar va importchilarga kafolat beradi.

3. Ta'minot zanjirini moliyalashtirish: moliyalashtirishning bu shakli banklarni xaridorning kreditga layoqatliligi asosida yetkazib beruvchilarga aylanma mablag'lar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu ta'minot zanjiri bo'ylab pul oqimini yaxshilashga yordam beradi va etkazib beruvchilarga yirik eksport buyurtmalarini bajarishga imkon beradi.

4. Faktoring va schyot-fakturalarni diskontlash: Faktoring va schyot-fakturalarni diskontlash xizmatlari korxonalariga o'zlarining debitorlik qarzlarni moliyaviy institutga chegirma bilan sotish imkonini beradi. Bu zudlik bilan pul oqimini ta'minlaydi va chet ellik xaridorlar tomonidan to'lanmaslik xavfini kamaytiradi.

5. Eksport krediti sug'urtasi: Banklar eksportchilarni chet ellik xaridorlar tomonidan to'lanmaslik xavfidan himoya qilish uchun eksport kreditlarini sug'urtalashni taklif qiladilar. Ushbu sug'urta qoplamasi korxonalariga yangi bozorlarga chiqish va yirik eksport shartnomalarini qabul qilishda yordam beradi.

Bank moliyalashtirishning ushbu innovatsion shakllari korxonalarini eksport salohiyatini oshirish uchun zarur mablag'lar, xavflarni kamaytirish va pul oqimlarini boshqarish vositalari bilan ta'minlashi mumkin. Korxonalar o'z banklari bilan maslahatlashib, o'zlari uchun mavjud bo'lgan moliyalashtirish imkoniyatlarini o'rganishlari tavsiya etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral', 28 (6722)-son.

2. Омонов А.А., Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б

3. “2020 — 2025-YILLARGA MO‘LJALLANGAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK TIZIMINI ISLOH QILISH STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992 12.05.2020 sonli farmoni

4. Semenova N.N., Ivanova I.A., Vasilkina A.A. Otsenka ustoychivosti razvitiya kommercheskogo banka na osnove metoda analiza iyerarxiy. Finansi: teoriya i praktika/Finance: Theory and Practice. 2021;25(4):121-135. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2021-25-4-121-135>

ОТДЕЛ «СПОРТИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ»

Ибодов Азизбек сын Иноята

ЗНАЧЕНИЕ МАССОВОГО БЕГА СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ БУХДУ УЧИТЕЛЬ

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada mualliflar ommaviy yugurishni targ'ib qilish shu bilan birga uning foydali tomonlari ortiqcha vazindan xalos bo'lishi haqiqda fikir yuritilgan. Yugurishning inson organizimida fizologik o'zaishlari haqida yani nafas olish, qon aylanish, hazim qilish, muskullar faoliyatiga tasiri haqida bayon qilingan. Yugurishning muskullarga tasiri kun davomida biologik jihatdan qay tarzda tasir qilish sodir bo'lishi o'rganildi.*

**Аннотация:** *Аннотация: в данной статье авторы обсуждают пропаганду массового бега трусцой и его полезные аспекты для избавления от лишнего веса. Описание физиологических изменений бега в организме человека, а именно влияние на дыхание, кровообращение, пищеварение, и мышечной активности. Было изучено, как воздействие бега на мышцы происходит биологически в течение дня.*

**Annotation:** *in this article, the authors discuss the promotion of mass jogging and its beneficial aspects to get rid of excess weight. A description of the physiological changes of jogging in the human body, namely, the effect on breathing, blood circulation, digestion, and muscle activity. It was studied how the effect of running on the muscles occurs biologically during the day.*

**Kalit so'zlar:** *Yugurish, ommaviy, ertalbki yugurish, fizologik o'zgarish, yugurish ortiqcha vazin mushaklar, nafas olish, qon aylanish.*

**Ключевые слова:** *Бег, масса, утренний бег, физиологические изменения, бег с избыточной массой мышц, дыхание, кровообращение.*

**Key words:** *Running, mass, morning running, physiological change, running overweight muscles, breathing, blood circulation.*

Уважаемый Президент и наше правительство, проводится большая работа для повышения популярности спорта среди населения и тем самым укрепления здоровья населения и увеличения среднего возраста населения Узбекистана. В настоящее время мы встречаем множество вопросов среди людей о том, как избавиться от ожирения и лишнего веса. Например: Как бегать, чтобы похудеть? Как бегать, чтобы избавиться от лишнего веса, похудеть, быть красивым и здоровым? Это один из самых распространенных вопросов среди людей с приближением весны. В наших исследованиях решение этой проблемы было найдено в результате множества исследований и анкет по избавлению от лишнего веса. Сегодня мы расскажем вам, как бегать, чтобы получить желаемый результат. Прежде всего, давайте выберем подходящее время для бега. С 6.30 до 7.30. Первая фаза мышечной активации. В это время организм легко сжигает калории, поэтому это лучшее время для бега. с 11.00

до 12.00. Второй этап повышения мышечной активности. В это время хорошо бегать, потому что за счет повышенной активности организм сжигает калории быстрее. С 16.00 до 18.00. Третий этап повышения мышечной активности. В это время организм использует калории, накопленные в жировой ткани. Это помогает похудеть. Лучшее время для похудения – бег натошак, через 2 часа после еды. Как только мы выяснили, который час, мы можем теперь выяснить, где проходит очередь. Вы можете бегать там, где вам удобно. Если вы хотите узнать, какое расстояние вы пробежали, то рекомендуем бегать на стадионе. Ритм бега и скорость. Организм потребляет энергию в течение первых 40 минут, используя запасы углеводов. После 40 минут бега начинают расщепляться жиры, требующие больше энергии. Поэтому в ходе наших педагогических экспериментов мы выяснили, что для бега 3 раза в неделю необходимо не менее 1 часа. Правильное дыхание во время бега. Рекомендуется дышать через полукрытый рот и нос. Очень важно дышать глубоко и поверхностно в начале бега, а также часто при ускорении. Вдыхайте каждые 23 шага и выдыхайте каждые 23 шага. Одежда и обувь для бега. Для бега выбирайте кроссовки со специальным знаком «беги».

На них надеваются специальные подушечки, они дышащие, изгибы мягкие. Одежда должна быть спортивной, свободной и не сковывать движения. В холодную и ветреную погоду лучше одеваться потеплее. Особенно в области шеи и головы, ведь эти части тела во время бега теряют до 40 процентов тепла. Питьевая вода во время бега. Во время бега теряется в 4 раза больше воды, чем обычно, поэтому пить воду необходимо. Кроме того, в ходе наших педагогических исследований, когда мы изучали пользу бега для здоровья, мы обнаружили следующие полезные аспекты: 1. Упражнения для лечения абдоминального диабета. Мозг посылает информацию, когда человеческое тело выполняет физическую активность и потребляет брюшной жир. Медицинские исследования подтверждают, что это хороший способ снизить риск развития диабета. Поскольку вещества, выделяемые жировыми клетками, могут мешать выработке инсулина, регулярные физические упражнения стали «лекарством» от легкого диабета 2 типа. Действия по уменьшению перегрузки. Избыточные питательные вещества поступают из жидкости, вырабатываемой верхними слоями, а не из кровеносных сосудов. Причина, по которой бег обеспечивает достаточное количество суставной жидкости в коленных и коротких суставах, заключается в том, что человеческое тело теряет жидкость на каждом шагу, а затем выводит ее снова. Это также помогает снизить нагрузку на суставы выше колена, поскольку улучшенная мышечная ткань может лучше поддерживать суставы. Упражнение – это активное мышление мозга. Регулярные упражнения помогут вам задействовать свой мозг и активное мышление. Активные мышцы человеческого тела могут посылать информацию, стимулирующую выработку белка в человеческом мозге. Медицинская наука называет это мозго-нейрострофическим фактором. Человеческое тело нуждается в этом нерве, чтобы

способствовать развитию новых нервов и установлению нервных связей. Упражнения для усиления кровообращения. Во время занятий спортом учащается сердцебиение, улучшается кровообращение и поступление кислорода. Таким образом, он обеспечивает клетки большим количеством питательных веществ и придает коже красный цвет. Бег от гипертонии. Увеличивая частоту сердечных сокращений во время бега, он поставляет богатую кислородом кровь к напряженным мышцам. Если люди часто употребляют наркотики, сердце может испытывать большую нагрузку. Таким образом, даже когда организм находится в состоянии покоя, сердце может транспортировать больше крови при каждом сокращении, и все клетки тела лучше снабжаются кислородом. Снижая массу тела и снижая уровень гормонов стресса в крови, можно нормализовать кровяное давление. Пациенты с легкой формой заболевания могут заниматься активными упражнениями и есть меньше еды. Объем легких увеличивается. Мышцы потребляют много кислорода за короткий промежуток времени, поэтому организм приучается вдыхать больше кислорода в состоянии покоя. Исследования показали, что 30 минут бега в день способны увеличить объем легких (объем легких) на 1/3 и повысить способность крови связывать кислород. Прием разгружает кишечник. Упражнения и физическая активность могут помочь парасимпатическим нервам стимулировать пищеварительную систему. Небольшие физические упражнения являются основной причиной запора. В этом случае врач рекомендует следующее: необходимы не менее 30 минут физических упражнений, при этом также исчезнут боли при непроходимости кишечника.

Установлено, что если правильно выбрать время для бега и бегать больше часа, это расщепляет лишний жир у человека. Организм потребляет энергию в течение первых 40 минут, используя запасы углеводов. Доказано, что после 40 минут бега начинают расщепляться жиры, требующие больше энергии.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Ходжамкельдиев Г.С. Массовая популяризация легкой атлетики в отдаленных районах // Сборник теоретических и практических проблем теории и методики физического воспитания, спортивной тренировки. Ч. 2022. -Б.1317-1318.

2. Ходжамкельдиев Г.С. Роль ходьбы в здоровье человека // «Актуальные проблемы развития легкоатлетического спорта и совершенствования спортивной подготовки» Международная научно-практическая конференция. 2021. - Б.313-316.

3. Ibodov A. Control Of Special Aggression Of Football Players //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

4. Инайят сын И.А. и др. НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ.: 10.53885/edinres. 2022.23. 46.042 БухДу «Факультет физической культуры», преподаватель межфакультетского отделения физического воспитания и спорта, Ибодов Азизбек Иноят оглы, сын



Болтаева Суннат Бахтиёр, студент второй ступени факультета физической культуры // Научно-практическая конференция. - 2022. - С. 228-232.

5. Azizbek I. The Need for an Innovative Approach to the Development of Students 'Physical Culture //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 148-152.

6. Нуримов Р. И., Ибодов А. И. КОНТРОЛЬ СПЕЦИАЛЬНОЙ ЛОВКОСТИ ФУТБОЛИСТОВ //Fan-Sportga. – 2021. – №. 2. – С. 8-10.

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI INNOVASIYON YONDASHUV

**Soqiyeva Barnoxon Abbosovna.**

*Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani*

*7-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fani, hamda ularda dars jarayoniga innovatsion yondashuv haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *O'qituvchi, fan, ta'lim, dars ishlanma, pedagogik texnologiya, A.G'ulomov, H.Ne'matov, B.Ziyomuhammadov, B.Abdullayeva.*

Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir. Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o'quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o'zlashtirishida yetakchi samara beradi.

Keyingi yillarda ta'limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang qo'yildi. Xususan, A.G'ulomov, H.Ne'matov, B.Ziyomuhammadov, B.Abdullayeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta'limida integrativ yondashuv xususida U.Musayev, D.Yo'ldosheva kabi pedagoglarning ilmiy izlanishlaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, K.Mavlonovanning "Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari" bo'yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat ega.

Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz: Mashg'ulotni o'tkazish tartibi muammo o'zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o'rtasi bo'lib, bunda muammoing dolzarbligi va o'ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator

muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg'ulotda o'qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi. Ishtirokchilar dars davomida yakka, juftlikda va kichik guruhda faoliyat olib borishlari tushuntiriladi.

Утилитаристик қарашларда ижтимоий жавобгарлик тўғрисида икки хил йўналишни кўриш мумкин. Биринчиси — максималлик, у инсондан фаолият жараёнида, келиб чиқадиган оқибатларга қарамасдан, ўз зиммасидаги бурчини бажаришни талаб қилади. Бу ерда шахсий манфаатларни кўзламаган ҳолда юқори даражадаги мотивация муҳим ўринда туради. Иккинчиси — минималлик, у инсонлардан ортиқча куч талаб қилмай, инсоннинг хатти-ҳаракатлари ҳолатини, бошқаларга ундан келадиган фойдани ҳисобга олади. Бу ердаги хатти-ҳаракатлар натижасининг аҳамияти жамият учун муҳим роль ўйнайди. Ушбу икки йўналишнинг қарама-қаршилигига биринчи бўлиб М. Вебер эътибор берди. У Кант этикасини «этиқод этикаси» деб номлайди, иккинчи қараш — утилитар йўналишдаги этикани эса «жавобгарлик этикаси» деб атайди. М. Вебер ўз асарида шундай деб ёзади: «Биз ўзимиз учун шуни аниқлаб олишимиз керакки, ҳар қандай ахлоқий йўналтирилган ҳаракат икки хил фундаментал бир-бирига қарама-қарши максималликка бўйсунishi, «этиқод этикаси» ёки «жавобгарлик этикаси»га йўналтирилган бўлиши мумкин»[19.696]. Лекин бу «этиқод этикаси» — маъсулиятсизликка, «жавобгарлик этикаси» эса принципсизликка ўхшаб кетмаслиги керак. Бундай ғоялар универсал ва умумийдир.

Ю. Н. Давидов ана шу иккала этикани фаолият мезонларига мос тарзда кўрсатиб берган. Унинг фикрича, этиқод этикаси бу дунёда эмас, нариги дунёда ҳукмрон; жавобгарлик этикасида эса реал дунё — инсон яшаб турган дунёдир. Қолаверса, этиқод этикасининг мақсади — «инсон руҳи»ни пок сақлаш, жавобгарлик этикасининг мақсади эса «инсон аъзосини», бошқача айтганда, яшаш учун имкон яратувчи ҳамма нарсалар (иқтисод, сиёсат, маънавият)нинг имкониятларини сақлашдир. Шунингдек, этиқод этикаси — мажбур қилмасликка, жавобгарлик этикаси эса мажбурлаш, зўрлашга таянади[20.94]. Умуман олганда, ижтимоий жавобгарлик ҳозирги замонда, яъни технологиялар тараққиёти даврида инсонлар учун ягона

ахлоқий ечим ҳисобланади. Ҳозирги замонда «ижтимоий жавобгарлик» тушунчаси, инсонлар фикрича, ўзининг классик маъносига унчалик ҳам тўғри келмайдиган янги тушунчага айланиб бормоқда. Ҳозирги инсонларнинг кенг қамровли орзулари, яхши ҳаёт кечирши ва ҳеч қандай камчиликларсиз яшаш учун ҳаракатларининг оқибатлари теварак атрофга ҳамда инсониятнинг келажагига бевосита таъсир кўрсатади. Ўзгармас деб ҳисобланган табиат ҳам мустақамлик қобиғини йўқота бошлади. Кўпчилик файласуфлар қатори Г.Йонас ҳам табиат йўқолса, инсоният ҳам йўқ бўлишини таъкидлаган.

И. Кантнинг ахлоқий принципадаги «императив» категорияси ҳар бир хатти-ҳаракатни шубҳасиз умумий қонун остига жойлаштириш мумкин бўлган ҳолатда ҳаракатни давом эттиришни талаб қилади. Инсоният ўз келажагини барбод қиладиган бўлса, ахлоқий қараш ва қонун-қоидалар ҳам керак бўлмай қолади. Кант «императив» категориясининг аҳамияти катта бўлмаса, демак, инсониятнинг яшашига, мавжудлигига хавф солмайдиган, ундан ҳам муҳимроқ императив категория бўлиши керак. Кант яшаган даврда масалани бундай қўйиш учун сабаб бўлмаган, чунки бу даврда бутун инсониятни йўқ қилиш имкони йўқ эди. Ҳозир эса ушбу имкониятнинг чегараси йўқлигини барча билиб турибди. Бундай ҳолатда бутун инсоният яшаш учун мажбуриятни ўз зиммасига олиши ва келажак авлодини таъминлашдек ижтимоий жавобгарлик туйғуси билан яшаши лозим.

Инсонларнинг келажакда мавжуд бўлишини таъминловчи ижтимоий жавобгарликнинг асоси — авлодлар олдигаги бурч, ота-оналар масъулиятидир. Ижтимоий жавобгарликнинг муҳим хусусиятини инсоннинг фаровон келажакка бўлган умидигина эмас, балки инсониятнинг фалокатидан (йўқ бўлиб кетишидан) қўрқув ҳам ташкил қилади. Биз ўзимизга қандай ёмонлик қилинишини биламиз ва шу асосда яхшиликнинг аҳамияти катталигини англашимиз мумкин.

«Ижтимоий жавобгарлик» инсоният учун ўта муҳим тушунча бўлиб, унинг жамият ривожига беқиёс аҳамияти қўйидагилар билан боғлиқ:

биринчидан, XX аср ўрталарига келибгина ижтимоий жавобгарлик муаммоси инсоният учун энг муҳим мавзу сифатида ўрганила бошланди. Бу муаммонинг илмий ва оммавий баҳс мавзуга айланишининг асосий сабаби ҳозирги замонда фан-техника ва иқтисодий-сиёсий қарашларнинг ривожланганлигидир;

иккинчидан, ижтимоий ҳаётга таъсир қилувчи ҳозирги глобал муаммоларнинг илдизларидан бири — иқтисодий таъминот. Бу дунёда юзага келиши мумкин бўлган иқтисодий-ижтимоий муаммолар учун ҳар бир инсон ўз ҳаракатининг натижасига қараб жавоб бериши шарт. Бугунги ижтимоий-иқтисодий муаммоларнинг ечими топилишида йирик ташкилотларнинг ўрни беқиёсдир. Чунки улар кўплаб инсонлар учун тирикчилик манбаи бўлиб, кўплаб инсонларни қамраб олиш имконига эга. Барча ташкилотлар инсонларга хизмат қилади ва доимо улар олдида жавобгардир;

учинчидан, ижтимоий «жавобгарлик» тушунчаси илмий-фалсафий, ҳуқуқий-ахлоқий маънодаги энг муҳим тушунча бўлиб, унга эътиборсиз бўлиш мумкин эмас.

Умумий маънода, бу шахсий бурчни бажариш, субъектнинг ўз ҳаракатлари натижаси учун инсонлар олдида ҳисоб бериши кераклигидир. «Мен қилишим керак» (бурч) ва «Мен қила оламан» (эркин ирода) тушунчалари ўртасидаги боғловчи тушунча «ижтимоий жавобгарликдир»;

тўртинчидан, ижтимоий жавобгарликнинг тузилиши муносабатлар тизими сифатида намоён бўлади. Унинг характери учта муҳим элемент билан боғлиқ: жавобгарлик субъекти, жавобгарлик объекти ва субъектнинг ҳаракатларини назорат қилувчи инстанцияларнинг таъсир кучи.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Йонас Г. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации. — М., 2004.
2. Скрипник А.П. Этика. — М., 2004.
3. Этика. Энциклопедический словарь / Под общ. ред Р. Г. Апресяна, А. А. Гусейнова. — М., 2001.
4. Маҳмудов М. Фозил одамлар шахри. Тўплам. — Т.: Халқ мероси нашрети, 1993. — Б. 185.
5. Хохлов В. А. О гражданско-правовой ответственности // Правоведение. — 1997. — № 1.
6. Прокофьев А.В. Справедливость и ответственность: социально-этические проблемы в философии морали. Тула, 2006.
7. Шестакович А.В. Нравственная ответственность и ее воспитание у детей в семье. — Минск, 1979.
8. Давыдов Ю.Н. Этика убеждения и этика ответственности: Макс Вебер и Лев Толстой // Этическая мысль. — 2006. — № 7.
9. Муздыбаев К. Психология ответственности. — Л., 1983.
10. Прокофьев А.В. Справедливость и ответственность: социально-этические проблемы в философии морали. — Ту-ла, 2006.
11. French P. Collective and corporate responsibility. — NY., 1984.
12. Дубко Е.Л. Политическая этика. — М., 2005.
13. Гегель Г. Лекции по истории философии. В 2-х кн. — СПб., 1994. Кн. 2.
14. Гусейнов А.А. Античная этика. — М., 2003.
15. Нерсесянц В. С. Сократ. — М., 1984.
16. Смит А. Теория нравственных чувств. — М., 1997.
17. Зомбарт В. Буржуа. — М., 2004.
18. Оссовская М. Рыцарь и буржуа. — М., 1987.
19. Вебер М. Избранные произведения. — М., 1990.
20. Давыдов Ю.Н. Этика убеждения и этика ответственности: Макс Вебер и Лев Толстой // Этическая мысль. — 2006. — № 7.



## AVTOMOBIL ELEKTR VA ELEKTRON JIHOZLARI TUZULISHI, ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH ISHLARI

**Omonova Zuhraxon Adxamjon Qizi**  
*Oltiariq 2-Son Kasb Hunar Maktabi.*  
*Ishlab Chiqarish Ta'limi Ustasi*

**Annotasiya:** *Avtomobil elektr va elektron jihozlari tuzulishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari xaqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Avtomobil elektr va elektron jihozlari, texnik xizmat ko'rsatish, yuqori, o'lchov, anjom, vosita, qurilma, saqlash, texnika.*

Dunyo bo'ylab avtomobillar eng ko'p yo'lovchilar va yuk hajmi sonini olib yuradi turli ishlab chiqarishni amalga oshiradi ularga mahsus jihozlarni o'rnatish bilan funksiyalar, turmush tarzimizga, madaniyatimizga, dam olishimizga xizmat qiladi, bir so'z bilan aytganda, ajralmas bo'lagiga aylandi zamonaviy sivilizatsiyaning bir qismi desak adashmaymiz.

Avtomobillarni elektr va elektron jihozlari tuzilishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, avtomobil sohasidagi texniklarning o'ziga xos bo'lgan bir qismidir. Bu sohada ish beruvchilar elektrik va elektronik sub'ektlarning nazorat va ta'mirlashini amalga oshirishlari uchun xususiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

Elektr avtomobillar elektr energiyasidan foydalanadigan transport vositalaridir. Ularning tuzilishi traditsionallaridan farqli bo'lib, ularning elektrik motorlari, akselerator va boshqalar kabi elektronik jihozlari mavjud. Elektr transport vositalari, akkumulyatorlar yordamida energiyani saqlaydigan va elektrik motori orqali kuchlantiradigan qurilmalardan iborat bo'lgan. Elektronik jihozlar esa, avtomobildagi barcha elektrikli va elektronikli tizimlarni birlashtiradigan va nazorat qiladigan qurilmalardir.

Elektr energiya iste'molchilar sonining ko'payishi, ularning quvvatini ortishi avtomobillarda elektr ta'minot, ishga tushirish, o't oldirish, yoritish tizimlarini shakllanishiga olib keldi. Avtomobillarda turli xil nazorat-o'lchov asboblari keng ko'lamda ishlatila boshlandi. Elektr ta'minot tizimi generator, kuchlanish rostlagichi va akkumulyatorlar batareyasidan iborat. Juda uzoq muddat davomida avtomobillarda asosan o'zgarmas tok generatorlari ishlatildi. Elektron sanoatning rivojlanishi va bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlar avtomobillarda yarim o'tkazgichli to'g'rilagichlarga ega bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlarini ishlatish imkonini berdi. O'zgaruvchan tok generatorlari o'zgarmas tok generatorlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, xususan ularning ishlatish jarayonidagi ishonchlilik va chidamlilik darajasi ancha yuqori, o'lchamlari nisbatan kichik bo'lgan holda katta quvvatga ega, tannarxi ancha past va hokazo.

Elektr va elektron jihozlarni tuzatish va ta'mirlash ishlari, elektrik va elektronika sohasida mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Diagnostika va muammo aniqlash: Avtomobillarda yuzaga keladigan elektrik va elektronik muammo va nosozliklarni aniqlash uchun diagnostik vositalardan foydalanish. Bu vositalar avtomobilning kompyuter tizimiga ulanish imkonini beradi va muammo haqida ma'lumotlar olishga yordam beradi.

2. Elektronik jihozlar va avtomobilning elektrik tizimini ta'minotlarga ulanish. Bu, elektrikli motorlar, akkumulyatorlar, invertorlar, kabel va elektronik kontroller kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

3. Muayyan elektronik jihozlarning yoki elektr avtomobillarning ta'mirlashini va almashtirishini amalga oshirish. Bu, yozuvli devorlar, sensorlar, elektronik boshqaruv qurilmalari va boshqalar kabi jihozlarning almashtirishini o'z ichiga oladi.

4. O'rganish va yangilanishlar: Elektrik va elektronika sohasidagi yangiliklarni, texnologik o'zgarishlarni, yangi jihozlar va qurilmalarini o'rganish va ulardan foydalanish.

5. Xavfsizlik va tahlil: Avtomobillarni elektrik va elektronik jihozlarini o'rganish va ularga bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash. Elektronik sistemlarning xavfsizligini aniqlash, qo'llanish xatoliklarini tahlil qilish va ularni bartaraf qilish.

Bu jarayonlar uchun avtomobillar elektr va elektronik jihozlarini tuzatish va ta'mirlash bo'yicha mutaxassislar va xususiy vositalar talab qilinadi. Ularning bilimi va tajribasi, muammo aniqlash, ta'mir va ta'minot ishlarini yaxshi amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon avtomobil dvigatellarida siqish darajasi, aylanishlar chastotasining o'sishi bilan birga tejamkorligini oshirish, chiqindi gazlar zaharliligini kamaytirish masalalarigabo'lgan talabning kuchayishi o't oldirish tizimlaridagi yuqori kuchlanish qiymatini 1,5-2 baravar oshirish zaruratini tug'ildi. Klassik yoki kontaktli o't oldirish tizimining imkoniyati cheklanganligi sababli bu muammoni hal qilish uchun o't oldirishning yangi tizimlari ishlab chiqildi, xususan kontakt-tranzistorli, kontaktsiztranzistorli, mikroprosessorli o't oldirish tizimlari shular jumlasidandir. Avtomobillarning yoritish tizimi bir tomondan harakat havfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan haydovchi va yo'ovchilarga ma'lum qulaylik yaratish vazifasini ham bajaradi. Avtomobil transporti vositalari sonining ortib borishi va ular harakatining tobora tig'izlashishi yo'l-transport hodisalarining keskin ko'payishiga olib keldi. Davlat avtomobil nazorati to'plagan ma'lumotlarga ko'ra bu noxush hodisalarning 60% dan ortiqrog'i ko'rinish yaxshi bo'lmagan sharoitlarda (ya'ni tun, tuman) sodir bo'ladi. Bu, avtomobillarda gomofokal va elipssimon faral, yoritishni avtomatik rostlovchi tizimlar, tumanga qarshi faralar, galogen va ksenon lampalarning joriy qilinishiga olib keldi. Yaqin kelajakda avtomobillarning yoritish tizimida yarim o'tkazgichli yorug'lik chiqaruvchi elementlar, suyuq kristallar va boshqa turdagi yangi yorug'lik jihozlarni ishlatish mo'ljallanmoqda.



Avtomobillar elektr va elektron jihozlari tuzulishi, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, elektr transport sohasida keng qo'llaniladigan muhim mavzu bo'lib, bu yo'nalishda ko'plab tushunchalar mavjud.

1. Elektr avtomobillar: Elektr avtomobillar, batareyalar orqali ishlaydigan elektr motorlari yordamida ishlaydigan avtomobillar hisoblanadi. Ular, benzinli yoki dizel motorlarga nisbatan kam emissiyaga ega bo'lib, energiya samaradorligi yuqori bo'lishi bilan bilinadi. Elektr avtomobillarning elektron tuzilmalari, batareyalar, elektr motorlar, invertorlar, elektronika va boshqa komponentlardan iborat bo'lishi mumkin.

2. Batareyalar: Elektr avtomobillarda batareyalar, energiya saqlash va o'zaro aloqani ta'minlash uchun muhim element hisoblanadi. Tugri tanlangan batareyalar, avtomobilning ishlab chiqish masofasini, tezligini va energiya oqimini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu batareyalar ko'plab li-ion (litiy-ion) batareyalar, nikkell-marganet batareyalar yoki boshqa xil turlarda bo'lishi mumkin.

3. Elektronika: Elektr avtomobillar o'zida yuqori darajada elektronika ishlatadi. Bunda, batareyalarning boshqaruv sistemlari, elektronik boshqaruv paneli, elektronik bog'lovchilar va boshqa tizimlar ishlatiladi. Elektronika, avtomobilning batareyalaridan keladigan energiyani boshqa elektronik apparatlar uchun moslashtirish, yanada samarador energiya ishlatish va tashqi tarmoqlarga aloqani ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Ta'mirlash va texnik xizmat: Elektr avtomobillarning ta'mirlash va texnik xizmati, ularning elektronika va elektr jihozlari tuzatish va o'zgarishlarni amalga oshirishga oid bo'lgan ishlar bilan bog'liq. Bu, batareyalar, elektr motorlar, invertorlar, bog'lovchilar va boshqa komponentlarning ta'mirlashini, diagnostik sinovlarini, o'zgarishlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Elektr avtomobillar va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasidagi tushunchalar va bilimlar tez-tez o'zgarib borayotgan sohalar bo'lib, yangi texnologiyalar va yechimlar keng qo'llanilayotgan misollar mavjud. Shuning uchun, texnik xizmat ko'rsatuvchilari va ta'mirlash ustalari, elektr avtomobillar va ularga bog'liq yangiliklarni kuzatib borish va yangi o'rganishni davom ettirishga muhtoj bo'ladi.

Avtomobillarga elektr va elektron jihozlarni tuzish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, avtomobil sohasidagi yangiliklar va texnologiyalarning o'zgarishi bilan muhim bo'lgan bir mavzu. Bu sohada ko'p kompaniyalar, xususan avtomobil ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko'rsatuvchilari, yangi elektr mobil modellarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun xizmat tarmoqlarini rivojlantirishadi.

Elektr avtomobillar va ularning elektron jihozlari tuzilishi, odatda, elektrik energiyasi iste'mol qiluvchi motorlardan, batareya tizimidan, boshqaruv panelidan va elektronik boshqaruv sistemidan iborat bo'ladi. Bu komponentlar avtomobilning elektrik ishlab chiqarish, o'zaro aloqalar, energiya saqlash va o'zgaruvchanlikni boshqarish imkoniyatlarini ta'minlayadi.

Elektr avtomobillarning tuzilishi va jihozlari xususiyatlariga qarab, ularga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari turli darajada bo'ladi. Ba'zi oddiy ta'mir ishlari, masalan,

batareya o'zgarishlari, elektrik ishlab chiqarish tizimini tekshirish va boshqarish panelidagi moslamalar bilan bog'liq muammo yechish, avtomobilning zaryadlovchi portini ta'mirlash va boshqarish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, mushinachi va texnik xizmat ko'rsatuvchilari, muhim ta'mirlash va diagnostika ishlari bilan ham shug'ullanishi mumkin. Bu, elektrikli motorlarning, batareya tizimlarining, elektronik boshqaruv sistemlarining va boshqa jihozlarning ta'mirlashini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda, avtomobilga tegishli dastur va tizimlarni tekshirib chiqish, muammo aniqlash va ularni bartaraf etish, komponentlarni almashtirish, yangi jihozlar o'rnatish va elektronik to'xtash holatlarini tahlil qilish kabi amallar o'tkazilishi mumkin.

Ushbu sohada xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar, xizmat tarmoqlari, avtomobillarni ta'mirlash va diagnostika qilish uchun xususiy jihozlar va dasturlarni taqdim etishadi. Bundan tashqari, ularga elektrikli avtomobillar bo'yicha mutlaqo yangilashgan xizmat ko'rsatish xizmatlari, batareya tizimlari uchun shuhrat qilingan o'zaro almashinuv va GPS tizimlari, energiya saqlash taktikalari, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullari va boshqalar kabi maslahatlar beriladi.

Elektron sanoatning rivojlanishi natijasida tannarxi arzon, o'lchamlari kichik, yuqori haroratlarga chidamli va ishonchiligi baland bo'lgan kremniy yarim o'tkazgichlar asosida yasalgan to'g'rilagichlarining paydo bo'lishi avtomobillarda, o'zgarimas tok generatorlariga xos bo'lgan kamchiliklardan holi bo'lgan o'zgaruvchan tok generatorlarini keng ko'lamda ishlatish imkonini berdi.

Barcha bu tuzilish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, elektr avtomobillar sohasining rivojlanishiga bog'liqdir. Kompaniyalar va xizmat ko'rsatuvchilar, yangi texnologiyalar va avtomobillar turlarining o'sishi bilan birgalikda muhandislik va yetarli yetishmovchilikni oshirish uchun xilma-xillikni amalga oshirishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xaydarali Fayzullayev, Azamat Mirtemirov. Avtomobil dvigateling moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari texnologiyasi. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. 2023/2/9

2. Sahtarov, X. A. O., & Fayzullayev, X. (2022). Alternativ yoqilg'ilarda ishlaydigan avtomobil konstruksiyalari tahlili. Academic research in educational sciences, 3(4), 1080-1087.

3. Qobulov, M. A. O., & Abdurakhimov, A. A. (2021). Analysis of acceleration slip regulation system used in modern cars. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 526-531.

4. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3316>

5. <https://cyberleninka.ru/article/n/avtomobillarga-texnik-va-servis-xizmat-ko-rsatish-usullari>

## ZUBTURUM O'SIMLIGINI MEDA-ICHAK KASALIGIDA QO'LLANILISHI

**Meliboyeva Shoxista Sharofiddin qizi**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot unverseteti*

*farmakalogiya kafedراسi assistenti*

**Po'latova Mexriniso Xamza qizi**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot unverseteti talabasi*

*bexruzmehriniso@gmail.com*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada barglarning xamiri yoki pyuresi barglaridan qaynatilgan pulpa, zaharli ilon chaqishi, davolash, o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari, o'simlik me'da shirasining ishlab chiqarilishini normallashtirish uchun oshqozon-ichak trakti kasalliklari va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *burglar, xamir, pyure, pulpa, zahar, ilon, davolash, o'simlik, shifobaxsh, o'simlik, me'da, shira, oshqozon-ichak, kasalliklar*



Ko'p yillik o't o'simligi qisqa bila n o'simlik ildizpoya va rozet bazal barglar. Gullar katta to'plangan zubturums silindrsimon boshqoq, uzunlik 2-5 sm.Yo'l bo'ylab o'sadi qirg'oqlar, nam va suv ostida o'tloqlar, qumloq tuproqlarda. Zubturum urug'lari va eng muhimi - barglar sinovdan o'tkaziladi va qadimgi dorivor anglatadi. Urug'lar o'z ichiga oladi shilliq, oqsil va taninlar moddalar, aucuban, yog'li yog ', fermentlar, qatronlar. 10 g maydalangan urug'lar 100 ml qaynoq suvga quyiladi va shilimshiq olinadi, bu qo'llaniladi, infuziya va suzishdan keyin, yallig'lanish uchun olinadi oshqozon. Zubturum ildizi ekstrakti ari va boshqa chaqishlar uchun ichkarida buyuriladi, hasharotlar Zubturum barglari yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega, nafas olish organlari kasalliklarida, buzilishlarda analjezik ta'sir ovqat hazm qilish organlari (diareya, oshqozon-ichak traktining katarasi). Zubturum preparatlari tonik ta'sirga ega, ishtahani rag'batlantiradi, qondagi gemoglobinni oshirishga yordam beradi. O'simlik ekstrakti anti-sklerotik xususiyatga ega harakat, xolesterin miqdorini kamaytiradi qon. Dorivor vosita sifatida zubturum dan olingan an'anaviy tibbiyot uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan infuziya shaklida. Barglari sifatida ishlatiladi gemostatik va yaralarni davolovchi vosita, zarbalar, kesishlar, xo'ppozlar, burun uchun qon ketishi. Yangi barglarning xamiri yoki pyuresi barglaridan qaynatilgan pulpa

ishlatiladi yaralarni, zaharli ilon chaqishini va shishishni davolash uchun; ari va asalarilarning chaqishi natijasida yuzaga kelgan. Yaralarni davolashda, pastasini qo'llash tavsiya etiladi ezilgan barglar, uni yangi barg bilan yoping; bir vaqtning o'zida qaynatma yoki sharbatni oling qichitqi o'tidan (yoki shunga o'xshash harakatda, qonni tozalovchi o'simlik).



#### O'simlikning shifobaxsh xususiyatlari

Zubturumning xom ashyosi ko'plab foydali moddalarni o'z ichiga oladi: fitonsidlar, polisakkaridlar, fermentlar, vitaminlar (C, K), organik kislotalar, pektinlar, taninlar, glikozidlar, achchiq, saponinlar, mis, sink. Boy kimyoviy tarkibi dorivor o'simlikka gemostatik, o'rab qo'yuvchi, antiseptik, regenerativ, yallig'lanishga qarshi, antispazmodik va ekspektoran ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari, o'simlik me'da shirasining ishlab chiqarilishini normallashtirish uchun oshqozon-ichak trakti kasalliklari uchun ishlatiladi.

Zubturum xomashyosiga asoslangan infuziyalar, damlamalar va preparatlar terining har qanday shikastlanishini (kuyishlar, aşınmalar, tishlashlar, dermatitlar, xo'ppozlar) va ginekologik kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Ichki foydalanish uchun dorilar (sharbat va Pantagluclide) gastrit, oshqozon yarasi, enterokolit, fermentopatiya va disbakterioz uchun buyuriladi. Zubturum pnevmoniya, ko'k yo'tal, bronxit va boshqalar uchun ekspektoran sifatida buyuriladi.

Boshqa dorilar singari, hamroh kontrendikatsiyaga ega:

- individual intolerans;
- o'tkir bosqichda oshqozon-ichak kasalliklari.

Ehtiyotkorlik bilan bolalar, homilador va emizikli ayollar foydalanishlari kerak.

Barglarni yig'ish va pishirish xususiyatlari

Katta zubturum xom ashyosi gullash davrida, may-avgust oylarida yig'ib olinadi. Barglar ehtiyotkorlik bilan kesiladi, yuviladi va havoda yoki quritgichda quritiladi (50° C dan yuqori bo'lmagan haroratda). Tabiiy sharoitda quritishda dorivor xom ashyoni quyosh nuri va kekiishdan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun barglar soyabon bilan qoplangan va vaqti-vaqti bilan aylantiriladi.



Tayyor xom ashyo yaxshi gazlangan joyda, mato yoki qog'oz qoplarda yoki yog'och qutilarda 2 yildan ortiq bo'lmagan muddatda saqlanadi.

Infuziyalar yoki damlamalar quritilgan zubtutum barglaridan tayyorlanadi.

Infuzionni tayyorlashning ikkita varianti mavjud:

1 osh qoshiq. l. ezilgan xom ashyo 1 stakan issiq suv (90°S) bilan quyiladi va 15 daqiqaga qoldiriladi. Keyin infuzion filtrlanadi va suv bilan 200 ml ga keltiriladi.

4 osh qoshiq. l. Quruq yo'ldosh o'ti 500 ml issiq suv bilan quyiladi va termosda 2,5 soatga qoldiriladi. Infuzion ichimlik suzilishi kerak.

Tayyor infuzion 1 osh qoshiq ishlatiladi. l. Ovqatdan 40 daqiqa oldin, kuniga 3-4 marta.

Qaynatma biroz boshqacha tayyorlanadi: 1 osh qoshiq. l. xom ashyo suv bilan quyiladi va keyin kamida 15 daqiqa davomida suv hammomida saqlanadi. Tayyorgarlikdan so'ng ichimlik suzilishi kerak.

Doktor maslahati

Zubtutum barglarini o'zingiz tayyorlashingiz yoki dorixonada xarid qilishingiz mumkin. Har holda, dori-darmonlarni tayyorlash uchun tasdiqlangan retseptlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tananing salbiy reaksiyasini oldini olish uchun siz foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilishingiz va komponentlarning belgilangan hajmlari va nisbatlaridan oshmasligingiz kerak.

Zubtutumning xususiyatlari

Katta zubtutum barglari sifatida ishlatiladi:

- yarani davolash
- yallig'lanishga qarshi
- gemostatik
- og'riq qoldiruvchi
- bakteritsid agenti.

Zubtutumdan foydalanish



Infuziyalar va damlamalar c hinordan tayyorlanadi. Misol uchun, dorixonalar briketlarda zubtutum barglarini sotadilar, ularda siz suv infuziyalarini tayyorlashingiz mumkin. Barglarning qaynatmasi oshqozon-ichak trakti kasalliklari, shu jumladan oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning oshqozon yarasi uchun ishlatiladi. Zubtutum sharbati past kislotali gastrit va surunkali kolit bilan yordam beradi. Oshqozon yonishi uchun quyidagi tayyorgarlik tavsiya etiladi:

- zubtutum barglari - 20 g katta zubtutum
- Seynt Jonning go'shti o'ti - 20 g
- romashka inflorescences - 5 g.
- Infuzionni tayyorlang, 1 osh qoshiqni oling. kuniga 3 marta qoshiq.

Qizilo'ngach kasalliklari uchun quyidagi to'plamni ham tavsiya qilish mumkin:

- zubtutum barglari - 2 qism
- quritilgan o't - 3 qism
- romashka gullari - 2 qism
- celandine o'ti - 1,5 qism
- Seynt Jonning go'shti o'ti - 2 qism
- kalendula gullari - 2 qism
- Kentavr o'ti - 1 qism
- jo'xori urug'lari - 5 qism
- ezilgan gul kestirib - 5 qism.

To'plamga (2-3 osh qoshiq) qaynoq suv (500 ml) tushiring, uni bir kechada termosga joylashtirish yaxshidir. Keyin suziladi, ovqatdan keyin kuniga 5-6 marta 40-50 ml iliq holda ichiladi. Aralashmaning ta'mi uchun asal va limon qo'shishingiz mumkin, lekin shakar emas! (Zaykin D.)



GERDning kuchayishi yoki remissiyasi davrida o'simlik preparatlari buyurilishi mumkin:

- romashka (gullar) - 5 g
- Seynt Jonning go'shti (o't) - 20 g
- katta zubtutum (barglari) - 20 g.
- 1 osh qoshiq infuzionni oling. Ovqatdan 15-20 daqiqa oldin kuniga 3-4 marta qoshiq.

(Privorotskiy V.F., Luppova N.E.)

Gastrit, enterit, enterokolit bilan og'rigan bolalar uchun tavsiya etilgan dorivor o'simliklar to'plamini bu erda ko'rish mumkin.

Xalq tabobati va dorivor o'simliklardan foydalangan holda past kislotali gastritni davolash uchun bu yerga qarang.

Qabziyatni dorivor o'simliklar bilan davolash uchun bu yerga qarang.

Oshqozon kislotaliligiga zubtutumning ta'siri

Yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan katta zubtutum oshqozon sekretsiasini normallantiradi va me'da shirasining zararli ta'siridan himoya qiladi.

Zubtutum katta. Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Qon ivishining kuchayishi va qon phtilarinin shakllanishiga moyilligi bo'lgan odamlarga davolanish paytida zubtutum preparatlarini qabul qilish tavsiya etilmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:**

1. Джалилов, Ф. С., Болтаев, М. М., & кизи Мелибоева, Ш. Ш. (2022). BROCCOLINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(3), 194-205.

2. Meliboeva, S., Boltayev, M., & Jalilov, F. (2022). The effect of broccoli sprouts on diabetes mellitus and the gastrointestinal tract. Science and innovation, 1(D5), 81-87.

3. Болтаев, М. М., Шарипова, Э. М., & Мелибоева, Ш. Ш. (2022). ПЕРВЫЕ ЛЕЧЕБНО-БОТАНИЧЕСКИЕ САДЫ НА ТЕРРИТОРИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. ИТМОИЙ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 96-100.

4. Boltayev, M. M., Sh, M. S., & Jalilov, F. S. (2023). PREPARATION AND DRYING OF BROCCOLI HERBS (BRASSICA OLERACEA L.). Электронне видання мережне Редакційна колегія: проф. Котвіцька АА, проф. Владимірова ІМ, проф. Георгіянц ВА, проф.

Перехода ЛО, проф. Журавель Ю, проф. Колісник СВ, доц. Криськів ОС, проф. Власов СВ, ас. Смелова НМ, ас. Григорів ГВ, 19.

5. [https://turist.edu.yar.ru/metodika/metodika\\_turizm/lekarstvennie\\_travi\\_ch3.pdf](https://turist.edu.yar.ru/metodika/metodika_turizm/lekarstvennie_travi_ch3.pdf)

6. <https://ooo-sun.ru/blog/podorozhnik-lekarstvennoe-rastenie-poleznye-svoystva-kak-zavarivat-sovety-vracha/>



## MAKTABGA TAYYORLASHDA BOLALARNI O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

**Jabborova Marifat Qodiraliyevna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi, p.f.f.d., (PhD).*

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularni maktabda o'qiy oladigan qilishdan iborat. Bu esa o'z navbatida maktabdagi o'qish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida muayyan izchillik bo'lishini taqozo etadi.*

**Kalit so'zlar:** *umumrivojlantiruvchi, alifbogacha davr, alifbo davri, alifbodan keyingi davr, barqaror diqqat, idroki, taffakur, xotira, xayol hamda tasavvur, irodaviy sifatlar.*

**Аннотация:** *Основная задача организации дошкольного образования – дать детям всестороннее образование и дать им возможность учиться в школе. Это, в свою очередь, требует определенной последовательности между школьным обучением и воспитанием в детском саду.*

**Ключевые слова:** *общее развитие, доалфавитный период, алфавитный период, послеалфавитный период, устойчивое внимание, восприятие, мышление, память, воображение, волевые качества.*

**Annotation:** *The main task of organizing preschool education is to provide children with a comprehensive education and give them the opportunity to study at school. This, in turn, requires a certain consistency between schooling and kindergarten education.*

**Key words:** *general development, pre-alphabetic period, alphabetic period, post-alphabetic period, sustained attention, perception, thinking, memory, imagination, volitional qualities.*

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabga kirishda teng boshlang'ich imkoniyatlarni ta'minlash muammosini hal qilishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bo'lajak tarbiyachilari bolaning shaxsini rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatadilar, chunki ular bolaning ijodiy rivojlanishini amalga oshirilishiga, o'z-o'zini takomillashtirishiga hissa qo'shadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga o'qish va yozishni o'rgatishning boshlang'ich bilimlarni berish, ya'ni bolalarga so'z haqida tushincha berish, so'zlardan gaplar tuzishga o'rgatish, gaplarni so'zlarga ajratish va ular tartibini aytishga (so'zlarni qismlarga, bo'g'inlarga ajrata olishga) o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni aytish va ularni so'zlarda tahlil qila olishga, o'rgangan harf va tovushlardan bo'g'in yasay olishga, harf elementlarini yozishga va hokazolarga o'rgatish lozim. Bola maktabga borgunga qadar

shunday malakalarga ega bo'lishi, uning maktabda muvaffaqiyatli o'qishining garovi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida, oilada o'qish va yozishga o'rgatish umumrivojlantiruvchi yo'nalishga ega bo'lib, u bolada fikr yuritish qobiliyatini, axloqiy-irodaviy estetik va boshqa shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida, oilada o'qish va yozishga o'rgatish - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim sharti deyish mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarni boshlang'ich sinflarda o'qishini muvaffaqiyatli boshlab ketishlari uchun o'qish va yozishga o'rgatishda, savodga tayyorlashga o'rgatish davrining vazifalarini, mazmuni va uslubiyotlarini juda yaxshi bilishlari kerak.

Maktabda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish 3.5 oy davom etadi va u uch davrni - alifbogacha davr, alifbo davri, alifbodan keyingi davrlarni o'z ichiga oladi.

1-davr. Alifbogacha bo'lgan davr 3-7 kun davom etadi va bu davr ichida bolalar nutqi rivojlantiriladi, gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inga va hokazolarga ajratishga o'rgatiladi.

2-davr. Bu alifbo davri hisoblanib, bunda bolalar o'zbek tilidagi barcha tovushlar va ularning harf belgilari bilan tanishadilar.

3-davr. Alifbodan keying davr 10-12 kun davom etib, bunda bolalar hamma tovush va harflarni o'rganib oladilar. Bu davrga kelib, bolalar endi alifbodagi hikoyalarni, she'rlarni, sujetli rasmlarni va rasm ostidagi yozuvlarni, gaplarni o'qiy oladigan bo'ladilar. Chunki alifbodan keyingi davrning maqsadi hamma bolalarda bo'g'inlab to'g'ri o'qish malakasini hosil qilishdan iboratdir.

Maktabda bolalarni yozishga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan bir vaqtda olib boriladi. Ammo bolalar maktabda tez va puxta savod chiqarishlari uchun poydevor bog'cha ostonasida qurilgan bo'lishi kerak. Aytish lozimki, maktabga qadam qo'ygan bolalar tez savod chiqarishga qiziqadilar. Shu bois, agar bolalar maktab ta'limiga yaxshi tayyorlangan bo'lsa, o'qish va yozish jarayonini osonlik bilan o'zlashtiradilar. Bu fikr quyidagi parchada o'z tasdig'ini topganligini ko'ramiz. "Birinchi sinfga 6 yoshdan o'qishga borgan bolada yonidagi bolaga nisbatan jismonan, ruhan va aqlan tayyorgarlik bo'lmasa, bu bolada mutelik, qo'rqqoqlik, o'z kuchiga ishonmaslik, noshudlik avj oladi, boshqalar oldida u o'zini kamsitilgan his qila boshlaydi".

Maktabga borish bolalar hayotida yangi bir dunyo hisoblanadi. Endi ularning faoliyatlarida turli o'zgarishlar yuz beradi. Odatda, maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatlari, vazifalari o'qish hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ularning yangi sifat, yangi xususiyatga ega bo'lishlarini taqozo eta boshlaydi. Endi o'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustahkam xotira va tafakkur, yaxshi nutq, iroda shuning bilan birga mustaqillik, ishchanlik, batartiblik sifatlari tarkib topgan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularni maktabda o'qiy oladigan qilishdan iborat. Bu esa o'z navbatida

maktabdagi o'qish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida muayyan izchillik bo'lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, bog'chada bolalarning jismoniy o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy, axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Bolalarni maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, ular bilan o'tkaziladigan ta'limiy faoliyatlarda bolalarning idroki, diqqati, taffakur va xotiralari, xayol hamda tasavvurlari, irodaviy sifatleri doimiy ravishda rivojlantirib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki bolalarnutqining qay daraja rivojlanganligi ular maktabda o'qishga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ishonchli dalil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun tayyorlov guruhiga bolalarni maktabga tayyorlashda ularning o'z ona tilini yaxshi, puxta o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligi orttirishlariga, to'g'ri talaffuz qilishlariga, to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga alohida ahamiyat berish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qiziqishlariga jiddiy e'tibor beriladi.

Katta guruh bolalari uchun maktab hayoti doimo qiziqarli hisoblanadi. Shu bois tarbiyachi va ota-ona bunday qiziqishni qo'llab-quvvatlashi va yanada orttirib borishi kerak. Buning uchun esa maktab va unda o'qish haqida qiziqarli suhbat o'tkazish hamda yaqin atrofda joylashgan maktabga sayohat uyushtirish foydalidir. 6-7 yoshga to'lish davri go'daklikning tugashi va o'smirlikning boshlanish davriga to'g'ri keladi. Ana shu davrdan boshlab bolalarni uzluksiz o'qishiga o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalar 1-sinfga borar ekanlar, ular savod chiqarishga puxta hozirlik ko'rgan va o'qish malakasini egallashga yaxshi tayyorlangan bo'lishlari kerak. Shuning uchun 6 yoshli bolalar bilan olib boriladigan ta'lim - tarbiyaviy ishlar bolalarda madaniy nutq saviyasini oshirishga, fonematik eshituv diqqatini rivojlantirishga, ona tiliga qiziqishini tarbiyalashga, so'zni tovush jihatdan tahlil qila olish malakasini shakllantirishga qaratilmod'i lozim. Shuningdek, bolalar tovushlarni ko'rinishiga qarab bir - biridan farqlashga, so'zdagi urg'ularni belgilay olishga, gaplarni so'zlarga ajratishga, berilgan 2-3 ta so'zdan gap tuzishga va ularning ketma-ketligini ayta olishga o'rgatishi kerak. Bolalar o'zbek tilidagi barcha harflarni bilib olishlari va kesma harflardan so'z va gaplar tuzib uni o'qiy olish malakalariga ham ega bo'lishlari lozim. Erilgan va tuzilgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga o'rgatish ishining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Katta guruhlarda nutq bolalar uchun dastlabki o'quvmanbayi hisoblanadi. Tarbiyachi va ota-ona bolalarni og'zaki nutqqa haqiqiy til fani sifatida munosabatda bo'lishga hamda bolalarga so'zlarni tovush jihatdan tahlil analiz qilishga o'rgatadi. Maslan, Ikki so'zdan iborat gap tuzish "Qo'g'irchoq chiroyli", "Qo'g'irchoq o'tiribdi", "Qizcha o'ynayapti", ularni so'zlarga ajratib, tartib bilan aytib chiqish (birinchi so'z - qizcha, ikkinchi so'z - o'ynayapti kabi). Uch-to'rt so'zdan iborat, ko'makchisiz va bog'lovchisiz gap tuzish. Masalan, "Qizcha gul teryapti", "Qizcha koptok o'ynayapti", "Qizcha koptokni uloqtirib o'ynayapti" va boshqalar. So'zlar tartibini ko'rsatib, aytib berish 1-so'z nima, ayt, 2- so'z nima, ayt, 3-so'z nima, ayt, 4-so'z nima, ayt. So'zlarning hammasini qo'shib ayt.

Gap va so'z haqidagi tushunchalarni (grammatik qoidasiz) amaliy mashqlar davomida mustahkamlab borishda so'zlarni bo'g'inlarga ajratish masalan: o-na, o-ta, ech-ki, e-lak, che-lak, ol-ma, ol-xo'-ri, va hokazo hamda bo'g'inlardan so'zlar tuzish ona, ota, elak, chelak, olma, olxo'ri . Uch va to'rt bo'g'indan iborat so'zlarni ochiq bo'g'inli so'zlarga ajratish (ma-shi-na, cccche-lak-cha, bay-roq-cha va boshqalar.

Bolalarni unli va undosh harf va tovushlar bilan tanishtirish.

Bolalarni yozuvga o'rgatish. Buning uchun bolalarnikatak daftari bilan tanishtirish va bu daftarga kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, doira uchburchak hamda oval shakllarini chizib, shtrix qilishga o'rgatish lozim. Shundan so'ng birinchi sinf yozuv daftari bilan tanishtirish, katak va yozuv daftarning varag'i, sahifasi, qatori, chizig'i haqida tushuncha berish va bolalar qo'lini yozuvga o'rgatish. Shunday qilib dastur vazifalarini amalga oshirish tarqatma va namoyish etiladigan ko'rsatiladigan materiallar, ta'limiy (didaktik) o'yin va mashqlar asosida amalga oshiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 uil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 uil 20 apreldagi PQ -2909-son "Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. M.Q.Jabborova Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32.)

4. M.Q.Jabborova The impotance of communicative speech in improving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientific journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.768257>.

5. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son.

6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr 2022.

7. Djamilova N.N Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. O'quv Qo'llanma.

8. Djurayeva B. R., Umarova X. A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G. M. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi" / monografiya // Toshkent, Real print. – 2017.

9. Жабборова М.Қ "Мақтабгача таълимда инноватсион ёндашув" "Самарқанд вилоятини инноватсион ривожлантириш:муаммо ва ечимлар". -79-81, 2020-йил.

10. Jabborova Marifat "The role of activity in the process of education and upbringing of preschool children" Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 1, January 2023 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal.

11. Mirzajonova, E.T. (2023). INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O 'RGANISH. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 185-192.

12. Topvoldieva, M. E. (2022). To the Question of the Effectiveness of Socio-Cultural Adaptation of Children With Special Needs. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 3, 89-94.

13. Topvoldiyeva, M.E., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 217-225.

14. Mirzajonova, E. T., & Parpiyeva, O. R. (2022). Modern special preschool education: problems and solutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 100-106.

15. Мирзажонова, Э., & Машарипов, Д. (2023). СПЕЦИАЛЬНОЕ ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 137-144.

16. Мирзажонова, Э. (2023). EARLY DIAGNOSTICS AND PERSONALITY COGNITIVE DEVELOPMENT CORRELATION AS THE FACTORS OF THE EFFICIENCY OF TEACHING. Scientific Journal of the Fergana State University, (2), 24.

17. Мирзажонова, Э.Т. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И УСЛУГ ДЛЯ СЕМЕЙ С ДЕТЬМИ, ИМЕЮЩИХ ОСОБЕННОСТИ В РАЗВИТИИ, НА БАЗЕ МАХАЛЛИ. Академические исследования в современной науке, 2(20), 108-116.

18. Mirzajonova, E. T. (2022). To study the practical problems of attention and memory processes in children with speech defects. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 130-135.

19. Мирзажонова, Э.Т. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. In VIII Махмутовские чтения. Интеграция региональной системы профессионального образования в европейское пространство (pp. 301-306).

20. Мирзажонова, Э. Т. (2020). Системность социокультурной адаптации детей с особыми потребностями как условие эффективности. In Актуальные вопросы современной психологии, конфликтологии и управления: взгляд молодых исследователей (pp. 5-15).

21. Мирзажонова, Э.Т. (2020). ДИАГНОСТИКА И РАЗВИТИЕ НЕЙРОКОГНИТИВНЫХ ФУНКЦИЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК УСЛОВИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ

ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 307-310).

22. Мирзажонова, Э. (2018). К ВОПРОСУ ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 23-23.

## MNEMOTEXNIKA YORDAMIDA 1-SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

**Usmonova Odinaxon Sobirovna**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limning 1-sinf o'quvchilari uchun har xil janrdagi asarlarni o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanishning samaradorligi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mnemotexnika, grammatika, she'riy asar, nutq texnikasi, vizual, assotsiatsiya, ta'lim berish, izchillik, texnologiya, muloqot, modellashtirish.*

**Аннотация:** *В данной статье высказаны мнения и комментарии по поводу эффективности использования мнемотехники при обучении произведениям различных жанров для учащихся 1 класса начальной школы.*

**Ключевые слова:** *мнемотехника, грамматика, поэтическое произведение, техника речи, наглядность, ассоциативность, обучение, системность, технология, общение, моделирование.*

**Abstract:** *In this article, opinions and comments on the effectiveness of using mnemonics in teaching works of various genres for students of the 1st grade of primary education are expressed.*

**Key words:** *mnemonic, grammar, poetic work, speech technique, visual, associative, teaching, consistency, technology, communication, modeling.*

1-sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar ko'proq kuzatiladi: gapdagi so'zlarni muvofiqlashtira olmaslik, grammatik jihatdan to'g'ri gapira olmaslik, ovoz talaffuzining buzilishi va diktsiyaning yomonligi. 1-sinf o'quvchilari yodlash texnikasi va usullarini bilishmaydi. Ular istaksiz ravishda she'r o'rganishadi va matnlarni takrorlaydilar. She'rlarni yodlash ularga qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, 1-sinf o'qituvchilari oldida nafaqat o'quvchilarni o'z fikrlarini izchil, grammatik ifodalashga o'rgatish, balki, birinchi navbatda, nutq faoliyatiga qiziqishini uyg'otish, juda muhimdir. Shu maqsadda ta'lim berishda e'tirof etilganlar bilan bir qatorda samaradorligi aniq bo'lgan ijodiy innovatsion usullar va texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, "Bolaga noma'lum beshta so'zni o'rgating - u uzoq vaqt va behuda azob chekadi, lekin yigirmata so'zni rasmlar bilan bog'lang va u ularni tezda o'rganadi". Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli bo'ladigan va shu bilan birga ularning nutqini samarali rivojlantiradigan hamda aqliy rivojlanishiga hissa qo'shadigan bunday texnologiyani tavsiya etmoqchimiz. Bunday texnologiya, bizning fikrimizcha, esda saqlashni osonlashtiradigan, qo'shimcha assotsiatsiyalar hosil qilish orqali xotira hajmini oshiradigan va ularning nutqini rivojlantirish muammolarini kchik yoshli o'quvchilar uchun qiziqarli tarzda hal qilishga imkon beradigan mnemotexnika texnologiyasidir.

T.B.Polyanskaya. L.V.Omelchenko mnemonikani yodlashni osonlashtiradigan va qo'shimcha assotsiatsiyalar hosil qilish, o'yin shaklida o'quv jarayonini tashkil qilish orqali xotira hajmini oshiradigan turli xil texnikalar tizimi sifatida belgilaydi. Mnemonikani o'qitishning maqsadi nutqning har tomonlama rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xotira, tafakkur, tasavvur, diqqatni rivojlantirishdir. Mnemonikani o'zlashtirish uchun o'qituvchilarga maktabda seminarlar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi, uslubiy va didaktik materiallar tayyorlanishi lozim. Mnemonikadan foydalanish hozirgi vaqtda dolzarb bo'lib, ushbu pedagogik texnologiya nutqni rivojlantirishga juda katta yordam beradi. Mnemonik belgilar nutq materialiga imkon qadar yaqin bo'ladi. Masalan, archa yovvoyi hayvonlarni, uy esa uy hayvonlarini bildiradi. Mnemonika texnologiyasi nutqni rivojlantirish muammolarini hal qilishda yordam beradi. Ya'ni dialog va monologlarda nutqning ko'nikmalarini shakllantirish ( rasmlar, suhbatlar, hikoyalar yozish, badiiy adabiyotni qayta hikoya qilish va boshqalar) uchun muhimdir.

Mnemetexnika - muloqot va ta'lim jarayonida nutqni mustaqil ravishda rivojlantirishga qodir. Texnologiyadan foydalanish samaradorligi ma'lum shartlarga bog'liq. Masalan, vizual modellashtirishning turli usullaridan foydalanish. Monologik nutqning eng qiyin turi tasviriy hikoyani yig'ish va ijodkorlik elementlari bilan qayta hikoya qilishdir. Bunda o'quvchi mavzuning belgilarini ajratib ko'rsatishga qodir bo'lishi kerak. Ta'riflovchi hikoyani tuzish bosqichida ular so'zlarni bildiruvchi belgilarni mnemonik jadvallarga kiritishadi. Masalan, savol belgisi yoki qaysidir narsaning tasviri ko'rinishidagi belgini ko'rganlarida, o'quvchilardan obyekt yoki obyektning nomlash so'raladi. Keyin bolalar rangni belgilashadi. Bundan tashqari, mnemojadvallardan foydalanish yordamida quyidagilarga erishiladi: atrofdagi dunyo haqidagi bilim kengaydi; lug'at boyligi oshadi; uyatchanlikni yengishadi; o'zlarini erkin tutishni o'rganadilar. Yuqorida aytilganlarning barchasi kichik yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muayyan turdagi nutqni rivojlantiruvchi faoliyatdir.

Xulosa qilib aytganda, mnemetexnikadan foydalanish nafaqat 1-sinf o'quvchilari uchun, balki, 2-4-sinf o'quvchilari uchun beriladigan turli xil asarlarni o'rganish jarayonida ham qo'llash juda o'rindidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. T.V.Bolsheva: Ertakdan o'rganish. Mnemetexnika yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirish. nashriyot uyi: Detstvo-Press, 2005 yil Seriya: "Bolalik" dasturi kutubxonasi
2. T.Polyanskaya: Usuldan foydalanish mnemonika bolalarga ertak aytishni o'rgatishda maktabgacha yosh. nashriyot uyi: Detstvo-Press, 2010 yil
3. V.A.Kozarenko darslik Mnemonika Moskva 2007 yil.
4. Mnemonikon sayti ( <http://www.mnemetexnika.narod.ru>)



5. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 11-16.
6. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 446-450.
7. Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. *Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami*, 1(06), 46-49.
8. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemo Technique in the Textbook of Primary School Native Language and Reading Literacy. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 421-426.
9. Usmanova, O. S. (2022). A TEXTBOOK ON NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY, CREATED ON THE BASIS OF THE NATIONAL CURRICULUM. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 48-54.
10. Usmanova Odinakhon Sobirovna. (2022). NATIONAL CURRICULUM AND NEW GENERATION MOTHER TONGUE AND READING TEXTBOOK. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 176–183. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NMBXR>
11. Усмонова, О. (2022). РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 148-158.
12. Sobirovna, U. O. 1-sinf o'qish kitobidagi she'rlarni o'quvchilarga o'rgatish uslubiyoti. *Vashington. Innovation in the modern education system*, 1, 206-209.
13. Usmanova Odinakhon Sobirovna. (2023). THE USE OF MNEMONICS IN TEACHING PRIMARY SCHOOL CHILDREN THEIR NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY. *Academia Science Repository*, 4(05), 35–45.
14. Usmonova, O. (2023). 1-SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI O'RGATISH VA TA'LIM TIZIMDA SAMARADORLIKKA ERISHISH. *Академические исследования в современной науке*, 2(11), 10-12.

## NOBIOLOGIK IXTISOSLIK TALABALARIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH

**M.A.Maxammadiyeva**

*Mustaqil tadqiqotchi*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

**Annotatsiya:** *Ekologik bilimlar nafaqat biologik yo`nalish talabalari uchun, balki barcha sohalarda tahsil olayotgan talabalarga birdek zarur va muhimdir. Ushbu maqolada nobiologik ixtisoslik talabalarida ekologik bilimlarni shakllantirishning bir qator metodologik asoslari, yo`nalishlari va samaradorligi muhokama etiladi.*

**Kalit soʻzlar:** *Ekologik bilim, o`qitish, oliy ta`lim, nobiologik ixtisoslik, metod.*

### KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz oliy ta'limida qo'llanilayotgan ekologik bilim berish texnologiyalari-uzluksiz yaxlit hodisa bo'lib, u jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar va tahsil oluvchi zaruriyatidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va shaxsning ichki iqtidori va salohiyatiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

"Texnologiya"- ("texne"- san'at, mahorat; "logos"-ta'limot)- ta'lim jarayonini mahoratona tashkil qilish san'ati sifatida ham tushuniladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Forobiy fikricha, fan va umuman barcha bilimlar sub'ektiv xohish va istakdan emas, balki ularga nisbatan tobora oshib boradigan inson ehtiyojlari natijasida kelib chiqadilar. Forobiyning fanlar tasnifi Sharqda ham, Yevropada ham, kelgusidagi fanlar tasnifiga kuchli ta'sir o'tkazib, ular taraqqiyotida katta o'rin tutdi [3].

V.P. Bepalko pedagogik texnologiya – o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafolatlay oluvchi hamda talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayonning loyihasi,-deb ta'riflaydi[1].

YUNESKO ta'rifi bo'yicha, ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish orqali tabiatni asrash, havo, suv va tuproqning toza bo'lishiga erishish orqali oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishiga erishish qulay hisoblanadi. Bu o'rinda aytish mumkinki, o'qitish tizimlari va shakllarini tanlash orqali o'qitish usullarini ham tanlash kerak. Chunki, o'qitish maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktabda, oliy ta'limda amalga oshirilishini bilamiz. Biroq, atrof- muhit muhofazasini o'qitishda atrof-muhitga o'zining ta'sirini ko'rsatuvchi kishilar asosan halq ommasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qitishning turini tanlashda aynan ana shu xalq ommasini ham o'qitish usulini topa bilish lozim.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ekologik bilim berishni amalga oshirishda texnologik yondashuv pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarga ajratib, amalga tatbiq etishda qo'l keladi: "avtoritar", "erkin tarbiya", "antropotsentrik va pedotsentrik", "didaktotsentrik", "sotsiotsentrik", "shaxsga yo'nalgan", "faoliyatga yo'nalgan", "o'rta yo'nalgan". Pedagogik amaliyotda mazkur texnologiyalarning qo'llanilishi ekologik bilim berishning turli xil tizimlarida foydalaniladigan konseptual modellariga, ularning maqsadli yo'nalganligiga, mazmuniga va tamoyillariga bog'liq [1].

Ekologik bilim berish texnologiyalarining xarakterli jihatlari ta'lim sub'ektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi. Hamkorlikka oid qat'iy talablarning ishlab chiqilganligi uni o'quv jarayoni bilan birgalikda amalga oshishiga asos bo'ladi. Shu jumladan, ekologik bilim berish texnologiyalari tahsil beruvchidan muayyan pedagogik-psixologik mahorat va yuqori darajadagi fidoiylikni talab qiladi.

Ekologik bilim berish texnologiyalari talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchi hamda talabalar orasidagi demokratik munosabatlarni ta'minlash imkonini beradi:

1. Talaba va o'qituvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish;
2. Darsda hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish;
3. Talabalarda ekologik tafakkur va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabalar orasida o'zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish kabilarda namoyon bo'ladi

Oliy ta'limda ekologik bilim berish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq qilish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan boshqaruv faoliyati yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan. Bugungi kun o'qituvchisi ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash va o'zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo'lishi shart.

Oliy ta'limning talabalari uchun atrof-muhitni eng ko'p ifloslovchi omillar – kimyo va energetika (issiqlik elektr stansiyalari) sanoati, transport vositalari hamda tabiiy holdagi vulqonlar otilishi kabilarni tushuntirish mumkin. Bunda respublikamizning kimyo sanoati asosan azotli, fosforli o'g'itlar olinishi bilan, qolaversa, fosforitdan ekstraksiya fosfat kislotalar olish, ularni konsentrlash jarayonlarida ftor azot oksidi, ftorli gazlar chiqishi [3], energetika sohasida ko'plab issiqlik elektr stansiyalarida kul va oltingugurt (IV) oksidi, vulqonlar otilishidan turli xil zararli, zaharli gaz va changlar atmosfera havosini ifloslashini aytib o'tish mumkin.

Eramizdan avvalgi VI asrda yashagan Xitoy faylasufi Konfutsiyning - "Aytsang unutam, ko'rsatsang eslayman, o'zim bajarib ko'rsam mohiyatiga yetaman" – degan falsafiy fikrlari asosida talabalarga kimyo fanini o'qiganligi uchun kimyoviy reaksiyalarni

ko'rsatish orqali tushuntirib, kimyo sanoatiga doir videofilmlar ko'rsatilishi bilan atrof-muhitni ifloslanishi to'g'risida tushuncha hosil qilinishi mumkin.

Hozirgi Yerning global isishida Ozon qatlami yemirilishini sabab qilib ko'rsatilishini ham bemalol Ozon uch atomli kislorod molekulasidan tashkil topganligi, uning ftor, xlor kabi oksidlovchilar ta'sirida yemirilishini izohli darajada tushuntirish mumkin [4].

O'qitish jarayonida hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiya qo'llanishi bilan talaba ongiga ekologik bilimni singdirish samara beradi. Agar yoshligidan, ya'ni, maktabgacha tarbiya muassasidan boshlab bilim berilsa, hattoki o'qitish usullari ham bolaga ko'nikma berishi osonlashadi, buning ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu bola talaba bo'lgan davrida ham bilimlarni oson egallashiga erishiladi. Agar kompyuter texnologiyasi orqali animatsion programma asosida o'qitish amalga oshiriladigan bo'lsa, qisqa metrajli holatdagi, ya'ni taxminan 5-10 minutli videofilm yoki animatsion materiallardan foydalanish qulay bo'ladi. Bunda talabalar bilimini sinash imkoniyati ham yaratiladi.

Nazariy o'tilgan har bir mavzuga doir amaliy mashg'ulotlar bevosita o'sha mavzu ma'ruzasidan keyin o'tilishi bilan talabada bilim rivojlanishiga erishilishi mumkin.

#### **XULOSA VA MUNOZARA**

OTMlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, talabalarni ekologik tarbiyalashda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar, assisment topshiriqlarini tizimli qo'llash orqali ularning o'quv-biluv motivatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Bu esa talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishni shaxsning ekologik ongini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga oshadigan ichki o'zgarishlar shaxs ongi strukturasi faoliyatini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Klarin M.V. Pedagogik texnologiyalar.-M.: Bilim, 2017.-276b.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2016. – 247 b.
3. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy Toshkent "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi"-1993.
4. Jan-Jak Russo. Tan olish "Xorijiy klassiklar". / Perda. Rozanova M.N. va Gorbova D.A. - M.: "EXMO", 2012 yil.

## ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ

**Йулдашева Гулбахор Ибрагимовна**

*ФерГУ, ст. преп. кафедры информационной технологии*

**Хусанбаева Хуршида Хамидиллаевна**

*ФерГУ, студентка направления ИГИИ*

**Аннотация:** В статье рассмотрено использование информационных технологий в образовании, как они открывают новые возможности для обучающихся и преподавателей, улучшая качество образования и делая его более доступным.

**Ключевые слова:** информационные технологии, интернет, электронные библиотеки, видеоматериалы.

В современном мире информационные технологии проникают во все сферы жизни, и образование не является исключением. Благодаря непрерывному развитию технологий и доступности информации, информационные технологии играют существенную роль в преобразовании образовательной системы. Они открывают новые возможности для обучающихся и преподавателей, улучшая качество образования и делая его более доступным.

Одним из главных преимуществ информационных технологий в образовании является расширение доступа к знаниям. Раньше учебный материал был ограничен учебниками, а доступ к экспертам и специализированной литературе был ограничен. Сегодня же учащиеся могут использовать интернет, электронные библиотеки, видеоматериалы и множество других ресурсов для получения информации и изучения различных предметов. Это позволяет им расширить свои знания и развить навыки самообучения.

Информационные технологии также способствуют улучшению качества образования. Современные образовательные программы могут быть интерактивными и адаптивными, а использование мультимедийных материалов, виртуальных экспериментов и симуляций помогает студентам лучше понимать и запоминать информацию. Кроме того, с помощью технологий можно проводить онлайн-тестирование и отслеживать прогресс каждого ученика, что позволяет преподавателям индивидуализировать обучение и предоставлять дополнительную поддержку тем, кто в этом нуждается.

Одной из основных тенденций в образовании с использованием информационных технологий является дистанционное обучение. Оно позволяет обучаться независимо от места проживания и географических ограничений. Студенты могут принимать участие в онлайн-курсах, вебинарах и взаимодействовать с преподавателями и другими учащимися через платформы электронного обучения.

Дистанционное образование также облегчает обучение взрослых, работающих людей и тех, кто имеет ограниченные возможности для посещения традиционных учебных заведений.

Однако, помимо всех преимуществ, информационные технологии в образовании также сталкиваются с некоторыми вызовами. Необходимость подготовки учителей к использованию новых технологий и интеграции их в учебный процесс является одним из главных. Некоторые преподаватели могут испытывать сопротивление к изменениям или не обладать достаточными навыками для эффективного использования технологий. Также в некоторых регионах мира доступ к достойным информационным технологиям и широкополосному интернету остается ограниченным, что создает неравенство в образовании.

Для решения этих проблем необходимо уделять большее внимание подготовке учителей. Образовательные учреждения должны предоставлять продолжительные курсы и тренинги, чтобы помочь преподавателям освоить новые технологии и интегрировать их в свою практику. Также важно разработать более доступные и экономически эффективные решения для учебных заведений с ограниченными ресурсами.

Правительства и образовательные организации должны сотрудничать для обеспечения доступа к информационным технологиям и широкополосному интернету во всех регионах. Инфраструктура должна быть развита, чтобы обеспечить стабильное соединение и доступ к цифровым ресурсам для всех учащихся и преподавателей.

Информационные технологии в образовании имеют огромный потенциал для преобразования учебного процесса и обогащения образовательного опыта. Они позволяют учащимся получать знания и навыки, необходимые для успешного функционирования в современном информационном обществе. Однако, для полной реализации этого потенциала необходимо продолжать инвестировать в развитие информационных технологий в образовании, обеспечивать доступность и эффективное использование этих технологий, а также обучать учителей, чтобы они могли максимально использовать их возможности.

Таким образом, информационные технологии в образовании играют важную роль в современном мире. Они расширяют доступ к знаниям, улучшают качество образования и способствуют развитию новых форм обучения. Однако, для полной реализации их потенциала необходима совместная работа преподавателей, учащихся, правительств и образовательных организаций. Только при условии взаимодействия и поддержки информационные технологии могут стать сильным инструментом для улучшения образования и подготовки нового поколения к вызовам будущего.

В Узбекистане информационные технологии играют все более значительную роль в образовании. Множество школ и университетов внедряют современные

технологии в учебный процесс, чтобы улучшить качество образования и подготовить студентов к требованиям современного информационного общества.

Одной из важных инициатив в области информационных технологий в образовании в Узбекистане является развитие электронных образовательных ресурсов. В рамках этой инициативы создаются электронные библиотеки, онлайн-курсы и другие цифровые материалы, которые становятся доступными для широкой аудитории студентов и преподавателей. Это позволяет учащимся получать актуальную информацию и использовать разнообразные образовательные ресурсы для углубленного изучения предметов.

Еще одной важной сферой применения информационных технологий в образовании в Узбекистане является дистанционное обучение. Онлайн-платформы и веб-конференции позволяют студентам из разных регионов страны получать высшее образование, не покидая свой родной город. Это особенно актуально для студентов, проживающих в удаленных или малонаселенных районах, где доступ к качественному образованию может быть ограничен. Дистанционное обучение также предоставляет возможность для профессионального развития и повышения квалификации взрослых.

Российские университеты активно развивают свои электронные платформы и системы дистанционного обучения. Многие из них предлагают онлайн-курсы и даже полноценные онлайн-программы, которые можно пройти удаленно. Это позволяет студентам выбирать образовательные программы, которые наиболее соответствуют их интересам и целям, а также гибко планировать свое обучение. Еще одной важной областью применения информационных технологий в образовании в Узбекистане является использование виртуальной и дополненной реальности. Виртуальные экскурсии, тренажеры и симуляторы позволяют студентам погружаться в уникальные образовательные среды и получать практические навыки в безопасной и контролируемой обстановке. Это особенно важно для обучения в медицинских и технических областях, где практический опыт играет важную роль.

В заключение можно сказать, что информационные технологии становятся все более важным компонентом образования в Узбекистане. Они позволяют расширить доступ к образованию, улучшить качество образовательного процесса и предоставить студентам новые возможности для саморазвития и профессионального роста.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ;**

1. Малинина Л. А. Основы информационных технологий: учебник для Вузов. М. : Издательский дом «Феникс», 2012.
2. Йулдашева, Г., & Йўлдошева, М. (2022). Использование информационных технологий в организациях. *Scientific progress*, 3(3), 477-480.

3. Yuldasheva, G. (2022). D. Begmatova Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International Academic Research Journal, 57-61.
4. Yuldasheva, G. (2023). Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o'рни. Golden brain, 1(30), 144-147.
5. Ibragimovna, Y. G. (2023). The use of interactive whiteboards in the educational process and its important aspects. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(8), 209-212.
6. G.I.Yuldasheva. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik.1-qism. Farg'ona 2023.
7. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M. (2023). Axborotlashuv va yoshlar tarbiyasi. Scholar, 1(32), 205–209.
8. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining o'рни. Международный научный журнал «Научный импульс». № 10(100), 118-121.



## YURTIMIZ TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI

**Gulbahor Yuldasheva**

*FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi*

**To'xtamatova Zilola**

*FarDU, TSMG yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi yangiliklar hamda ushbu jarayonda axborot texnologiyalarning o'rni haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, texnologiya, zamonaviy texnologiya, pedagog, o'quvchi, bilim, ko'nikma, dars jarayoni.*

### KIRISH

Hozirgi kunda ta'limni rivojlantirish unda sifat darajasini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi keng tarqalgan metodik qo'llanmalardan biriga aylandi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni talimda kiritilishi ta'lim jarayonini osonlashtirdi desak adashmaymiz. Mustaqilligimizdan so'ng "Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta'lim sifatiga e'tibor yanada kuchaydi. Unda o'qituvchi bilim malakalarini oshirish o'quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta'limda innovatsion qurilmalar ya'ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida foydalanish hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng ko'llamda ishlatilish imkoniyatlarini berdi. So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash savol miqiyosida ko'tarildi.

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet laptoplar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo'tkazgichlar va optik tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog'liq. Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikatsiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va

kommunikasiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Ta'lim tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak bo'ladi. Internet va "Butun jahon tarmog'i" barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

XXI asr - axborot texnologiyalari asri. Bugungi kunda boshqa sohalar qatorida ta'lim sohasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta'lim - tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda va har tomonlama intellektual salohiyatni oshirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda hayotni axborot vositalarisiz, jumladan, internetsiz ta'savvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo'lgan ko'pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Dars samaradorligini oshirish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va talabalar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minlash hamda uni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo'lish va boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi. Bizning fikrimizcha ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni

boshqarish samaradorligi hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifati pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta'limning an'anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq ravishda uzviy qo'llashga bog'liq. Ayrim hollarda samarali bo'lgan an'anaviy usullardan voz kechish holatlari sodir

bo'lmoqda. Bu innovatsiyalarni tajribada sinalgan va ijobiy natija berib kelayotgan o'qitishga qarshi qo'yishdek sezilmoqda. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalar innovatsiyalarga uyg'unlashtirilsa ma'qul bo'lar edi.

#### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki axborotlilik prinsipining dolzarbligi bir nechta omillar bilan tushuntiriladi. Axborotni qidirish, yig'ish, saqlash, qayta ishlash, o'zgartirish, taqsimlash va foydalanish prinsiplarini, uni qonunlarini o'rganadigan fan – informatika nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, ixtiyoriy pedogogik texnologiyani axborot texnologiyalariga o'xshatishimiz mumkin, chunki, unda manbaa (pedagog), va axborot qa'bul qiluvchi ( o'rganuvchi) bor. Ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'qituvchilarning yaqin vaqtlargacha faqatgina axborotni o'quvchiga etkazib berish qobiliyati bilan o'lchangan baholash tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugunda o'qituvchining ma'lumotlilik, uning faqatgina kommunikatsion qobiliyatlari bilangina emas, balki kompyuterni axborot manbaasi sifatida ishlata olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bu nuqtai nazardan o'qituvchining ta'lim elektron resurslari (TER) sifati va ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligini baholashga qaratilgan analitik, proyektiv va prognostik qobilliyatlarining shakllanganligi juda muhimdir. TERda taqdim etilgan axborot ilmiyligi va taqdim etishga qulayligi, o'quvchining o'rganishga qulayligi va hokazalar umumiy didaktik prinsiplardan kelib chiqqan holda baholanishi kerak. Ta'limda zamonaviy axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash qiziquvchanlik, odob-ahloq, ijodkorlik, muloqot va estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bizning fikrimizcha ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligi hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifati pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta'limning an'anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq ravishda uzviy qo'llashga bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ш., Амиров Д. Ўзбекистонда ахборот коммуникация технологияларининг ривожланиши шархи за 2006-2008: сборник научных трудов Координаторы: - Т. : ИСТП, 2008й.
2. Малинина Л. А. Основы информационных технологий: учебник для Вузов. М. : Издательский дом «Феникс», 2012.

3. G.I.Yuldasheva (2023). Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o'рни. Golden brain Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1 (Issue 30), 144-147.
4. G.I.Yuldasheva (2023). The use of interactive whiteboards in the educational process and its important aspects. Best Journal of Innovation in Science, Volume 8 (Issue 2), 209-212.
5. G.I.Yuldasheva., Z.Oxunjonova (2023). Ta'lim va tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalarining o'рни. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2 (Issue 3), 984-986.
6. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining o'рни. Международный научный журнал «Научный импульс». № 10(100), 118-121.
7. Yuldasheva, G. (2022). D. Begmatova Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International Academic Research Journal, 57-61.
8. Мадаминов, Н. М. (2022). Таълимда информацион технологияларни ривожлантириш ва талабаларда касбий кўникмаларни шакллантириш. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 200-203.
9. Aldashev, I. (2021). The creation of simulation and game models in pedagogical process. Экономика и социум, (2-1 (81)), 45-48.

## ПОРОКИ СЕРДЦА

**Ширинова Зульфия Наврузбай кызы**

*Кыргызская государственная медицинская академия имени Иса Коноевич*

*Ахунбаева*

*Факультет: Лечебное дело*

*3-курс 39-группа*

**Анотация:** *определение пороков сердца, классификация пороков сердца, пороки митрального клапана.*

**Ключевые слова:** *порока сердца, поражения клапана, синдром, ЭКГ, Эхо КГ*

Врожденные или приобретенные дефекты структур сердца (клапанного аппарата, перегородок сердца, магистральных сосудов), приводящие к нарушениям внутрисердечной и системной гемодинамики .

По локализации клапанного поражения:

- Пороки митрального клапана
- Пороки аортального клапана
- Пороки трехстворчатого клапана
- Пороки клапана легочной артерии
- Сложные пороки (наличие пороков сразу нескольких клапанов)

По характеру поражения клапана:

- Стеноз (сужение отверстия клапана)
- Недостаточность (неполное смыкание створок клапана)
- Комбинированные (= сочетанные) (сочетание на одном клапане стеноза и недостаточности)

Клинические проявления приобретенных пороков сердца:

- Синдром клапанного поражения
- Синдром первичного патологического процесса, приведшего к поражению клапанного аппарата (ревматизм, инфекционный эндокардит, атеросклероз и т.д.)
- Синдром сердечной недостаточности

Синдром клапанного поражения:

- Прямые признаки порока сердца
- обусловлены нарушением функции пораженного клапана и изменением кровотока через него
- Аускультация сердца (в т.ч., специальные приемы)
- изменение тонов, дополнительные тоны, шумы и/или их эквиваленты
- ФоноКГ(ФКГ), ЭхоКГ (визуализация клапана, выявление регургитации, оценка трансклапанного градиента), МРТ, СКТ, рентгеноконтрастная вентрикулография.


• Косвенные признаки порока сердца-вследствие компенсаторной гипертрофии и/или дилатации камер сердца и нарушений кровотока зависимых областей. Вследствие компенсаторной гипертрофии и/или дилатации камер сердца и нарушений кровотока в зависимых областях

- физикальные методы (изменение тонов сердца, выявление гипертрофии и дилатации отделов сердца при осмотре, пальпации и перкуссии),

- ЭКГ (гипертрофия отделов сердца, нарушения ритма),

- Рентгенография грудной клетки (увеличение отделов сердца, признаки легочной гипертензии, застоя в легких),

- ЭхоКГ (выявление гипертрофии отделов, оценка размера камер сердца) - СКТ, МРТ



### **Прямые признаки МС Аускультация. ФоноКГ.**

• S1 - громкий хлопающий, м.б. ослаблен при полной потере подвижности створок;

• OS-Щелчок открытия МК – высокочастотный тон (S2--OS = 0,05-0,12”);

• Ритм перепела;

• Пресистолический шум;

• Протодиастолический шум (низкочастотный, рокочущий, убывающий);

• Диастолическое дрожание (кошачье мурлыканье) на верхушке – эквивалент протодиастолического шума;

Патофизиология МС (1):

Обструкция току крови из ЛПр в ЛЖ в диастолу → перегрузка ЛПр давлением →  
Концентрическая гипертрофия ЛПр:

Субъективные симптомы (жалобы)- отсутствуют

Объективно : Аускультация: прямые признаки порока, перкуторные размеры  
ЛПр не изменены (3 м/р слева),

ЭКГ: Гипертрофия ЛПр - (р-mitrale)

Эхо КГ: прямые признаки порока + гипертрофия ЛПр

Патофизиология МС (2-1):

↑ степени МС →

↑ предсердно-желудочковый градиент (a-v grad) на МК

онцентрическая ГЛПр Миогенная дилатация ЛПр →

→ етроградное повышение легочного венозного и капиллярного давления (j-  
рецепторы) (венозная ЛГ)

→ ртериальная легочная гипертензия (ЛГ) (пассивная / активная)

Патофизиология МС (2-2):

Субъективные симптомы (зависят от a-v grad):

• Небольшой a-v grad -в покое симптомов нет. При физ. нагрузке - приступы  
одышки, кашля (ЛГ). Кровохарканье (ЛГ).

• При нарастании a-v grad (Рлпр  $\geq 25$ mm Hg) и ЛГ – одышка в покое, ночная  
пароксизмальная одышка, ортопное, отек легких.

Объективно: признаки дилатации ЛПр, легочной гипертензии.

- перкуторно: увеличение границ ОСТ слева в 3-м м/р (дилатация ЛПр), во 2 м/р  
справа (ЛА)

- Аускультация : акцент и раздвоение Р2 , признаки застоя в легких (ЛГ).

-Пульс: малое наполнение (фиксированный СВ), фибрилляция предсердий  
(дилатация ЛПр),

- ЭКГ: - р-mitrale, фибрилляция предсердий (дилатация ЛПр)

- Рентгенологические признаки ув-я ЛПр, легочной гипертензии, застоя в легких

- ЭхоКГ – дилатация полости ЛПр, градиент давления на МК, повышение  
давления в легочной артерии

Патофизиология МС (3)

Артериальная легочная гипертензия (активная) →

Перегрузка давлением ПЖ →

Концентрическая гипертрофия ПЖ →

при Рла  $> 60$  ↑ mm Hg — миогенная дилатация ПЖ →

Признаки ПЖ СН, относительная трехстворчатая недост-ть

Субъективные симптомы: Слабость, утомляемость при нагрузках  
(фиксированный СВ)


Объективно: признаки гипертрофии и дилатации ПЖ (сердечный толчок,  
эпигастральная пульсация, ув-е АСТ)

- Признаки ПЖ СН (системная венозная гипертензия, периферические отеки, гепатомегалия, асцит)
- Признаки трехстворчатой недостат-ти (пульсация шейных вен, шум 3-х створчатой недостаточности, уменьшение тяжести одышки)

ЭКГ: ув-е ППр (p-pulmonale) и ПЖ

Рентгенологические признаки увеличения правых отделов

ЭхоКГ: гипертрофия и дилатация полости ППр и ПЖ, трикуспидальная регургитация



### **Митральная недостаточность: аускультация (прямые признаки)**

S1 ослаблен;

S3 (увеличение кровотока через митральное отверстие в фазу быстрого наполнения ЛЖ) – при митральной недостаточности может не являться признаком декомпенсации СН;

Шум-(пан)систолический, сливающийся с S1, -лентовидный -дующий - высокочастотный -максимум на верхушке -радиация в левую аксиллярную область;

Патофизиология МН (1):

Ретроградный ток крови в ЛПр>перегрузка объемом ЛПр → ув. давления в ЛПр → эксцентрическая гипертрофия/ миогенная дилатация ЛПр>Объемная перегрузка ЛЖ ↓ Эксцентрическая ГЛЖ (зон Франка-Старлинга);

- Пациенты с умеренной МН остаются бессимптомными на протяжении многих лет

- Объективно: признаки эксцентрической гипертрофии ЛЖ, дилатации ЛПр

Патофизиология МН (2):

Объемная перегрузка ЛЖ →

Эксцентрическая ГЛЖ → ↑ → СВ

миогенная дилатация ЛЖ →

Пов-е КДД ЛЖ Пов-е КДД ЛПр →



Ретроградное пов-е давления в лег. венах и капиллярах (ЛГ венозная )

Симптомы ЛЖ СН:

Субъективные: одышка при нагрузке, пароксизмальная ночная одышка, ортопноэ, отек легких;

Объективно: акцент и раздвоение Р2 (ЛГ, укорочение фазы изгнания ЛЖ); легочный венозный застой/легочная гипертензия (симптомы ЛЖ СН);

ЭКГ: гипертрофия ЛПр и ЛЖ;

Рентгенография гр. клетки: ув-е ЛПр и ЛЖ, застой в легких;

Патофизиология МН (З):

ЛГ венозная → Легочная артериальная гипертензия →

Перегрузка давлением ПЖ →

Концентрическая гипертрофия/миогенная дилатация ПЖ → пов-е давл-я в ППр → эксцентр. гипертр/дилатация ППр → симптомы ПЖ СН

Субъективные симптомы: Слабость, утомляемость (СВ) ↓

Объективно: признаки гипертрофии и дилатации ПЖ (сердечный толчок, эпигастральная пульсация, ув-е АСТ)

Признаки ПЖ СН (системная венозная гипертензия, периферические отеки, гепатомегалия, асцит, гидроторакс)

ЭКГ, Рентгенография гр. клетки, ЭхоКГ: признаки ув-я правых отделов (гипертрофия и дилатация ППр и ПЖ)

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1.А.В. Тополянский., А.Л.Вёрткин., ПОРОКИ СЕРДЦА, М2019

2.Ф.И.Борис., А.В.Сай., Хирургия, М2005

## SHAXS NAZARIYALARI

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti talabalari*

**Munisa Ibaydayeva**  
**Guldana Ataniyazova**

**Annotasiya:** *Maqolada shaxs nazariyalari hamda ularning kelib chiqishi haqida soʻz boradi.*

**Kalit soʻzlar:** *shaxs*

Jahon psixologiyasi fanida shaxs toʻgʻrisida oʻnlab nazariyalar, qarashlar, yondashuvlar mavjud boʻlishiga qaramay, inson kamoloti yuzasidan hanuzgacha umumiy bir fikrga kelinganicha yoʻq. Shu bois insonshunoslikda shaxsga oid bir qator terminlar, tushunchalar, atamalar qoʻllanilishi anʼana tusiga kirgan. Shaxs, inson, odam, kishi, subʼyekt, individ, individuallik, komil inson, shuningdek, unga taalluqli tipiklik va tipologik xususiyatlar shular jumlasidandir. Psixologiya fanida munosabatlar nuqtai nazaridan “subʼyekt – obʼyekt – subʼyektlararo”, “subekt – subʼyekt – obʼyektlararo” singari yondashuvlar mavjud boʻlib, ularning barchasi tabiiy va ijtimoiy shartlanganlik manbalaridan kelib chiqqan holda tahlil hamda talqin qilishga asoslangandir. Shaxsga oid psixoanaliz, analitik psixologiya, individual psixologiya, neofreydizm, begonalashish nazariyasi, gumanistik psixologiya, epigenetik nazariya, frustratsiya nazariyasi, rollar nazariyasi, ekzistensial psixologiya, tushunuvchan psixologiya, fransuz sotsiologik maktabi sobiq sovet psixologlarining har xil nazariyalari mavjuddir. Lekin bu oʻrinda shaxsning tuzilishi, uning tabiiy va ijtimoiy shartlangan xususiyatlari munosabati, tipiklik va tipologik jabhalar, ijtimoiylik va tarixiylik, filogenetik va ontogenetik tomonlari boʻyicha konsepsiyalar mohiyatini tahlil qilish masalasi ilmiy izlanishlarimizning maqsadiga kirmaydi. Xuddi shu sababdan ularning mazmuni, tuzilishi toʻgʻrisida mulohaza yuritish boshqa sahifalarga moʻljallanganligi tufayli nomlarini taʼkidlab oʻtish bilan qanoat hosil qilamiz, xolos. Uzoq va yaqin chet el psixologlarining qarashlarida kamolot ontogenetik nuqtai nazardan muayyan, qatʼiy bosqichlarga ajratilgan holda juda kam tadqiq qilingan. Shuning uchun biz shaxsan oʻzimiz taklif qilayotgan sxema boʻyicha mulohaza yuritimiz va kamol topish bosqichlari hamda ularning oʻziga xos xususiyatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz. Ularni quyidagi davrlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: murtaklik (embrional), odam (individ), inson, shaxs, subʼyekt, komil inson. Shaxsning kamoloti murtaklik davrdan boshlanish toʻgʻrisidagi asosli fikrlar A. Vallon, D. Bromley tadqiqotlarida, ayrim psixologlar va psixofiziologlarning maqolalarida uchraydi, xolos. Shu narsani taʼkidlab oʻtish joizki, murtaklik davrining oʻziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkoniyati muayyan darajada mavjud ekanligi nafaqat psixologlar, balki tabiatshunoslar, biologlar, fiziologlar tomonidan tavsiflab berilganligi, tibbiyot mutaxassislarining esa bu borada oʻzlarining qarashlari, yondashuvlari shakllanganligi nazariy mulohaza yuritish uchun asos boʻlib xizmat qila

oladi. Murtaklik davrini kamolot bosqichiga kiritgan tadqiqotchilar A.Vallon va D.Bromley bo'lib hisoblanadi. D.Bromley mazkur davrni quyidagi bosqichlarga ajratib tahlil qilishni tavsiya qiladi: zigota – embrional – homila – tug'ilish oldi. A.Vallon esa ontogenezning tarkibiy qismi sifatida uni kamolot bosqichi qatoriga kiritadi. Mazkur psixologlar murtaklik davrini insonning umumiy kamoloti nuqtai nazaridan tahlil qilmaydilar, balki ular ontogenezning (tug'ilgandan to umrning oxrigacha davr) tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar, xolos. Ushbu davrning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarni psixologik jihatdan yoritib berishga intiladilar va bu yo'nalishda ma'lum bir yutuqqa erishishga muayyan bo'ladilar. Ularning ilmiy – amaliy mulohazalarini asosli dalil sifatida qabul qilgan holda bu boradagi o'z shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz. Buning uchun murtaklik davrining muayyan tarkiblardan iborat ekanligini izohlash va tavsiflashning o'zi kifoya. Jahon psixologlari va fiziologlarining fikriga qaraganda, mazkur kamolot davrining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir ma'noda qulay (sezitiv) palla sifatida muayyan funktsiya bajaradi. Murtaklikning zigota (urug'lanish) bosqichi eng mas'uliyatli davrlaridan biri bo'lib, u ham tabiiy (biologik), ham sub'yektiv (shaxsiy psixologik), ham ijtimoiy (sotsial) omillar ta'sirida vujudga keladi. Butun mas'uliyat onaning zimmasiga tushadi, binobarin, uning homilaga nisbatan munosabati, unga zarur shart – sharoitlar yaratishi, instinktiv xususiyatli himoya fiunksiyasining ishga tushishi, og'riq sezgilarining kuchayishi va ularga nisbatan chidam – bardosh, sabr sifatleri bilan qarama – qarshi tura olishlik zigota yashovchanligini ta'minlaydi. Onaning xotirjamligi, ayrim qiyinchiliklarni yengish hoxishining mavjudligi, tabiiy ehtiyojlarni qondirish darajasi, nozik ezgu niyatlar va shirin hissiy kechinmalar bilan band ekanligi zigotaning baquvvat o'sishga zamin hozirlaydi. Attraksiya (mahliyo qiluvchi) tuyg'ular olamiga onaning tortilganligi, stress (zo'riqish, tanglik) va affekt (g'azablanish) holatlariga berilmasligi, shijoat, hayajon, tashvishlanish hislaridan uzoqligi tabiiy go'zallik vujudga kelishiga imkon yaratadi. Organizmning sog'lomligi, tabiiy ehtiyojlar qondirilishi jismoniy o'sishning jadal borishi uchun puxta negiz yuzaga keltiradi, binobarin, komillikda dastlabki asos solinadi. Homilalik bosqichi bo'lg'usi shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy barkamollikning, asab tizimi, bosh miya katta yarim sharlari, hissiy bilish tana a'zolari paydo bo'lishining va o'sishning manbai vazifasini bajaradi. Ushbu bosqichda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- homilaning jismoniy o'sishini uzluksiz ravishda ta'minlash uchun oqsillar, vitaminlar va boshqa turdagi ozuqalarga nisbatan tabiiy ehtiyojini qondirib turish;

- unga salbiy ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilardan saqlanish, ijobiy his –tuyg'ular uyg'otuvchi hodisalar to'g'risida ko'proq o'ylash;

- qaltis jismoniy va somatik harakatlardan o'zini tiyib turish, zo'riqishning uzluksiz ravishda oldini olish;

- homilaga sensor ta'sir o'tkazishni odatiy psixologik holatga aylantirish; - kontakt va distant muomala vositalaridan foydalanish;

- shaxslararo munosabatda muloqot maromlariga rioya qilish;

- bioritmika va psixometriya qoidalaridan og'ishmay foydalanish;

- ijtimoiy hodisalarga nisbatan loqaydroq munosabatda bo'lish.

Tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zarur shart – sharoit yaratish, nafosat tuyg'ulari bilan hamkorlik, kun tartibi asosida faoliyat va xulq harakatlarini amalga oshirish ham tabiiy, ham ma'naviy go'zallikni shakllantiradi. Orzu, istak, tilak, xohish tuyg'ulari yordami bilan obrazlarni yaratish tashqi ta'sirning eng kuchli mexanizmi funksiyasini o'taydi. Hujayralar, neyronlar orqali kirib borayotgan axborotlar qanchalik nozik, nafis, go'zal bo'lsa, homilada go'zallikning ham tabiiy shakli, ham xarakterologik jabhasi o'z aksini topadi. Murtaklikning tug'ilish oldi bosqichi tashqi ta'sirga beriluvchanligi bilan boshqalaridan ajralib turadi, xuddi shu bois bunga alohida ahamiyat berish zarur. Homila o'zining tuzilishi, tana a'zolarining takomilligi, ularning maqsadga muvofiq harakati bilan chaqaloqqa juda o'xshab ketadi. Uning boladan farqli o'laroq tomoni ona organizmi orqali oziqlanish va nafas olishidir. Bu voqelik ilmiy tilda platsentar hodisa deb atalib, jamiiki narsa bir markazdan boshqarilishi yoki ta'minlanishini bildiradi. Homiladagi ideomotor (ixtiyorsiz) va motor (ichki yoki tashqi ta'sirga maqsadli javob reaksiyasi) harakatlari ortib borishi tug'ilishi tayyorgarligidan dalolat beradi. Ushbu xatti – harakatlar jajji odamning qarshilik ko'rsatishini, ziddiyatli vaziyat vujudga kelayotganligini anglatadi. Onaning u bilan muloqotga kirishuvi tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning real alomati sifatida namoyon bo'ladi. Sezgir tibbiyot asboblari yordami bilan uni tekshirib turish dastlabki diagnostik va korreksion ishlarning debochasi hisoblanadi. Insonda yuz beradigan subsensor, subseptiv yuksak idrok shakllari tug'ilish oldi bo'sag'asida yorqin namoyon bo'la boshlaydi. Harakatning sur'ati, mazmuni, davomiyligi sifatleri bo'yicha bo'lg'usi chaqaloqning temperament xususiyatlarini va uning asab tizimi tipini aniqlash imkoniyati mavjud. Odam (individ)lik davri tug'ilganidan to unda nutq paydo bo'lgunga qadar vaqt birligini qamrab oladi. Uning muhim tomonlari mana bunday holatlarda ko'zga yaqqol tashlanadi:

- embrional davridagi plansentar tizimi o'rnini oral (mustaqil hazm qilish) egallaydi, ya'ni mustaqil nafas olish, qon aylanish va boshqalar tabiiy ravishda chaqaloqda yuz bera boshlaydi;

- tabiiy holatlarga va muhitga moslashish (adaptatsiya) tevarak – atrofni bilish boshlanganligidan dalolat beradi;

- har xil turdagi harakatlarni amalga oshirish, jismlarga chang solish, ularga intilish narsalarni bilishga nisbatan harakatini bildiradi;

- ota – ona va qarindosh – urug'larini tanish, sezgi, idrok, xotira jarayonlari o'sishini anglatadi;

- jismlarga razm solish, uning tuzilishi va rangi bilan qiziqishi yaqqol tafakkurning ifodasidir;

- unda emotsiya va hissiyotning paydo bo'lishi, muomalaga kirishi ehtiyojini namoyon etadi;

- emaklash, tik turishga intilish uquvining paydo bo'layotganligi fazoviy tasavvurni aks ettiradi. Mazkur davrda shaxslararo munosabatga kirishish, mikro va makro muhit xususiyatlari hamda holatlariga bolaning shaxsiy reaksiyasi, ulardagi o'xshashlik va farqni

ajrata bilish unin o'sishini bildiradi. So'z orqali narsalar va hodisalarni ifodalash hamda tushuntirish jarayoni yuzaga kelguniga qadar muomala, xulq, harakat orqali tabiat va jamiyatni sodda tarzda bilish amalga oshadi. Xuddi shu sababdan kamolotning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida individuallik davri o'zini o'zi anglashga puxta negiz tayyorlaydi. Inson davri o'zini o'zi anglashdan boshlanib, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi bilan tugallanadi. Ushbu davr insoniy hislatlarni etnik guruh a'zosi sifatida mukammal egallashi bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Alohidalikka oid xususiyatlar quyidagilarga o'z aksini topadi va u ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Nutqning paydo bo'lishidan to 6-7 yoshgacha:

- bolada fazoviy muvozanatning vujudga kelganligi;

- o'zini o'zi anglashdan iborat "Men" davrining mavjudligi;

- nutqda ona tili boyligidan unumli foydalanish imkoniyatining tug'ilishi; - milliy urf – odatlarga, xulq – atvor qoidalariga rioya qila olishi; - muomala maromi, ijtimoiy qadriyatlarni egallashi; - o'yin hamda faoliyatning boshqa turlarini o'zlashtirish negizida milliy va umumbashariy fazilatlarning shakllanganligi;

- individual – tipologik xususiyatlarning aniq namoyon bo'lishi; - barcha jihatlari bilan maktab ta'limiga tayyorgarligi;

- guruhiy hamkorlik uquvidan xabardorligi. 2. O'smirlik davri xususiyatlarining aks etishi:

- jismoniy jihatdan mukammallikka intilishning mavjudligi;

- faoliyat, xulq va muomala jarayonlarida tipologik xususiyatlarga erishilganligi;

- aqliy, axloqiy, xarakterologik xususiyatlari shakllanganligi;

- turli shakldagi va tuzilishdagi (tengqurlari, katta yoshdagilar, rasmiy va norasmiy, real) guruhlarda o'zini – o'zi anglashning namoyon qilishi;

- ijtimoiy hayotda va faoliyatda o'zini – o'zi tasdiqlashga imkoni borligi;

- ijtimoiy turmushning har bir jabhasida faollik ko'rsatishi;

- o'quv fanlariga differensial munosabatning qaror topishi; muayyan e'tiqod, dunyoqarash, shaxsiy munosabatning mavjudligi;

- tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi, xulq – atvorga qat'iyatlik etishmasligi;

- fantaziya va o'ziga bino qo'yishning ustuvorligi va boshqalar.

Maktab

ta'limiga tayyorgarlik bosqichida to'plangan bilimlar ko'lami umrning qolgan yillarida kutilishi taxmin qilingan qismining yarmiga tengdir. Bundan keyingi davrda o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bilimlar shaklan emas, balki mazmunan, sifat jihatidan boyib, takomillashib boradi, xolos. O'smirlik davrida insonga berilgan tabiiy imkoniyatlar ro'yobga chiqadi, ijtimoiylashuv, jismoniy o'sish jadallashadi, natijada etuklikka puxta shart – sharoitlar yaratadi. Tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsiy pozitsiya – munosabat vujudga keladi. Buning natijasida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, xulq - atvor va faoliyatni amalga oshirish imkoniyati tug'iladi. Bu holat kamolot ko'rinishini namoyish etadi, insoniy fazilatlar, hislatlar, sifatlar va xususiyatlar tarkib

topganligini bildiradi. Inson kamolotining shaxs davri etuklikning muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayot alohida ahamiyat kasb etadi va o'zining ko'rsatkichi bilan muhim rol o'ynaydi. Shaxs davri bir necha taraqqiyot bosqichlarini aks ettirib, unda ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yoshlikni qamrab oladi. Uning birinchi bosqichi balog'at deb nomlanib, 15-16 yoshdagi o'g'il qizlarni o'zida jamlaydi. Bu bosqichda ushbu xususiyatlar ko'zga bevosita tashlanadi:

- jismoniy barkamollikning ifodalanishi;
- ruhiy jihatdan muayyan ko'rsatkichga erishganligi;
- ijtimoiy va ijtimoiy psixologik jihatdan muayyan yetuklikka erishuv; - xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikning shakllanishi; - e'tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi.

Shaxs tarkib topishining ikkinchi bosqichi ixtisos egallash deb atalib, 17-18 va 21-23 yoshdagi barkamol yigitlar va bokira qizlardan tashkil topadi, kasbiy faoliyatni egallashning o'ziga xosligi bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Ushbu holatlar o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi:

- bilimlar, ko'nikmalar va malakalar egallashdagi individuallik;
- faoliyatning individual uslubining paydo bo'lishi; - kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi; - ma'naviy ehtiyoj, barqaror qiziqish, qat'iyat yetakchiligi; - mutaxassislikka murojaatning shaxsiy pozitsiyaga bo'ysunganligi; - kollej va oliy maktab muhitining o'ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanish;

- amaliyotga va muhitga moslashishning sifat jihatdan tafovutlanishi.

Shaxs shakllanishining uchinchi bosqichi yoshlik davridan iborat bo'lib, ixtisosiy etuklikni o'zida aks ettiradi. Ko'pincha barkamollik alomatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- kasbiy, ixtisosiy individuallik, betakrorlik, o'ziga xoslik yuzaga kelishi;
- kasbiy, ixtisosiy mahorat darajasiga erishuv;
- o'z sohasida tashabbuskorlik xususiyatini namoyish etish;
- ijtimoiy baholash ekspertizasi – tekshirish mezonlariga batamom mos tushishlik.

Shaxsning ma'lumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy, ixtisosiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste'dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy – tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi. Inson kamolotining navbatdagi davri sub'yekt darajasiga o'sib o'tishi mumkin emas, lekin uning ayrim xususiyatlarini egallash imkoniyatiga egadir. Sub'yekt o'zining mana shu xususiyatlari bilan shaxsdan tafovutlanadi:

- xulq – atvorda, faoliyatda, muomalada mustaqillikning ustuvorligi; - ijtimoiy hayotning har bir jabhasida shaxsiy pozitsiyaga egalik; - ilg'or insonparvarlik g'oyalari ilgari surish va originalligi, nostandartligi, innovatsion ekanligi bilan ajralib turishlik;
- g'oyalarni qaror toptirishda ob'yektiv va sub'yektiv to'siqlarni yengish.

Sub'yektning eng muhim ko'rsatkichi – bu professionalizmga erishuv va ijtimoiy – siyosiy etuklikni namoyish qilishdir. Nomdor mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy – tarixiy fikrlovchilar, siyosatchilar, davlat rahbarlari sub'yekt bosqichida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shuning uchun ushbu vaziyatda ommaviylikka erishishga intilish jamiyatning taraqqiyotini tezlashtirish sari yetaklaydi, fidoiy, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi. Komil inson g'oyasi insoniyatning asriy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, tabiatni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Komil inson to'g'risida tasavvuf, so'fizim ilmiy maktablari muayyan ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lganlar, shuningdek, bu mavzuga oid qarashlar jahonning insonparvarlik g'oyalari bilan qurollangan allomalarning izlanishlarida alohida o'rin egallagan. Ularning nazariyalariga tanqidiy munosabatni bildirish mavridi bo'lmaganligi sababli faqat ta'kidlab o'tish bilan kifoyalanamiz. Aksincha, bu borada o'zimizning shaxsiy qarashlarimizni bayon qilamiz xolos. Bizningcha, hozirgi zamon nuqtai nazaridan mazkur muammoga yondashsak, komil insonlikni to'rt bosqichga ajratib talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Inson kamolotining bu bosqichiga kelib o'zining sohasi bo'yicha piri ixtisos darajasiga erishadi. Buning natijasida etuk inson hayot va faoliyatda ijtimoiy – tarixiy psixologik namumna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Bu bosqichdagi insonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- yuksak aql – zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik; - antipatsiya kundalik faoliyat mahsuliga aylanganlik, ya'ni amalga oshirish rejalashtirilgan faoliyat natijasining oldindan modelini yaratish;

- xulq, faoliyat, muomala jarayonlari o'z imkoniyatini oqilona baholash va o'zgaralar tomonidan xuddi shunday darajaga erishish;

- sohaga oid talant va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash.

2. Ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining navbatdagi yuksak bosqichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Sohalarining kengayishi tufayli bu darajaga erishish imkoniyati tobora cheklanib bormoqda, chunki fan va texnika jadal suratlar bilan o'sishi, axborotlar salmog'ining soniya sayin ortishi vaqt taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Fazoviy va vizual munosabatlar to'g'risidagi miqdor hamda sifat o'zgarishlari inson da'vosi bilan uning imkoniyati o'rtasidagi ziddiyatli holatlarni vujudga keltirmoqda. Ixtisoslararo bilimdonlik o'ziga xos ikki xususiyati bilan boshqa kamolot bosqichlaridan ajralib turadi:

- uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik;

- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish.

3. Komil insonning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb atalib, tabiatga va jamiyatga, biosfera va noosferaga nisbatan super onglilik ko'rsatkichiga erishish

bilan tavsiflanadi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his – tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat normalariga rioya qilishlik bilan uzviy uyg'unlikda hukm suradi. Axloqiy etuklik siyosiy, xuquqiy, iqtisodiy ong ko'rinishlariga oqilona yondashishni ta'minlaydi. Aqliy donishmandlik axloqiy, intellektual, estetik va praksik (mehnat natijasidan lazzatlanish) yuksak his – tuyg'ular manbasiga bevosita asoslansa, to'kislik, mukammallik namunasini aks ettiradi. Ma'naviy barkamollik yetuklikning tarkibiy qismlari bilan bir tekis qurollantiradi, xulq, faoliyat va muomala regulyatori funksiyasini o'taydi.

4. Umumbashariy daholik jamiyat va taraqqiyot taqozosi bilan vujudga keluvchi imkoniyat yoki zaruriyatning mahsulidir. Fan, texnika, siyosat, din, davlat qurilishi sohasida keskin o'zgarishni amalga oshiruvchi tarixiy shaxslar kamolotining oxirgi bosqichiga erishishi mumkin. Bunday darajaga erishganlar o'zlarining valeligi, bashoratchanligi bilan davrdan, zamondan ancha ilgari ketish hollari bilan tavsiflanadi. Komil insonlik to'g'risidagi mulohazalar ideal sharoitni aks ettirishga qaratilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki reallikdan uzoqlashish unga erishish imkoniyati mavjud emasligini bildirmaydi, aksincha, inson o'zini – o'zi kashf qilish, o'zini ro'yobga chiqarish, qulay shart – sharoitlar yaratish orqali yuksak darajaga erishsa bo'ladi. Lekin, komil insonlikka qo'yiladigan talablar darajasiga nisbiy yondashish, mezonlarni ixchamlashtirish orqali komil insonni shakllantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki bugungi kunda o'z oldiga muayyan maqsad qo'ygan yosh avlodga turli shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda kasbiy jihatdan insoniy jihatdan o'sib, rivojlanib komillikka erishaman degan har bir yoshga imkoniyatlar berilgan. Ushbu imkoniyatlardan foydalanib, o'zining tashabbuskorligini namoyon qila olgan har bir yosh o'z yo'nalishining yetuk kadri bo'lib yetisha oladi, komil inson bo'la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N.A. Aripova, I.A. Xolmamatova, N.B. Qurbonova KASBIY PSIXOLOGIYA Toshkent-2018



## KASBIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK JIHATLARI

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti talabalari*

**Munisa Ibaydayeva**

**Zuhra Ramanova**

**Jolmirza Duysenbayev**

**Madina Matkarimova**

**Annotatsiya:** *Maqolada kasbiy faoliyatning o'ziga xos qiyinchiliklari, muammolari hamda ularning yechimlari haqida qisqacha so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, faoliyat, motivlar.*

Inson dunyoga kelganidan to vafot etguniga qadar turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Jismoniy faoliyat, aqliy faoliyat shu bilan bir qatorda kasbiy faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Inson o'ziga muayyan bir kasbni tanlash orqali o'z shaxsining statusini ham belgilaydi, o'z faoliyati mobaynida erishadigan muvaffaqiyatlari ham tanlagan kasbiga bog'liqdir. Kasb tanlashda kasbning pedagogik jihatlarini o'rganib chiqish inson faoliyatining nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilishiga zamin yaratadi.

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlarini o'rganishdan ko'zlangan maqsad shundaki, biz ko'rib chiqayotgan mavzuni, ya'ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o'z o'zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko'rib chiqishimiz zarur bo'ladi. Kasbiy o'z-o'zini aniqlash beshta bosqichni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'ladi, o'z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo'ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo'lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug'ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o'z-o'zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to'g'ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo'ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o'ziga ma'qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta'lim bosqichida tanlangan kasbni o'zlashtirish jarayoni sodir bo'ladi.  
4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo'lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o'zini ko'rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo'lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog'liq holda kechadi. Shunday qilib, kasbiy jihatdan o'z o'zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya'ni kasbiy intilishning paydo bo'lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo'lgungacha bo'lgan davrlarni o'zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo'lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladigan bosqichdir. To'g'ri tanlangan

kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta'sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

#### Shaxsning kasbiy shakllanishi

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o'zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o'zining keskin pallasiga kirganligini e'tirof etishimiz kerak. Chunki ko'pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi. Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M.Belokrilova, A.E.Golomshtok, V.I. Jukovskaya, E.A. Klimov, M.X. Titma, P.A.Shavir, M.G.Davletshin, N.Sh. Shodiyev, B.R. Qodirov, E. G'.G'oziyev va boshqalar. Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o'zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan. Bu yo'nalishlarda M.X.Titma, E.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, E.A.Golomshtok, K.M.Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Kasbiy o'zlikni aniqlash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak, degan xulosani chiqarish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o'z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e'tibor qaratib, uni shaxsning ma'lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo'naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog'lab tushuntiradilar. Biz o'z izlanishimizda bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta'sir ko'rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e'tibor qaratdik. Shunday bo'lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan. O'spirinlarning kasbiy o'zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to'g'risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko'zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o'zligini anglash bilan ma'lum kasbni tanlash jarayoni o'rtasida ta'lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta'siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo'ladi. Mazkur o'zaro ta'sir jarayonlaridagi dialektik bog'liqlikning o'ziyoq ushbu masalaning naqadar

murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o'zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma'lumot bosqichida shaxs o'zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta'lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma'lumotlar oladi

b) diagnostik bosqichda shaxsning o'z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o'rganiladi.

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o'quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og'ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi.

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o'z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi. Kasbiy o'z o'zini aniqlash bosqichni P.A.Shavirning mulohazalariga ko'ra, shaxsning kasbiy o'zligini aniqlashi qobiliyatning bo'lg'usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo'yicha o'zini to'g'ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o'stirishi, mehnatga muhabbatli bo'lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o'rganish jabhalarining keng ko'lamdagi o'z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko'lamining kengligi e'tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo'lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to'xtalib o'tamiz. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo'lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Demak, kasbiy o'z-o'zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo'linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Kasbiy yo'nalganlik inson shaxsi yo'nalganligining bir ko'rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo'nalganlik insonning individual-psixologik va individualtipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi. xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin. Kasbiy o'zini-o'zi aniqlashning muhim elementlaridan biri insonning kasbiy yaroqliligidir. Ma'lumki, inson, masalan uchuvchi bo'lishga qiziqishi mumkin. Boringki, uning kasbiy yo'nalganligi ham to'g'ri kelishi mumkin. Biroq u kasbiy jihatdan yaroqsiz bo'lsa, tabiiyki bu kasbni tanlay olmaydi. Demak, kasbiy yaroqlilik ham insonning kasbiy o'zini-o'zi aniqlashida muhim o'rin tutadi. Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi) va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog'lom inson uchun imkon darajasida bo'lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi). Kasbiy yaroqlilikni aniqlash bo'yicha ma'lum bir psixologik testlardan foydalanishda analitik, sintetik va kompleks yondoshuvlardan foydalanish mumkin. A.A. Stolyarov mazkur yondoshuvlarga quyidagicha ta'rif beradi: Analitik yondoshuv alohida psixologik ko'rsatkichlarni o'rganish va baholashni

nazarda tutadi (masalan, diqqat, xotira, harakat kordinatsiyalari). Bu ko'rsatkichlar tanlangan kasb bo'yicha ta'lim va faoliyat muvaffaqiyatlari uchun zarur hisoblanadi. Sintetik yondashuv yaxlit faoliyatni yoki uning muhim elementlarini o'rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham mazkur metod darajasida turli xil apparatlardan foydalaniladi. Bu apparatlar yordamida butun boshli kasbiy operatsiyalar modellashtiriladi. Kompleks yondashuv analitik va sintetik yondoshuvlarning qo'shiluvidan paydo bo'ladi. Endi qisqacha kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga to'xtalib o'tamiz. Ulardan birinchisi kasbiy ma'rifat hisoblanadi. Kasbiy ma'rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlari haqida bilimlarni uzatishga aytiladi. Shuning uchun ma'lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishlik shu kasbni tanlashda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo'lining boshida turgan o'spirin uchun juda foydali hisoblanadi. Keyingi yo'nalish – kasbiy maslahat hisoblanadi. Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

A) Lug'aviy - ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma'lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo'yiladigan talablar, turli xil kasblarni egallash imkoniyatlari, kasbiy o'sishning kelajakdagi yo'nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub'yekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai nazardan o'rganish haqida gap ketadi.

V) Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub'yektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o'zgartirish korreksiya deb ataladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kasb tanlash jarayoni inson hayotidagi muhim jarayonlardan biri hisoblanib, umrning muayyan qismini tashkil qiladi hamda shaxsning ijtimoiy statusini belgilaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

N.A. ARIPOVA, L.A. XOLMAMATOVA, N.B. QURBONOVA  
KASBIY PSIXOLOGIYA Toshkent-2018

## THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC «PERFECT CONJUNCTIVE AND DYSFUNCTIONAL NORMAL FORMS»

Jumayeva Charos Ilkhomjan's kizi

Bukhara state university

[charosjumayeva2801@gmail.com](mailto:charosjumayeva2801@gmail.com)

**Annotation:** Today, in the educational system, it is of particular importance to master the topic under study, effectively using computer technology and modern pedagogical methods and techniques throughout the lesson. In this article, one of the important topics of discrete mathematics and mathematical logic is the thinking of effective approaches to a meaningful explanation of the subject of the «Perfect conjunctive and dysfunctional normal forms» to students and interactive methods that can be used in practical training lessons, their advantage and disadvantage. In particular, there is a need for the widespread promotion of the use of international standards in the practical implementation of computer technologies and related aspects, which are one of the requirements of the Times today. In this regard, the importance of kata is attached to the development of scientific categories of pedagogical methods and methods and their effective application in educational processes.

**Keywords:** Perfect conjunctive normal forms (PCNF), perfect dysfunctional normal forms (PDFNF), Complete and correct elementary conjunctions (dysfunctions). «Fish skeleton» method, «Domino» method.

Today, every subject which is taught to students in higher education institutions is approached scientifically in depth. Great attention is paid to the enrichment of each topic with perfect, latest information. Therefore, the role of modern pedagogical methods and techniques used during the lesson in the long-term memorization of information on the topic is incomparable.

Let's talk about the topic briefly.

$n$  of  $x_1, x_2, \dots, x_n$  elementary considerations  $x_1^{\sigma_1} \vee x_2^{\sigma_2} \vee \dots \vee x_n^{\sigma_n}$  (1)

elementary dysfunctions and  $x_1^{\sigma_1} \wedge x_2^{\sigma_2} \wedge \dots \wedge x_n^{\sigma_n}$  (2) let be given elementary conjunctions.

**Definition 1.** (1) elementary disjunction (2) Elementary conjunction) is said to be pure elementary disjunction (elementary conjunction) so that, and only then, when in the expression of (1) (2) each elementary reasoning  $x_i$  has participated once [1].

**For example,** elementary dysfunctions  $x_1 \vee x_2 \vee x_3$  and  $\overline{x_1} \vee x_4 \vee x_6$  and elementary conjunctions  $x_1 x_2 x_3$  and  $x_1 \overline{x_3} x_6$  are said to be true elementary dysfunctions and elementary conjunctions, respectively.

**Definition 2.** (1) elementary dysfunctions ((2) elementary conjunctions) are said to be complete elementary dysfunctions (elementary conjunctions) with respect to

$x_1, x_2, \dots, x_n$  considerations, when each of the  $x_1, x_2, \dots, x_n$  considerations is involved once in their expression.

**For example**, elements  $x_1 \vee \overline{x_2} \vee x_3$  and  $\overline{x_1} \vee \overline{x_2} \vee x_3$  are dysfunctions and elements  $\overline{x_1} \overline{x_2} \overline{x_3}$ ,  $x_1 x_2 \overline{x_3}$  are conjunctions  $x_1, x_2, x_3$  are complete elements compared to considerations dysfunctions and elements are conjunctions.

**Definition 3.** The diz'yunctive normal form (conjunctive normal form) is said to be PCNF (PDFN) if there are no uniform elementary conjunctions (elementary diz'unctions) in the CNF (DNF) expression and all elementary conjunctions (elementary diz'unctions) are correct and complete [2-3].

For example,  $xyz \vee xy\overline{z} \vee \overline{xy}z \vee x\overline{y}z$  DNF is PDFN compared to  $x, y, z$  considerations.  $(x \vee y) (\overline{x} \vee \overline{y}) (\overline{x} \vee y)$  CNF is PCNF compared to  $x, y$  considerations.

The PDFN and PCNF views of the main logical steps will be as follows:

$$\text{a) PDFN: } \overline{x} = \overline{x}; \overline{xy} = \overline{x} \vee \overline{y}; \quad x \vee y = xy \vee \overline{x} \vee \overline{y}; \quad x \rightarrow y = xy \vee \overline{x} \vee \overline{y};$$

$$x \rightarrow y = xy \vee \overline{x} \vee \overline{y}$$

$$\text{b) PCNF: } \overline{x} = \overline{x}; \overline{xy} = (\overline{x} \vee y) (x \vee \overline{y}); \quad x \vee y = x \vee y; \quad x \rightarrow y = \overline{x} \vee y;$$

$$x \rightarrow y = (\overline{x} \vee y) (x \vee \overline{y}).$$

**Example.** Bring the formula to PCNF.  $A = (\overline{x \vee z}) \wedge (x \rightarrow y) = (\overline{x} \wedge \overline{z}) \wedge (\overline{x} \vee y)$

$$A = [\overline{x} \vee (y \wedge \overline{z})] \wedge [(x \wedge \overline{x}) \vee (y \wedge \overline{z}) \vee \overline{z}] \wedge (\overline{x} \vee y \vee (z \wedge \overline{z})) =$$

$$=[(\overline{x} \vee y \vee z) \wedge (\overline{x} \vee \overline{y} \vee z) \wedge (\overline{x} \vee y \vee z) \wedge (\overline{x} \vee \overline{y} \vee \overline{z})] \wedge [(x \vee y \vee \overline{z}) \wedge (x \vee \overline{y} \vee \overline{z}) \wedge$$

$$\wedge (\overline{x} \vee y \vee \overline{z}) \wedge (\overline{x} \vee \overline{y} \vee \overline{z})] \wedge [(\overline{x} \vee y \vee z) \wedge (\overline{x} \vee y \vee \overline{z})],$$

$$A = (\overline{x} \vee y \vee z) \wedge (\overline{x} \vee \overline{y} \vee z) \wedge (\overline{x} \vee y \vee \overline{z}) \wedge (\overline{x} \vee \overline{y} \vee \overline{z}) \wedge (x \vee y \vee \overline{z}) \wedge (x \vee \overline{y} \vee \overline{z}).$$

thoughtful perfect conjunctive normal form in the expression instead of and vice versa, instead of when we add we get an important dysfunctional normal form with considerations [4-7].

Each term of the perfect conjunctive normal form is called a conjunctive constituent.

In order to organize effective lessons on this topic we should utilize several interactive techniques, such as «skeleton of a fish» method which is used at the beginning of the lesson. In this method, the formula for the algebra of reflections is written at the top of the skeleton of the fish. Students should write a formula that is equivalent to formulas on the bottom of the skeleton [7-20].

Advantages of this method: to draw students' attention to the topic thoroughly, to enable students to select information correctly, to teach learners how to express opinion clearly.

Disadvantages: almost undetermined.

In the study of the topic on perfect conjunctive and dysfunctional normal forms, the «Domino» method also gives the results we expected.

In this method, we should prepare colorful cards and write some examples connected to this topic on the one sides of the sheets in order. A word «START» should be written on the first sheet. The answers to the previous example are written on another side of the remaining sheets. Then we add another sheet, and on it we write the inscription «END» on the back, and the answer to the last example. Then these cards are shuffled. The game begins with a «START» sheet. Using this method during classes will be very interesting if students are divided into groups and lessons are conducted in a competitive manner [13-20].

Advantages of the method: this method encourages students to be more active and energetic during the lesson; to teach students to work in group and to be responsible; to improve learners' critical thinking skills and helps them to correct their mistakes independently.

Disadvantages of the method: almost undetermined.

When using the method «Domino», the cards can be prepared as follows. It is asked to find the PDNF or PCNF form of each example.

Sheet 1 PDNF  $f(x,y,z)=xyVxzVx\bar{z}$

Sheet 2 PCNF  $f(x,y,z)=xyVxV\bar{x}z$

Sheet 3 PCNF  $f(x,y,z)=x\rightarrow(x\rightarrow y)$

Sheet 4 PDNF  $f(x,y,z)=xyVxzVx\bar{z}$

Sheet 5 PDNF  $f(x,y,z)=(xVy)\leftrightarrow\bar{x}V\bar{y}$

Sheet 6 PCNF  $f(x,y,z)=(x\wedge z)\rightarrow(x\leftrightarrow y)$

Sheet 7 PDNF  $f(x,y,z)=(xVy)\leftrightarrow\bar{x}\bar{y}$

Sheet 8 PCNF  $f(x,y,z)=(xVz)\leftrightarrow(x\leftrightarrow y)$

Nowadays, a number decrees have been signed by the president of our country in order to draw great attention to the development of the subject mathematics and its application in practice. At the core of ensuring the implementation of decrees, of course, lies in teaching mathematics students to use advanced pedagogical methods and techniques. The methods of «Fish skeleton» and «Domino» recommended in the article are welcomed by students positively. Similar advanced pedagogical technologies have also been recommended in a number of scientific studies, and ways to use them have been explained with several examples. It is also widely covered that at present, taking into account the relevance of expanding the practical applications of the theory, it is also important to provide information about the integration of mathematics with other disciplines in the future.

**REFERENCES:**

1. To'rayev H., Azizov I., «Matematik mantiq va diskret matematika». Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik: II jildlik.-Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – 208 bet. 231-232.
2. Jumayeva Ch.I., Axmedov O.S., Matematikani o'qitishda maktab o'quvchilarining nutq-kogitativ faoliyatini rivojlantirish asoslari va usullari. «Pedagogik akmeologiya» xalqaro ilmiy-metodik jurnal. MS 2022. 199-207
3. Сайлиева Г.Р. «Использование метода «Математический рынок» в организации практических занятий по Дискретной математике», Проблемы педагогики 53 (2), с. 27-30.
4. Ch.I.Jumayeva, M.D. Shukurova. Ikki noma'lumli birinchi tur Fredholm integral tenglamalar sistemasining yechimi haqida. Science and Education, 2023 y. 4- son. 12-18 b.
5. Ch.I.Jumayeva. B.E.Daliyev. Ajralgan yadroli xususiy integrally operatorning xos qiymatlari va rezolventasi. Scientific progress, 2023 y. 4- son. 219-222 b.
6. Ch.I.Jumayeva. M.U. Abduraxmonov Fridriks modelining xos funksiyalari uchun Faddeyev tenglamasi va uning xarakteristik xossalari. Scientific progress, 2023 y. 4- son. 215-218 b.
7. Ch.I.Jumayeva. «Charxpalak» va «uchta to'g'ri bitta no'to'g'ri» metodlarining «Jegalkin ko'phadi» mavzusini o'rganishdagi o'rni. Zamona-viy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni, 2023 y. №2, 66-67 b.
8. A.Алаудинов, Ch.Jumayeva. Local innerderivations on three-dimensional lie algebras. Fan va jamiyat. 2022 й. 2-сон. 5-8 б.
9. A.Алаудинов, Ch.Jumayeva. Local inner derivations on four-dimensional lie algebras. Қорақалпоғистонда фан ва таълим. 2022 й. 1 -сон. 22-29 б.
10. Г.Р Сайлиева, Использование метода «математический рынок» в организации практических занятий по «дискретной математике», Проблемы педагогики. 53(2), 27-30.
11. Sayliyeva G.R., Diskret matematika va matematik mantiq fanining «predikalar mantig'i» bobi mavzularini tushuntirishda samarali yondashuv va undagi zamonaviy usul va metodlar, scientific progress. 2:1, 552-558.
12. Sayliyeva G.R. Diskret matematika va matematik mantiq fanida bul funksiyalarni jegalkin ko'phadlariga yoyish mavzusini mustahkamlashda «matematik domino» metodidan foydalanish, Scientific progress, 2(2), 2021, 773-780.
13. Сайлиева Г.Р. (2021). Использование новых педагогических технологий в обучении «Аналитическая геометрия». Вестник науки и образования. 68-71.
14. Расулов Х.Р. Аналог задачи Трикоми для квазилинейного уравнения смешанного типа с двумя линиями вырождения // Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Физ.-мат. науки, 2022. Т. 26, № 4.



15. Rasulov X.R. Qualitative analysis of strictly non-Volterra quadratic dynamical systems with continuous time // Communications in Mathematics, 30 (2022), no. 1, pp. 239-250.
16. Rasulov X.R. Boundary value problem in a domain with deviation from the characteristics for one nonlinear equation with mixed type. AIP Conference Proceedings 2781, 020016 (2023), <https://doi.org/10.1063/5.0144892>.
17. Rasulov X.R. Sayfullayeva Sh.Sh. Buzilish chizig'iga ega bo'lgan elliptik tipdagi tenglamalar uchun qo'yiladigan chegaraviy masalalar haqida // Science and Education, scientific journal, 3:3 (2022), p.46-54.
18. Rasulov, R. X. R. (2022). Buzilish chizig'iga ega kvazichizikli elliptik tenglama uchun Dirixle-Neyman masalasi. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 18(18).
19. Rasulov, R. X. R. (2022). Иккита перпендикуляр бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги тенглама учун чегаравий масала ҳақида. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 22(22).
20. Rasulov, R. X. R. (2022). Бузилиш чизиғига эга бўлган квазичизиқли аралаш типдаги тенглама учун Трикоми масаласига ўхшаш чегаравий масала ҳақида. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 18(18).

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi*  
**Haqqiyeva Fotima Olimjonovna**

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda yangicha yondashuvlarga asoslanib ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish bugungi kunning asosiy masalasidir. Ushbu maqolada ham boshqarishni tashkil etishning usullari va turlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish haqida so'z boradi.*

**Аннотация:** *организация образовательно-воспитательного процесса на основе новых подходов к управлению системой дошкольного образования-главный вопрос сегодняшнего дня. В данной статье также рассматриваются методы и виды организации управления, совершенствования на основе инновационных педагогических технологий.*

**Abstract:** *the organization of the educational process based on new approaches to the management of the preschool education system is the main issue of today. This article also discusses methods and types of management organization, improvement based on innovative pedagogical technologies.*

**Kalit so'zlar:** *Boshqaruv, menejment, innovatsion boshqaruv, takomillashtirish, menejment, pedagogik texnologiya.*

**Ключевые слова:** *Менеджмент, управленческая деятельность, инновационный менеджмент, совершенствование, менеджмент, педагогическая технология.*

**Keywords:** *Management, Management, innovative management, improvement, management, pedagogical technology.*

Zamonaviy ta'lim tizimi nuqtai nazaridan qaraganda maktabgacha ta'lim tashkiloti unda tashkil etilgan pedagogik jarayonlar hamda tashkilot direktoriga bo'lgan talablar ham oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, to'laqonli jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ma'lum bir o'zaro bog'liq elementlardan iborat bo'lgan murakkab tizim sifatida qaraladi. Bunday elementlarga uning faoliyatini belgilovchi maqsadlar, vazifalar, vositalar, shakl va usullar, sub'ekt, boshqaruv ob'ekti, tamoyillari va funktsiyalari kiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy

etish sharoitida pedagogik jarayonni qurishning o'ziga xosligini ta'kidlanadi, unda o'ziga xoslik, bolalar rivojlanishining normal kursi va maktabgacha yoshdagi bolalik davrining o'ziga xosligi saqlanib qoladi. Ular jamiyatdagi o'zgarishlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashning shakllanishi, psixologiya-pedagogika fanining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zgarib boradi. Boshqaruv sub'ektlari faoliyatini belgilaydigan maqsadlar pedagogik jarayonning maqsad va vazifalariga mos keladi: bolaning shaxsiyatini rivojlantirish, uning dunyoni va o'zini bilishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish, shuning uchun asosiy shart. maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyati - bu jamoaning barcha a'zolari tomonidan bolaning shaxsiyatining o'ziga xosligini tan olish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv harakatlari, pedagogik jamoa bilan munosabati, ota-onalar bilan hamkorligi shu kabi boshqa jarayonlar ham bola tarbiyasi uchun juda muhim omillardan hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarish modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ta'lim va tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari;
  - Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash va uyg'unlashtirish;
  - Maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy- psixologik mas'uliyati;
  - Maktabgacha ta'lim tashkilotining jamiyat, oila, maktab, mahalla, oliy o'quv yurtlari bilan aloqasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining doirasini kengaytirish;
  - Insonparvarlik tamoyiliga asoslangan kattalar va bolalar o'rtasidagi hamkorlik.
- Bundan tashqari, boshqaruv modeliga qo'yiladigan talablar:

☒ Uning tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik sharoitlarga moslashishi, boshqaruv sub'ektlariga yangi tuzilmalar va mazmunni tizimga o'z vaqtida kiritish imkonini beruvchi ochiqligi;

☒ Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning taqlidchanlik xarakteriga barham berish, ijodkorlik muhitini yaratish, qat'iy tartib-qoidalarga barham berish.

☒ Ta'lim tashkiloti xodimlari doimiy yangilanishga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishini ta'minlashga qaratilishi kerak.

☒ Xodimlar malakasini oshirish va qabul qilish jarayonining shaffofligi

G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik

innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim.

Boshqaruvni tashkil etish yuzasidan maslahatlar:

- Jamoaviy birlikni ta'minlash
- Uyushqoqlik ruhida ishni tashkil etish
- Pedagogik kengashni tashkil etishda noodatij shaklda tashkil etish
- Ma'naviy marifiy ishlarda o'zaro tashkilotlar bilan hamkorlikni bog'lash

Xulosa qilib aytganda tizimni isloh qilish, takomillashtirish, soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va dunyo tajribasidan o'rnak olgan holda milliy tarbiya modelini ta'lim tizimida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamon pedagogi kreativ fikrga ega, mustaqil va erkin fikr mulohazalarni bayon eta oluvchi, soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi lozim.

Boshqaruvni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari quyidagilar:

- STEAM texnologiyalarining joriy etilishi;
- Pedagogik klasterni tashkil etish;
- Integratsion hamkorlikni ta'minlash;
- Axborot texnologiyalardan samarali foydalanish;
- Kompetensiyaviy xususiyatlarini takomillashtirish yuzasidan seminar-treninglar tashkil etish;
- Mahalla oila birligini ta'minlash
- Kattalar yoshlarga yoshlar kattalar prinsipi asosida pedagoglar o'rtasida ustoz shogirt an'anasini takomillashtirish

Boshqaruv jarayoni murakkab va mo'tadil bo'lmagan jarayon hisoblanganligi sababli ham uni vaziyatdan kelib chiqqan holda tayinlangan qoidalar asosida qat'iy boshqarish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori
2. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uchun qo'llanma.
3. Troyan A.N. Maktabgacha ta'limni boshqarish: darslik
4. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Tafakkur bo'stoni Toshkent-2013.
5. Усаров Ж.Э, Ҳаққиева Ф.О ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ КЛАСТЕР КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР БЛАГОПОЛУЧИЯ ЧЕЛОВЕКА INSON FAROVONLIGINI O'RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari 451-454-бет
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## RETSEP YOZISH QOIDALARI

**Muzaffarova Nigora Safarovna**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot unversiteti  
farmakologiya kafedrasasi assistenti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada retsept tuzilishi, dori maddalari, dori shakli va dori nasil tushunchasi formulada qabul qilgan asosiy ta'smalar, tibbiy va farmasevtika retsepti va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *retsept, tibbiyot, muassasa, muhr, sana, bemor, ism, yosh, shifokor, dori, farmatsevt.*

### Tibbiy va farmasevtika retsepti



Tibbiyot fanining bir tarmog'i sifatida umumiy birikma tibbiy va farmatsevtik birikmalarni birlashtiradi. Tibbiy retsept dori-darmonlarni (aniqrog'i, dozalash shakllari) buyurish qoidalarini o'rganadi. Farmatsevtika formulasi dozalash shakllarini ishlab chiqarish qoidalarini o'z ichiga oladi va hozirda farmatsevtika bilimlarining maxsus tarmog'iga - dozalash shakllari texnologiyasiga ajratilgan.

Dori maddalari, dori shakli va dori nasil tushunchasi



Dorivor modda (yoki dori) - bu farmakologik faollikka ega kimyoviy birikma.

Dorivor mahsulot - bu maxsus ishlov berishdan o'tgan dorivor xom ashyo. Dorivor xom ashyo manbalari mineral, o'simlik, hayvonot, sintetik kelib chiqishi va mikroorganizmlarning chiqindilari bo'lishi mumkin.


Dozlash shakli - bu foydalanish maqsadiga eng mos keladigan va foydalanish uchun eng qulay bo'lgan dorivor moddaga beriladigan chiqarish shakli.

Dori - bu ma'lum bir dozlash shaklidagi dorivor modda.

Retsept va uning tuzilishi

Retsept - bu shifokorning farmatsevtga dori tayyorlash to'g'risida yozma arizasi bo'lib, bemor ushbu dori vositasidan qanday foydalanishi kerakligini ko'rsatadi. Shifokorning ko'rsatmalarini bajarib, farmatsevt (farmatsevt) retseptning to'g'riligini nazorat qiladi (bu asosan dori dozasi va retseptlangan moddalarning muvofiqligiga tegishli). Bemor, o'z navbatida, preparatni qo'llashning ko'rsatilgan usuliga qat'iy rioya qilishi kerak.

Dori retsepti lotin tilida olib boriladi va bemorga dori vositasidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar rus (ona) tilida.



Retsept quyidagi bo'limlardan iborat:

-tibbiyot muassasasining muhri;

-sanasi;

-bemorning ismi va yoshi;

-shifokorning to'liq ismi;

-dori retsepti;

-farmatsevtga ma'lum bir dozalash shaklini tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar (rasmiy va qisqartirilgan retseptlar uchun ixtiyoriy)

-bemorga dori berishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha farmatsevtga ko'rsatmalar

-bemorga dori-darmonlarni to'g'ri qabul qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish

-shifokorning imzosi, uning shaxsiy muhri va muassasa muhri.

Retseptning asosiy bo'limi - bu dori retsepti. U har doim farmatsevtga murojaat qilish bilan boshlanadi: Retsept - uni qabul qiling, shundan so'ng dorivor moddalar ma'lum bir ketma-ketlikda ro'yxatga olinadi. Retseptning



majburiy qismi faqat birinchi qatorga joylashtirilgan asosiy faol modda yoki asosdir. Preparatning farmakologik ta'siri uning ishlatilishiga asoslanadi. Retseptda ikkinchi o'rinda yordamchi moddalar (adjuvanlar): ular asosning ta'sirini kuchaytirish yoki uning kiruvchi ta'sirini susaytirish uchun ishlatiladi. Uchinchi o'rinda dori tarkibiga uning yoqimsiz organoleptik (ta'mi, rangi, hidi va boshqalar) xususiyatlarini tuzatish uchun kiritiladigan tuzatuvchi moddalar (korrigenlar) turadi. Oxirgi o'rinda dori-darmonga ma'lum bir shakl beradigan moddalar - bular shakl hosil qiluvchi moddalar (tarkibiy qismlar): eritmalardagi suv, moylarda moyli jele, kukunlarda shakar va boshqalar. Bir nechta yordamchi, tuzatuvchi va shakllantiruvchi bo'lishi mumkin. retseptorlari retseptida qurilish moddalari.

Formulada qabul qilgan asosiy ta'smalar

Retseptga kiritilgan dorivor moddalar miqdori blankaning o'ng tomonida ko'rsatilgan. Retsept bo'yicha vazn o'lchovi gramm (1,0) va uning fraktsiyalari: 0,1 - desigram; 0,001 - milligramm; 0,0001 - decimilligram; 0,00001 - santimetr; 0,000001 - mikrogram. Retseptdagi hajm o'lchovi millilitr (1 ml). Uzunlik santimetrda (sm) ko'rsatilgan.

Ikki yoki undan ortiq dorivor moddalar bir xil dozada ko'rsatilgan bo'lsa, u oxirgi moddaning nomidan keyin faqat bir marta ko'rsatiladi. Belgilangan miqdor barcha sanab

o'tilgan moddalarga tegishli ekanligini ko'rsatish uchun "ala" (teng) yoki qisqartirilgan "aa" so'zi ishlatiladi.

Agar shifokor dorini eng yuqori bir martalik dozadan oshib ketadigan dozada buyursa, u uning miqdorini so'z bilan yozishi va undov belgisini (!) qo'yishi shart.

Agar retsept shaklining bir tomoniga to'g'ri kelmasa, siz pastki qismida "verte" (aylantirish) yozishingiz va boshqa tomondan retseptni tugatishingiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Болтаев, М. М., кизи Мелибоева, Ш. Ш., Джалилов, Ф. С., Юлдашева, Д. Х., Джалилова, Ф. С., & Самадов, Б. Ш. (2022). BROKKOLI VA BROKKOLI NIHOLLARIDAN TURLI KASALLIKLARNING OLDINI OLISH VA DAVOLASHDA FOYDALANISH. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(4), 242-254.

2. Джалилов, Ф. С., Болтаев, М. М., & кизи Мелибоева, Ш. Ш. (2022). BROCCOLINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(3), 194-205.

3. Meliboeva, S., Boltayev, M., & Jalilov, F. (2022). The effect of broccoli sprouts on diabetes mellitus and the gastrointestinal tract. Science and innovation, 1(D5), 81-87.

4. Болтаев, М. М., Шарипова, Э. М., & Мелибоева, Ш. Ш. (2022). ПЕРВЫЕ ЛЕЧЕБНО-БОТАНИЧЕСКИЕ САДЫ НА ТЕРРИТОРИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. ИТМОИЙ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 96-100.

5. Boltayev, M. M., Sh, M. S., & Jalilov, F. S. (2023). PREPARATION AND DRYING OF BROCCOLI HERBS (BRASSICA OLERACEA L.). Електронне видання мережне Редакційна колегія: проф. Котвіцька АА, проф. Владимірова ІМ, проф. Георгіянц ВА, проф. Перехода ЛО, проф. Журавель ІО, проф. Колісник СВ, доц. Криськів ОС, проф. Власов СВ, ас. Смєлова НМ, ас. Григорів ГВ, 19.

6. <https://dendrit.ru/page/show/mnemonick/kratkie-pravila-vypisyvaniya-receptov/>



## OLXO'RI O'SIMLIGI HAQIDA

**D.M.Xatamova**

**D.R.Tolipova**

*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada olxo'ri o'simligi turlari, kelib chiqish tarixi, yetishtirish va ishlatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Аннотация:** *В этой статье представлена краткая информация о видах сливы, истории происхождения, выращивании и использовании.*

Olxo'ri - shirin va juda suvli pulpaga ega meva. Ular Rosaceae oilasiga mansub va maydan oktyabrgacha yetishtiriladi. Olxo'ri o'simliklar orasida ajoyib kichik buta bo'lib, butun dunyoda keng tarqalgan. Olxo'rining vatani Xitoy bo'lib, Gretsiyada paydo bo'lgan deb ishoniladi. Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya va Yevropa uning asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib, bizga 200dan ortiq olxo'ri navlari ma'lum. Pulpa suvli bo'lib, olxo'ri turiga va rangiga qarab o'zgaradi.

Ushbu mevaning terisi qizil, binafsha, qora va yashil bo'lishi mumkin. Ular yumshoq, yumaloq va ovalsimon silliq teriga ega hamda taxminan 3-6 sm o'lchamli kattalikda. Uning o'rtasida yog'ochga o'xshash katta urug' bor, u meva iste'mol qilingandan keyin tashlanadi. Ular juda yoqimli hidga ega va quritilgan olxo'ri qoqi deb ataladi. Quvnoq olxo'ri, qorako'l olxo'ri va damsun bu mevaning asosiy navlari bo'lib, ularni butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar iste'mol qiladilar. Har bir tur ajoyib oзуqaviy tarkibga ega va ko'p tomondan foyda keltiradi.

Blackamber olxo'ri - Amerika olxo'risining mashhur navi mevasi qora tanli po'stli va go'shti ochiq-sariq rangga ega. Agar ular butunlay yetilganidan keyin tanlab terib olinsa, ular juda shirin va o'tkir ta'mga ega bo'ladi.

Damson olxo'rilar shirin nav sifatida tanilgan va binafsha rangli po'stga ega. Ko'pgina mashhur taomlarga damson olxo'risini o'z ichiga oladi. Ularni murabbo yoki qovurilgan mevalarni tayyorlash uchun ham ishlatilishi mumkin.

Fil yurak olxo'ri turi qizil go'shtli pulpasi jigarrang-oltin rangga ega po'st bilan qoplangan. Ular juda suvli va sog'liq uchun yaxshi, yangi olxo'ri sharbatini tayyorlash uchun siqib chiqarish kifoya. Ularning tropik ta'mi vanil hidi bor.

Fransuz olxo'risi Yevropa uslubidagi va yong'oq kattaligidagi ixcham binafsha olxo'ridir. Ular tortlar tayyorlash uchun juda mos keladi, juda mazali va shirin, bu ularga shakar olxo'ri nomini ham beradi.

Olxo'ri tabiatda mo'tadil va kuchli o'sadigan kichik daraxtdir. Bu tepaliklarning asosiy mevali ekinidir, ammo Shimoliy Hindiston tekisliklarida muhim kichik ekin hisoblanadi. Bu meva ajoyib hosildorlik salohiyati va yuqori iqtisodiy rentabelligi tufayli bog'bonlarning e'tiborini tortdi.

Yapon olxo'rining past muzlatuvchi ertapishar navlari bozorga boshqa mevalar kam bo'lganda kirib keladi va shu sababli o'sha paytda bozorda raqobat bo'lmagan.

Nisbatan qattiq tanali va chidamli daraxt bo'lganligi sababli, olxo'ri bog'ini barpo etish boshqa mevali daraxtlarga qaraganda ancha oson. Kech hosil beradigan mango, litchi va nok bog'larida olxo'ri to'ldiruvchi daraxt sifatida ekilishi mumkin. Yapon olxo'ri (*Prunus salicina* Lindl.) Hindistonning mo'tadil va subtropik iqlimida o'stiriladi.

Yapon olxo'rining vatani Xitoy bo'lib, u yerda ming yillar davomida yetishtirilgan. Uning navlari Yaponiyaga eramizdan avvalgi 1500 yilda olib kelingan bo'lsa-da, Amerikada yapon olxo'ri sifatida tanilgan. Amerikadagi bu turning mevali daraxti, Kelsi navi 1870 yilda Yaponiyadan olib kelingan. Ba'zi salitsina navlari keyinchalik Amerikadan Yevropaga keltirildi. Olxo'ri birinchi marta Hindistonda janob Aleksandr Koutts tomonidan Mashobradagi (Shimla tepaliklari) bog'ida taqdim etilgan.

Hozirgi vaqtda olxo'ri dunyoning barcha mo'tadil iqlimli mamlakatlarida yetishtiriladi. Olxo'ri yetishtiruvchi yirik davlatlar Xitoy, Serbiya, Ruminiya, Chili, Eron, AQSh, Turkiya, Ispaniya, Hindiston va Italiyadir. Xitoy dunyodagi eng yirik olxo'ri ishlab chiqaruvchisidir.

Hindistonda olxo'ri tijorat miqyosida Jammu va Kashmir, Himachal-Pradesh, Uttarakhand va Uttar-Pradeshda yetishtiriladi. Ular, shuningdek, ma'lum darajada Janubiy Hindistonning Nilgiri tepaliklarida o'stiriladi. Past sovuqqa chidamli yapon olxo'ri Panjob, Haryana va ba'zi qismlarida yetishtiriladi

Virtual resurslar, o'quvchilarga masofaviy o'quv tajribasi imkoniyatini beradi. Bu, o'quvchilarning o'zlarini bepul vaqtlarida matematik va geometriya bilan mustaqil ravishda mashg'ul qilishlari uchun yaxshi bir vosita. Uzluksiz o'rganish va masofaviy dasturlar orqali o'quvchilar qanday bo'lishi kerakligini oson tushunishlari mumkin.

#### 7. Yangiliklarga Tayanish

Virtual resurslar, yangi matematik metodika va texnologiyalariga doir yangiliklarga tayanish imkonini yaratadi. O'qituvchilar, yangi darsliklar, interaktiv materiallar, va ma'ruzalar orqali o'z metodikalarini yangilab borishlari mumkin. Bu, o'qitish jarayonini doimiy ravishda rivojlantirish va o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rgatish uchun muhimdir. Virtual resurslar, o'quvchilarga tez vaqtida feedback berish imkonini ta'minlaydi. O'quvchilar, yozilgan yoki amaliy vazifalarni yuborish orqali tezda o'zlarining xatolari va tashvishlari haqida ma'lumot olishadi. Bu, o'qituvchilar uchun o'quvchilar bilan individual ravishda ishlash va ularning xususiyatlari hisobga olingan darslar tuzilishida muhimdir. Virtual resurslar, o'quvchilar uchun o'rganishni qulay va soniy qilishga yordam beradi. Ular, mobil qurilmalar yoki kompyuterlar orqali istalgan joyda va vaqtida o'rganishlari mumkin. Bu, o'quvchilar uchun ta'limni hayotga bo'lgan vaqtiga moslashtirish imkonini yaratadi. Geometriya fanida virtual resurslarni qo'llash, o'qitishning innovatsion modelini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'qituvchilar uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni o'rganish va ulardan o'quvchilarga eng yaxshi foyda olishni ta'minlashda muhimdir. Bu usul, o'quvchilarni matematik va geometriya bilan ta'lim berishda eng zor yoki noyob mavzularni ham osonlashtirish imkonini beradi.

Geometriya fanida virtual resurslarni qo'llash, o'quvchilarning matematik va geometriya bilan yaqinlashishini, tushunishini, va bu sohadagi malakalarini oshirishini ta'minlaydi. Bu esa, ularni mustaqil, sifatli, va innovatsion o'rganishda rivojlantirish uchun juda samarali va zarur bo'ladi.

#### REFERENSLAR:

Abdullaev, A. (2020). "Matematika O'qitishda Virtual Resurslardan Foydalanishning Zararlari va Afzalliklari." O'zbekiston Bilimlar Akademiyasi ilmiy elektron jurnali, 4(2), 112-125.

Yusupov, B. (2018). "Geometriya Fanini O'qitishda 3D Modellovlar Qo'llanilishining O'quv Natijalariga Ta'siri." O'zbek matematika fanlari jurnali, 6(1), 45-57.

Ochilov, N. (2019). "O'zlashtirilgan Darsliklar va Virtual Resurslar Qo'llanilishining Geometriya Fanini O'qitishda O'quvchilar Bilimlarini Mustahkamlashga O'xshashligi." Ta'lim va ilmiy tadqiqot jurnali, 2(3), 78-91.

UNESCO. (2021). "E-Learning in Uzbekistan: Current Trends and Future Perspectives." Retrieved from [URL].

## PSIXOLOG KOUCH SHAXSIGA QO'YILGAN TALABLAR

**Turayeva Iroda Baxtiyarovna**

*Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada psixologik konsultatsiya va kouching texnologiyasini qo'llash, shaxsning kasbiy faoliyatini yangi paradigmasi va zamonaviy texnologiyasi sifatida tavsiflangan. Kouchingni tashkil etishga ilmiy yondashuvlar tizimlashtirilgan va uning psixologik konsultatsiyadan farqlari: o'xshash va tafovutlari hamda qo'llash sohalari to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *konsalting, maslahatchi, murabbiy, kouching, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy ish, dastur.*

**Abstract:** *This article describes the application of psychological counseling and coaching technology as a new paradigm of human professional activity and its modern technology, systematizes scientific approaches to the organization of coaching, determines its differences from psychological counseling: similarities and differences, as well as the position of application.*

**Keywords:** *consulting, consultant, coach, coaching, vocational training, Social work, program. o'*

### KIRISH

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, yurtboshimiz belgilagan tamoyillari asosida yangi jamiyatni qurilishi, ta'lim tizimidagi tub islohotlar, odamlar ongidagi katta o'zgarishlar, "Yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash" shiorini hayotiy reallikka aylantirish ko'p jihatdan oliy ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilarning salohiyati, shaxsiy sifatleri va jamiyatda tutgan mavqeiga bog'liq. Yuqoridagilarni talab darajasida saqlanishini ma'lum jihatdan oliy ta'limdagi pedagog imiji belgilaydi. Ularning imiji qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik yoshlar orasidagi katta aql egalari shu sohaga o'zlarini bag'ishlaydilar, ularni kasb faoliyatiga aylantiradilar va aksincha pedagog imiji yetarli saviyada bo'lmasa intellektual yoshlar ushbu kasbni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Demak, bugungi kunda shaxsni tarbiyalovchi oliy ta'lim tizimidagi pedagog imiji mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ayrim sabablarga ko'ra zamonaviy pedagog imijini yetarli saviyaga ko'tarishning ehtiyoji mavjud, chunki u talab darajasida emas. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarning o'tish davrida muqarrar ravishda kuzatilishi mumkin bo'lgan ziyoliylar, shu jumladan, oliy ta'lim tizimidagi pedagoglar imijida talaygina o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Ularni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar, o'zgarishlarni davomiyligi, salbiy va ijobiy, ijtimoiy hamda hududiy xususiyatlari maxsus ilmiy tadqiq etilish zaruriyati tanlagan muammoning dolzarbligini tashkil qiladi.

## ASOSIY QISM

Kouching muvaffaqiyatli konsalting zamonaviy formati bo'lib, bu bizning maqsadlarimizga optimal tarzda erishishning bir usuli. Kouching - bu konsalting xizmatlari sohasida nisbatan yangi hodisa. "Kouching" atamasi biznesni boshqarishga 1990-yillarning boshlarida ingliz biznesmeni va maslahatchisi Ser Djon Uitmor tomonidan kiritilgan[1]. "Kouching" tushunchasi psixologiya, menejment, falsafa, mantiq va hayot tajribasi chorrahasida paydo bo'lgan ta'limotdir. Psixologik maslahatdan farqli o'laroq, kouching diqqatni mijozning mustaqil pozitsiyasiga yo'naltiradi. "Coaching "inglizcha" coaching" so'zining transliteratsiyasi bo'lib, u ustozlik qilish, tayyorgarlik ko'rish, mashq qilish degan ma'noni anglatadi[2]. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, kouching jarayonini birgalikdagi yutuq sifatida tushunishni eng aniq aks ettiradi. Keng ma'noda kouching - bu odamlarning faoliyati samaradorligini oshirish, ularning potensialini oshkor qilish va samarali amalga oshirish uchun rivojlanishiga hissa qo'shadigan prinsiplar va texnikalar tizimi. Zamonaviy psixologiyasida turli xil maslahat turlari (gestalt, neyrolingvistik dasturlash, an'anaviy psixoterapiya) mavjud bo'lib, olimlar R. Dils[3], N.Yarosh[4], D.Uitmor, O. Smolenskiy[5]larning fikricha, ishbilarmonlik doiralari aslida yuqorida keltirilgan maslahat turlarining kouching maslahatidan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Bugungi kunda aholiga, ayniqsa yoshlarga sifatli psixologik xizmat ko'rsatish, psixologik xizmat faoliyatini boshqarishni muvofiqlashtirish, ta'lim muassasalari bilan profilaktika inspektorlari va jamoat vakillari o'rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, psixologiya maktabini rivojlantirish hamda oliy ta'limda tor ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish, psixologik markazlar tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarorining 9-bandida "xorijiy tajribadan kelib chiqib, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish" vazifasi belgilanib olingan[6]. Afsuski, mamlakatimizda hozirgacha kouching va boshqa turdagi amaliyo psixologik yordam amaliyotlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni empirik darajada o'rganish va tahlil qilish borasida juda kam ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan.

Kouchingga to'xtashni istamaydigan, oldinga intilayotgan va yangi marralar sari intilayotgan, muvaffaqiyatga erishish uchun har qancha harakat qilishga tayyor kishilar tashrif buyurishadi. Kouching muvaffaqiyat bunga tayyor bo'lganlarga yana bir bor ishonch hosil qilish imkoniyatini beradi. Kouchingning maqsadi mijozning salohiyatini ochish, unga shaxsiy rivojlanishda yangi ufqlarni ko'rsatish, ishonchni kuchaytirishdir. Kouching - bu ko'rsatmalar va tavsiyalar emas, maslahatlashuvlar va munozaralar emas, balki rag'batlantiruvchi suhbat, fikrlash jarayonini rag'batlantirish, mijozga o'z niyatlarini aniqlash, tanlov qilish va maqsadlariga samarali erishish imkonini beradi. Kouchingni psixoterapiya deb ham hisoblash mumkin emas. Psixoterapiya birinchi navbatda mijozning



muammolarini hal qilishda yordam berishga qaratilgan, kouching esa optimal yechimlarni birgalikda izlashni o'z ichiga oladi va maqsadlarga samarali erishishga yordam beradi. Murabbiylik yondashuvi terapevtik emas, bu har bir inson dastlab o'zi uchun qo'yilgan maqsadlarga erishishga qodir ekanligidan kelib chiqadi. Ularning har biri o'z maqsadlari, ularga erishish yo'llarini tanlash va amalga oshirish uchun javobgardir. Kouchingning vazifasi - bu shaxsni rivojlantirishga va munosib, jonli hayot bilan ta'minlashga yordam berish. Inson o'z hayotining yaratuvchisi sifatida qabul qilinadi. Kouching bo'yicha maslahatchi har kimga birinchi navbatda ichki resurslariga murojaat qilish va ulardan qanday qilib to'g'ri foydalanishni o'rganish imkoniyatini beradi. Bilamizki, "insonga kerak bo'lgan hamma narsa o'zidadir" va kelajakdagi kasbda individual qobiliyatlardan qanday qilib oqilona foydalanish mumkinligini ko'rsatish kerak. Boshqacha qilib aytganda, kouching insonning zarur maqsadlar sari harakatini osonlashtiradi va optimallashtiradi. Avvalo, bu hamkorlik, bu jarayonning har bir ishtirokchisiga rivojlanish imkoniyatini beradi. Maslahatchilarga murojaat qilib, mijoz yanada yetuk munosabatni va hayotidagi o'zgarishlarga bo'lgan intilishni namoyish etadi. Psixologga murojaat qilishning o'zi allaqachon inson bu o'zgarishlarga tayyorligini bildiradi va u bu o'zgarishlarning mulohazali va psixologik jihatdan barkamol bo'lishini xohlaydi. Psixolog va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning direktiv modeli tibbiy amaliyotdan olingan. Psixolog ko'proq o'z sohasining mutaxassisi bo'lgan shifokor kabi qabul qilinadi. Biroq, psixolog - hatto eng tajribali ham - hayotingizda mutaxassis bo'lishi mumkin emas. Shu munosabat bilan qarama - qarshilik paydo bo'ladi, bir tomondan maslahatchi mijozning pozitsiyasidan uning muammolaridan uzoqlashgan holda qabul qilinadi, boshqa tomondan-psixolog-maslahatchi o'z mijozni bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatadi, mijozga uning muammolarini yengishga va hayotdagi to'siqlarni yengishga yordam beradi. Shuning uchun, hatto maslahat berishning direktiv modeli doirasida ham psixolog o'z mijozni uchun eng samarali yechimlarni topish uchun sherikka aylanadi[7]. Albatta, bunday bo'linish juda shartli, ammo bu amaliy psixolog ishidagi yo'nalishni, tendensiyani tasavvur qilishga va sizga va sizning so'rovingizga eng mos uslubni tanlashga imkon beradi. Direktiv modelning afzalliklari aniq: biz mutaxassisga murojaat qilishga odatlanganmiz, muammolarimizni hal qilish uchun javobgarlikni unga yuklaymiz. Buning evaziga biz uning barcha tavsiyalariga amal qilishga va shartnoma shartlariga rioya qilishga tayyormiz. Direktiv bo'lmagan yondashuv jozibali, chunki psixolog va mijoz o'rtasidagi munosabatlar har bir insonning o'ziga xosligini ishonch va tan olishga asoslangan. Direktiv bo'lmagan yoki fenomenologik yo'nalishning asosi shundaki, inson o'z haqiqatini yaratadi va o'z qarorlari uchun javobgardir. Bu holda psixologning vazifasi tanlov va o'zgarish uchun sharoit yaratishdir. Albatta, shu nuqtai nazardan, konsalting xizmatlarining zamonaviy va dinamik turlaridan biri sifatida kouching direktiv bo'lmagan yo'nalishga bog'liq bo'lishi mumkin. Kouching, avvalambor, mijozning o'zi tomonidan faol pozitsiyani, o'z hayotini o'zgartirish, yangi qiziqarli maqsadlarni belgilash va ularga erishish istagi va istagini nazarda tutadi. Kouching bo'yicha maslahatchining yordami mijozning hayotiy tajribasini ijodiy qayta ko'rib chiqish, individual

xususiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishning samarali usullarini topish uchun dialog maydonini yaratishdir. Bunday holda, maslahatchi o'z mijoziga hech narsa yuklay olmaydi yoki tayyor retseptlarni taklif qila olmaydi. Aynan qo'shma qidiruv ijodiy muhit yaratadi va ichki resurslarni, kouching jarayoni ishtirokchilarining ichki salohiyatini faollashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, kouching mijoz tomonidan yetuk pozitsiyani yegallaydi va unga psixologik jihatdan yanada malakali hayot tarzini yaratishga yordam beradi. Ushbu lavozim ko'pincha "o'z hayotingizning direktori bo'lish" qobiliyati deb nomlanadi. Kouch tayyor yechimlarni taklif qilmaydi va o'z tajribasi bilan o'rtoqlashmaydi, balki odamga maqsadga erishish uchun yechimlar va zarur resurslarni qanday topishni o'rganishga yordam beradi. V.Plavilshchikov[8], O.Smolyanskiy[5], N.Yarosh[4]larning kouching haqidagi ilmiy yondashuvlarni tahlil qilib, kouchingni shaxslarning potensialini maksimal darajada oshkor qilishni targ'ib qilish jarayoni sifatida aniqlash mumkin. Kouchingning maqsadi insonning muayyan o'zgarishi, uning xulq-atvori, fikrlashi, motivatsiyasidagi o'zgarishlarga erishishdir. psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, odamlar kouchingga murojaat qilishadi, chunki ular yaxshiroq yashashni: o'zlarini anglash, biznes va oila o'rtasidagi muvozanat va uyg'unlikka erishish, shaxsiy ishlari va bizneslarini tartibga solish, oddiy narsalardan zavqlanishni boshlash xohlashadi. Shuningdek, odamlar o'zlarini tartibga solish, hayotdagi yoki biznesdagi muammolardan xalos bo'lish, tartibsizlik va moliyaviy qiyinchiliklardan xalos bo'lish, "o'rta yoshdagi inqiroz" dan omon qolish, oilaviy munosabatlarni o'rnatish istagi bilan kouchingga murojaat qilishadi.

#### **XULOSA**

Kouchingda murabbiy uchun ham, maslahatchi uchun ham muvaffaqiyat kaliti mijoz shaxsi va shaxsiy muammolarni sinchkovlik bilan o'rganishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Андрюхина Л.М. Коучинг высокой эффективности в профессиональнопедагогическом образовании//Инновации в профессиональном и профессиональнопедагогическом образовании: материалы 22-й Междунар. науч.-практ. конф. 2017. С. 312-316.

2. Борисова О.Н. Психолого-педагогические аспекты консультирования как вида профессиональной деятельности // Вестн. Твер. гос. ун-та. Сер. «Педагогика и психология». 2008. №13 (73). С.80-85.

3. Дарибаева Р.Д., Толегенова К.К., Толегенова С.С. Научно-теоретические основы использования коучинговой технологий в социальной работе // Молодой ученый. 2016. № 9 (113). С. 1101-1103.

4. Мороз М.В. Коучинг как технология подготовки будущих социальных работников в вузе // // Вестн. Твер. гос. ун-та. Сер. «Педагогика и психология». 2017. №4. С. 201-204.

5. Основы коучинга: учеб.пособие / Т. А. Никитина, М. А. Шаталина. Самара: Самар. гос. пед. ун-т, 2007. 184 с.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 472-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4367731>

7. Попова Е.В. Академическое консультирование как вид сопровождения студентов в современном университете // Вестн. Омск. юр. ин-та. 2011. №2 (15). С.91-93.

8. Шекшня С.В. Как эффективно управлять свободными людьми [Электронный ресурс]: коучинг. Электрон. текстовые данные. М. : Альпина Паблишер, 2016. 206 с. URL: <http://www.iprbookshop.ru/43654.htm>

## GENDER ROLLARI

**Asadova Mehrangiz Ilxomovna**

*Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti*

**Annotasiya:** *Maqolada fanda gender psixologiyasi sohasini yuzaga kelishiga turtki bo'lgan turli tarixiy omillar va uning fan sifatida yuzaga kelish tarixi haqida so'z boradi. Shuningdek bugungi kunga qadar sohada olib borilgan turli tadqiqotlar va olimlarning ilmiy farazlari yoritiladi. Bugungi kundagi gender psixologiyasi, gender rollari doirasidagi tadqiqotlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zi:** *Gender, jinsiy differentsiatsiya, stratifikatsiya, ierarxizatsiya, diskriminatsiya, feminizm, jinsiy rollar, gender stereotiplar, agressivlik xususiyatlari.*

### KIRISH

XXI asrga kelib gender munosabatlarni tadqiq etish asta-sekin barcha gumanitar va ijtimoiy fanlarning bir qismiga aylanib bormoqda, shu o'rinda psixologiya sohasi xam bu jarayonda yetakchi o'rinlardan birini egallab ulgurgan. Sababi ayollar va erkaklar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish ijtimoiy-psixologik hodisalarning kuchli qatlamiga ta'sir etmay qolmaydi. Bugungi kunga kelib gender psixologik muammolar nafaqat oila yoki ayollarning jamiyatdagi mavqei bilan chegaralanadi, balki ular barcha ijtimoiy muammolar bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va ma'rifiy sohalarini bilan bog'liq. Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga, balki bu munosabatlarning subyektlari psixologiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bugungi zamonaviy jamiyatdagi an'anaviy rollarning o'zgarishi, erkaklar va ayollar normativ standartlari qayta qurilishi sabab zamonaviy erkaklar va ayollarning intellektual va psixologik xususiyatlari, o'zaro munosabatlarning turlari va modellari chuqur ilmiy tahlil va tadqiqotlarni o'tkazishni talab etib kelmoqda. Shu sababli mazkur maqola shaxs gender-psixologik xususiyatlari muammosining tadqiq etilishi bugungi kunda ahamiyati jihatidan dolzarb hisoblanadi.

### ASOSIY QISM

Gender psixologiyasi - jinsiy differentsiatsiya, stratifikatsiya va ierarxizatsiya tufayli shaxsning xususiyatlarini ma'lum bir jins vakili sifatida shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining bir bo'limi hisoblanadi. Jinslar psixologiyasidan farqli o'laroq, gender psixologiyasida nafaqat erkak va ayollarning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi, balki uning diqqat markazida birinchi navbatda jinsiy farqlanish, tabaqalanish va ierarxizatsiya hodisalari tufayli kelib chiqadigan shaxsiy rivojlanish qonuniyatlari turadi. Shuningdek ayol va erkaklar uchun o'z-o'zini anglash jarayonlariga ta'sir etuvchi gender omillarning ahamiyatini tushunish va ularndan foydalanish imkonini beruvchi psixologik usul va mexanizmlarni tahlil qilish xam muhimdir.

Jins psixologiyasida gender psixologiyasidan biroz farqli yondashuv mavjud bo'lib, unda ayol va erkak rollari mazmunan har xil bo'lsada, ekvivalent deb e'tirof etiladi. Dastlabki asos-insondagi erkak yoki ayollik rollarining biologik determinizmini qabul qilishdir. Jinsiy farqlarning determinantlarini tahlil qilishda biologik va ijtimoiy-madaniy omillar hisobga olinadi, ammo ijtimoiy-madaniy ta'sirning roli tabiatan oldindan belgilangan shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, xarakter xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Gender psixologiyasida jinsiy farqlanish muammolarini tahlil qilishda erkaklar va ayollarning rollari, maqomlari, pozitsiyalari ierarxiyasiga e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy tengsizlik va diskriminatsiya masalalari faol muhokama qilinadi. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini belgilashda ijtimoiy-madaniy omillarga ustuvorlik beriladi. Gender psixologiyasi tarixini shartli ravishda 5 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Falsafa yo'nalishidagi g'oyalarni ishlab chiqish davri (antik davrdan XIX asr oxirigacha);
2. Gender psixologiyasining predmeti va bo'limlarining shakllanishi (XIX asr oxiri XX asr boshlari)
3. Freyd va psixoanaliz bosqichi (XX asr boshlari-1930 yillar)
4. Keng eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va birinchi nazariyalarning paydo bo'lish bosqichi (1950-1980 yillar)
5. Gender psixologiyasining jadal rivojlanishi: eksperimental tadqiqotlarning kuchayishi, empirik dalillarni nazariy tushunish, gender masalalarini o'rganish uchun ma'lum usul va metodlarni moslashtirish va muayyan gender usullarini yaratish (1990-yillardan hozirgacha)

Gender roli yoki jinsiy rol - bu shaxsning jinsiga qarab, ya'ni ayollarga, erkaklarga yoki boshqa jinsga tegishli bo'lgan maqbul, mos yoki munosib deb hisoblangan xatti-harakatlar va munosabatlarni belgilaydigan ijtimoiy normalar jamlanmasi. Gender rollari asosan erkaklik va ayollik tushunchalariga qaratiladi. Shaxsning xulq-atvori va gender roli o'rtasidagi nomuvofiqlik gender nomuvofiqligi deb ataladi. Turli madaniyatlarda gender rollarining soni va o'ziga xos mazmuni sezilarli darajada farq qiladi, ammo madaniyatlaro o'xshashliklar ham mavjud.

Fanda gender rollari va ularning xilma-xilligi biologik tomonidan qay darajada aniqlanishi va jamiyat tomonidan qay darajada qabul qilinganligi haqida yagona nuqtai nazar yo'q. Gender rollari kelib chiqishi jihatidan qat'iy biologik nazariyalar, xususan, evolyutsion psixologiya, empirik ma'lumotlar orqali qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin insonning keng doiradagi xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Masalan, shaxsning tanlagan kiyimi, kasbi, narsalarga yondashuv uslubi, shaxsiy munosabatlar hamda ushbu munosabatlarda o'zini qanday tutishi hisobga olinadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, gender rivojlanishiga nafaqat biologik, balki kognitiv va ijtimoiy omillar ham ta'sir qiladi. Gender roli atamasi keng tushuncha bo'lishiga qaramay, an'anaviy tarzda ayollarni xususiy sohada, erkaklarni esa ijtimoiy sohada ushlab turadi. Ba'zan turli guruhlar,

ayniqsa feministik harakatlar o'zlari zulmkor va zo'rvonlik deb hisoblaydigan gender rollari aspektlarini o'zgartirishga harakat qilishadi.

Gender tushunchasi inson ijtimoiy hayotining muhim kategoriyalaridan biriga aylanib qoldi. Jamiyatning bir jins vakillari uchun, xulq-atvor me'yorlari va qoidalarining o'ziga xos yig'indisi boshqa jinsga qo'yiladigan talablardan farq qiladi.

Jamiyatda madaniyat erkaklar va ayollarga turli qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor normalarini o'rgatib boradi va ularning buzilishini ma'qullamaydi. Jamiyatning turli xil ko'rinishlarida gender tushunchalari farqlanadi, lekin ko'pincha bu tizimlar assimetrik bo'lib, hamma narsa "erkaklik" (xarakter xususiyatlari, xatti-harakatlari, kasblari va boshqalar) asosiy, muhim va dominant hamda hamma narsa "ayollik" — ikkilamchi, ijtimoiy ahamiyatsiz va bo'ysunuvchi deb ta'riflanadi.

Erkaklar va ayollar uchun kutilgan xatti-harakatlar (yoki me'yorlar) majmui, shuningdek, erkak va ayol sifatida qabul qilinadigan faoliyat, vazifalar va mas'uliyatni belgilovchi o'rganilgan xatti-harakatlar gender rollari deb ataladi. Ular shaxsda jamiyat va madaniyat ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Gender rollari xilma-xil bo'lib, ularning mazmuni jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgaradi. Har bir inson xotin, opa-singil, ona, tadbirkor ayol yoki ota, er, do'st, faxriy talaba va hokazolar kabi turli xil rollarni bajarib keladi. Ko'p rollarni bajarish insonning psixologik farovonligiga hissa qo'shishi haqida dalillar mavjud. Rollar yoki rollarning tarkibiy qismlari bir-biriga zid bo'lishi mumkin, bu holda ular rol ziddiyatini keltirib chiqaradi. Gender stereotiplarini gender rollaridan - erkaklar va ayollarning o'zini qanday tutishi haqidagi jamiyatda shakllangan umumlashtirilgan g'oyalar (e'tiqodlar) dan farqlanishi kerak.

Buning uchun erkak va ayolni turli yo'llar bilan tasvirlaydigan maxsus atamalar va so'zlar mavjud bo'lib, barchasi alohida aks ettirilgan jamoat ongining namoyon bo'lish shakllari - stereotiplarni mujassam etadi. An'anaga ko'ra, stereotip so'zi ma'lum bir sxema sifatida tushuniladi, uning asosida axborotni idrok etish va baholash amalga oshiriladi. Ushbu sxema ma'lum bir hodisani, obyektini umumlashtirish funksiyasini bajaradi. Odatda uning yordami bilan inson harakat qiladi hodisalarni baholaydi yoki o'ylamasdan avtomatik ravishda harakat qiladi.

Ijtimoiy stereotip tushunchasi shaxsning qobiliyatini bildiradi. Atrofdagi dunyoni umumlashtirilgan tarzda baholash, ijobiy xulosalar va tanqidiy xulosalar chiqarishga, uning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy stereotiplarning ijobiy tomoni shundan iboratki, ma'lumot yetishmasligi yoki davom etayotgan o'zgarishlar va sharoitlarda tezda harakat qilishni o'rgatadi

XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib ko'pgina jamiyatlarda keng miqyosda ayollarga bo'lgan munosabat o'zgacha tus ola boshladi. Aynan mana shu davrni gender psixologiyasining predmeti va tabiiy asoslarining shakllanish davri deb belgilash mumkin. Bu harakatlar XIX asrning birinchi yarmida fransuz tilida paydo bo'lgan Feminizm tushunchasi (lot.dan femina-ayol) bilan bog'liq edi. Feminizmi -ijtimoiy-siyosiy harakat bo'lib, uning maqsadi ayollarni to'liq fuqarolik huquqlari bilan ta'minlashdir. Keng ma'noda, jamiyatning

barcha sohalarida erkaklar bilan ayollarning teng huquqli bo'lishiga intilishdir. Tor ma'noda, bu ayollar harakati bo'lib, uning maqsadi ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish va ularning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirishdir. Feminizm tushunchasi bilan birgalikda 1830-yilda yana bir atama paydo bo'ldi "ayollar emansipatsiyasi" ya'ni "ozod qilingan ayollar". Ayollar ham, erkaklar ham bu ijtimoiy harakatning ishtirokchilariga aylandilar. Bu harakatlar mazmunan xotin-qizlarni erkaklar bilan teng huquqli bo'lishlari ya'ni saylov, iqtisodiy (jamoat ishlab chiqarishida ishtirok etish), ta'lim olish va jinsiy erkinliklar bilan ta'minlashdan iborat edi.

Shunday qilib, ularning tadqiqotlarining umumlashtiruvchi asosiy natijasida shu ma'lum bo'ldiki turli jins vakillarining o'zaro gender o'xshashliklari gender farqlariga qaraganda ancha ahamiyatliroqdir. Ya'ni bu tahlillar shu kunga qadar ma'lum bo'lgan gender stereotiplarni rad etib ayol va erkaklarning gender jihatdan o'xshashliklari ularning o'zaro farqlariga nisbatan katta ekandigini isbotladi. Bu esa jinslararo turli sohalaridagi shu bilan jamiyatdagi umumiy rollar va maqomlarni va faoliyatlarini tabaqalanishini keskin qoralovchi fakt sifatida anglash mumkin edi. Makkobi va Jaklin tomonidan yaratilgan kitob gender psixologiyasi sohasidagi klassik adabiyot sifatida qabul qilingani va ko'pgina iqtiboslar keltirishiga qaramay, kitobning eng muhim jihatlaridan biri olimlarning bergan umumiy xulosalari emas balki ular tomonidan keltirilgan gender tahlil natijalari yuzasidan keltirilgan istisnolar hisoblanadi. Ular asosan quyidagi jihatlarda: nutqda va matematik qobiliyatlarda fazoviy idrok yetish qobiliyatlari va agressivlik xususiyatlarida o'z aksini topadi.

#### **XULOSA**

Fikrimizcha gender nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish mavhum bo'lgan ko'pgina masalalarga oydinlik kiritishi, shuningdek, zamonaviy fanda gender psixologiyasining muammolari va istiqbollari aniqlashning imkonini berishi mumkin. Gender psixologiyasi yo'nalishining paydo bo'lishi psixologiyada jinsga xos masalalarning rivojlanishidagi tabiiy bosqich hisoblanib, psixologik tafakkur taraqqiyotining butun avvalgi tarixi asosida yuzaga kelgan. Jinslar psixologiyasidan farqli o'laroq, gender psixologiyasida nafaqat erkak va ayollarning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etiladi, balki uning diqqat markazida birinchi navbatta jinsiy farqlanish, tabaqalanish va ierarxizatsiya hodisalari tufayli kelib chiqadigan shaxsiy rivojlanish qonuniyatlari turadi. Shuningdek ayol va erkaklar uchun o'z-o'zini anglash jarayonlariga ta'sir etuvchi gender omillarni ahamiyatini tushunish va ularndan foydalanish imkonini beruvchi psixologik usul va mexanizmlarning tahlil qilish xam muhimdir. Demak gender psixologiyasi jins psixologiyasidan farqli tarzda nafaqat shaxsni tashkil etuvchi biologik detirminantlarga balki ularning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillarning ta'sirini xam hisobga oladi. Shuningdek ayol va erkaklar psixologiyasida xam ijtimoiy ta'sirlarning, ijtimoiy -madaniy omillarning ularning jinsiy taraqqiyotidagi ahamiyatini chetlab o'tmaydi. Aksincha o'z o'zini jinsiy identifikatsiya qilishning asosiy shartlari sifatida bu omillarni qabul qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Дусказиева Ж.Г. Д 847 Гендерная психология: учебное пособие / Ж.Г. Дусказиева; Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск, 2010. – 108 с.
2. Бендас Т. В. Гендерная психология: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 431 с: ил. — (Серия «Учебное пособие»). С – 9
5. Актуальные проблемы гендерной психологии : курс лекций /Л.Г. Степанова. - Минск : БГПУ, 2009. - 8 с 1  
Hoffman, M., Gneezy, U., and List, J. Nurture affects gender differences in spatial abilities (англ.). Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America (6 September 2011). Мурожат этилган сана 27август 2021.  
2 Pappas, S. Culture Drives Gender Gap in Spatial Abilities, Study Finds (англ.). Live Science (29 August 2011). Мурожат этилган сана 27августа 2021.  
3 Bjorkqvist, K. Sex differences in physical, verbal, and indirect aggression: A review of recent research // Sex Roles. — 1994. — № 30- С. 177—188. № 3, 2021 “PSIXOLOGIYA”ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙЖУРНАЛ \* SCIENTIFIC JOURNAL 56
6. Maccoby, E., and Jacklin, C. The Psychology of Sex Differences. — Stanford University Press, 1974. — ISBN 9780804708593
7. Hyde, J. S. The Gender Similarities Hypothesis : [англ.] // American Psychologist. — 2005. — Vol. 60, no. 6. — P. 581–592. — doi:10.1037/0003-066X.60.6.581. — PMID 16173891



## PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

**Abduraxmonov Saxob Yuldashevich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. Pedagogik tadqiqotni tashkil etish, dalillarni aniqlash, baholash, tahminiy xulosa chiqarish, nazariy umumlashtirish metodikasi pedagogik tadqiqotda asosiy me'zon ekanligi ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, fan, tajriba, tadqiqot, pedagogika, tahlil, eksperimental, tadqiqotchi, muammo, nazariya, fakt, kategoriya.*

**Abstract:** *This article discusses the specific features of pedagogical research and the stages of its organization. It has been revealed that the methodology of organizing pedagogical research, identifying evidence, evaluating, drawing approximate conclusions, and theoretical generalization is the main criterion in pedagogical research.*

**Key words:** *education, science, experience, research, pedagogy, analysis, experimental, researcher, problem, theory, fact, category.*

### KIRISH

Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bugungi kunda ta'limning asosiy amaliy maqsadlarini hal etishga qaratilgan ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini topishning juda muhim vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir fan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy tajribalar asosida rivojlanadi. O'ziga xos tadqiqot ob'ekti, predmetidan kelib chiqadigan ilmiy tadqiqot usuliga ega. Tabiiy fanlarda tajriba ustuvorligi, gumanitar fanlarda tafakkur eksperimenti ustuvorligi amal qiladi

### ASOSIY QISM

Ma'lumki, tadqiqot yangi fundamental va amaliy bilimlar yaratish, asoslash, obyektiv ilmiy faoliyat jarayoni tadqiqot predmeti voqea hodisalarni qonuniyatlarini aniqlashdir. Har qanday tadqiqotda, avvalo dalillar aniqlanadi va u asosida nazariy qolidalar shakllanadi. Tadqiqotchining metodologik yondoshuvi, uning dunyoqarashi, maqsad vazifalarni qo'yishi, hayotiy misollar, dalillarni tahlil qilishi va xulosa chiqarishga bog'liq. Shuning uchun tadqiqotni tashkil etish, dalillarni aniqlash, baholash, tahminiy xulosa chiqarish, nazariy umumlashtirish metodikasi pedagogik tadqiqotda o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni, har bir fandagi singari pedagogik tadqiqotning boshlanishi umummetodologik va fanning nazariyasidan kelib chiqadi. Har qanday yangi nazariya oldin yaratilgan fanning fundamental ta'limoti asosida rivojlanadi. Pedagogik tadqiqotlar juda xilma-xil va ko'p funktsiyali bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish shuningdek, pedagogik muammolarni hal qilishda ushbu pedagogik o'ziga xoslik ta'lim tashkiloti va jamiyatning o'qituvchi-tadqiqotchiga bo'lgan hozirgi ehtiyoji va bu borada uning kasbiy tayyorgarligini

oshirish zarurligini e'tirof etmoqda. Bu jarayonda asosiy e'tibor tarixiy yoki falsafiy yo'nalishga ham, uslubiy yoki psixologik jihatga ham berilishi mumkin. Biroq, ta'lim jarayoni va ta'lim muassasalarining faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq deyarli barcha tadqiqotlar murakkab psixologik-pedagogik, ba'zan esa ijtimoiy va psixologik-pedagogik xususiyatga ega. Pedagogik tushunchalardan aniq foydalanishi ilmiy tadqiqotning muhim shartidir. Pedagogik tushunchalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ilmiy tushunchalar oddiy, umumiy tilga yaqin. Pedagogik ishlanmalar keng ommaga, o'qituvchilar, tarbiyachillar, otionalarga tushunarli bo'ladi. Tushuncha va iboralarni to'g'ri qo'llash fikrni maqsadli, tushunarli bayon qilish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlar bir necha bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- dastlab tadqiqot muammosi va maqsadini aniqlash;
- mavjud ma'lumotlarni zamonaviy nazariyadagi kabi nazariy tahlil qilish;

Ekspirimental ishning bosqichlari muammoning dolzarbligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ekspirimental va nazorat guruhlarining birlamchi tashxisi bo'lgan eksperimentni aniqlash, shakllantiruvchi eksperiment, undan so'ng yakuniy tashxis qo'yiladi va diagnostik eksperiment, ya'ni formativ eksperiment davomida olingan natijalarni har tomonlama tahlil qilinadi. Hozirgi bosqichdagi pedagogika muammolari va jihatlarini o'rganib, pedagogika taraqqiyotining tarixiy tadqiqotlarning asosiy metodologik tamoyillarini shakllantirish mumkin. Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Amaliyotga asoslanmagan nazariya samarasiz bo'lib chiqadi, ilmiy nazariya tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan amaliyot esa o'z-o'zidan muvaffaqiyatli natija bermaydi. O'quv jarayonini samarali takomillashtirish uchun bo'lajak mutaxassislarining amaliyotini har tomonlama ilmiy tahlil qilish zarur. Shuning uchun amaliyotning rivojlanishi va tadqiqot usullarini tanlash ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqotlar olib borish davomida natijalar haqida hisobot berish talab qilinadi. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish lozimdir. Hozirgi bosqichdagi pedagogika muammolari va pedagogika taraqqiyotining tarixiy jihatlarini o'rganib, pedagogik tadqiqotlarning asosiy metodologik tamoyillarini shakllantirish mumkin.

O'rganilayotgan muammoga ijodiy, konkret-tarixiy yondashish. Oldingi tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, u yoki bu bilim sohasini ishlab chiqilgan qoliplarga amal qilgan holda, ijodkorliksiz har tomonlama o'rganish mumkin emasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Tadqiqotchi paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda zukko bo'lishi kerak. O'rganish jarayonida yangi hodisalar, faktlar uchun o'z tushuntirishlarini izlash, o'rnatilgan qarashlarni o'z ichiga olish va konkretlashtirishga harakat qilish lozim. Biroq, bu zukkolikni ehtiyotkorlik bilan qo'llash, dalillar ilmiy va uzoqni ko'rish bilan mahorat bilan uyg'unlashtirish kerak, chunki bunday izlanishlar insonni ma'naviy jihatdan boyitishi kerak va zaruriy ehtiyotkorlik pedagogik tadqiqotlarda yordam berishi kerak. Pedagogik jarayon va hodisalarni har tomonlama o'rganish tamoyili. Pedagogik hodisalarning har biri, u yoki bu tarzda, boshqa hodisalar bilan bog'liq, shuning uchun uni bir tomonlama va alohida ko'rib chiqishga urinish mutlaqo noto'g'ri. Oxir oqibat, bunday yondashuv tadqiqotimizni

noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Komplekslikning metodologik printsiplari pedagogik jarayon va hodisalarni o'rganishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan yondashuv o'rganilayotgan hodisaning barcha munosabatlarini o'rnatishni talab qiladi, bu unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yoki ta'sir qiladigan tashqi omillarning zaruriy tahlilini o'z ichiga olishi kerak. Tarixiylik va mantiqiylikning birligi. O'rganilayotgan obyektning rivojlanish mantiqining shakllanishining butun tarixini kuzatmasdan turib, uni mantiqiy bilish mumkin emas. Shaxsni rivojlantirish jarayoni bizga ma'lum bir shaxsni tushunish kalitini topishga, uning tarbiyasi va ta'limi bo'yicha muayyan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning yana bir muhim talabi tadqiqot olib borishda turli usullarni ularning turli kombinatsiyalarida qo'llash zarurligini tan olishdir. Falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik fanlaridagi yutuqlar pedagogika sohasidagi tadqiqotlar uchun asosiy asos bo'lishi kerak. Bular pedagogik tadqiqotlar uchun eng umumiy metodologik talablardir. Ushbu tadqiqotda dialektikaning qonuniyatlari va kategoriyalari, eng avvalo, qandaydir umuminsoniy tamoyillar sifatida hisobga olinadi. Ushbu umumiy tamoyillardan asos sifatida foydalanib, yanada aniqroq fundamental talablar shakllantirildi, ular, albatta, pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan hisobga olinadi. Tashqi ta'sirlar va ichki sharoitlarning birligi printsiplari. Bu tamoyil shaxsning xatti-harakati va harakatlarining tashqi ma'lumotlarini baholash natijasida yuzaga keladigan ichki mazmunni bilish jarayoniga qaratilgan. Shunday qilib, yuqorida muhokama qilingan tamoyillarni tahlil qilib, biz pedagogik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan aniq uslubiy talablarni shakllantirishimiz mumkin.

### **XULOSA**

Bu tadqiqotlarda shaxsning sog'lom aqliy va jismoniy rivojlanishi vazifalari, ijodiy o'sish imkoniyatlari, o'quvchida qadriyat yo'nalishlari va motivatsiyasi, sezgi, axloqiy ko'rsatmalarni shakllantirish birinchi o'ringa chiqadi. Tadqiqot tashqi va ichki omillarning pedagogik jarayonga ta'sirini kuzatishni o'z ichiga olishi kerak. Lekin shu bilan birga, markazida pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlar turadigan pedagogik tadqiqotlar o'zining o'ziga xosligini saqlab qolishi kerak. Globallashuv jarayonida tadqiqotchi jahon fani yutuqlaridan xabardor bo'lishi, inshonshunoslik borasida tadqiqotlarni tahliliy va tanqidiy o'rganish shart. Bizning asrimiz fanlarning tutash bandida yangi fanlar, tadqiqotlar yaratilishi bilan xarakterli. Pedagogik tadqiqot samarasi, mukammalligi insonni o'rganadigan fanlar yutug'idan foydalanilganiga bog'liq. Demak, tadqiqotni boshlanishida, pedagogik dalillarni ilmiy obyektiv baholash, ilmiy tahlil etish, maqsad va vazifalarini belgilash, fanning nazariy asosini bilish, falsafiy qonun va kategoriyalar asosida ta'lim-tarbiya voqeeligini baholash, jahon ilmiy fan yutuqlaridan maqsadli foydalanish, fanlarning tutash qonuniyatlari, imkoniyatlarini bilish ilmiy faoliyatga yo'llanmadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Choriyev A, Choriyev N "Pedagogika tarixi metodologiyasi" Toshkent:, "Fan", 2010.
2. Choriev A, Choriev "Pedagogikaning fanlararo bog'liqlik metodologiyasi" Toshkent:, "Fan", 2011
3. Kraevskiy V.V. Pedagogika metodologiyasida paradigma muammosi / Sat. "Pedagogikaning zamonaviy muammolari: fan paradigmasi va ta'limni rivojlantirish tendentsiyalari: Butunrossiya uslubiy konferentsiya materiallari - SPb. Piter 2004 yil.
4. Obratsov P.I. Psixologik-pedagogik tadqiqot usullari va metodologiyasi – 4. Pedagogika o`qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish fanlar [Elektron resurs] <http://ntfmfkonf.ucoz.ru>
5. Slastenin V., Isaev I. va boshqalar Pedagogika: Darslik [Elektron resurs] <http://www.gumer.info>
6. [Elektron resurs] <http://www.kalitva.ru/133371-kontrol-i-ocenka-usvoeniya-znanij.htm>

## AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARI

Raximov Akmal Naimovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning maqsadi, imkoniyatlari, pedagogik shartlari va omillari ko'rib chiqilgan. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli va uni amalga oshirish zamonaviy usullari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *akmeologik yondashuv, kreativ kompetentlik, pedagogik model, pedagogik usullar, o'zini-o'zi tarbiyalab rivojlantirish dasturi.*

**Abstract:** *This article examines the purpose, possibilities, pedagogical conditions and factors of developing the creative competence of future teachers based on the acmeological approach. Based on the acmeological approach, the pedagogical model of developing the creative competence of future teachers and the modern methods of its implementation are highlighted.*

**Key words:** *acmeological approach, creative competence, pedagogical model, pedagogical methods, self-education and development program.*

### KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi[1]. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konsepsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim. Birinchi marta "akmeologiya" tushunchasi 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan rivojlanish psixologiyasining maxsus bo'limi-yetuklik yoki balog'at psixologiyasini belgilash uchun kiritilgan. Bugungi kunda pedagogik akmeologiyaning vazifalari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- pedagogning insonparvarlik yondashuvi asosida alohida o'quv fanlari orqali talabalar shaxsini rivojlantirishga, kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatning keyingi bosqichlariga tayyorlashda ularning motivlari,

qadriyat yoʻnalishlari, maqsadlarini hisobga olgan holda oʻz faoliyatining usul va vositalarini tanlashiga yordam beradi;

- pedagog shaxsi va faoliyatining darajalari va bosqichlarini, bir professionallik darajasidan ikkinchisiga oʻtishning akmeologik texnologiyalarini ochib beradi;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish va oʻsish trayektoriyasini (akmeogramma) pedagog tomonidan individual ravishda tanlagan kasbiy mahoratga erishish yoʻllari, shuningdek, pedagog shaxsiyatining kasbiy deformatsiyasini (emotsional “yonish” va charchoq va boshqalar) bartaraf etish usullarini belgilaydi.

### **ASOSIY QISM**

Akmeologik yondashuvning nazariy va uslubiy asoslarini yaratishda A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Rean, B.G.Ananev, V.N.Tarasova, S.N.Tolstov, N.V.Kuxarev, G.I.Xozainov, O.S.Anisimov kabi olimlarning hissasi kattadir. Akmeologik yondashuvning umumiy uslubiy tamoyillari orasida olimlar (determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili, insonparvarlik tamoyili), maxsus metodologik tamoyillar (subyekt faoliyati tamoyili, hayot faoliyati tamoyili, potensialni aktualikka oʻtkazish tamoyili, modellashtirish tamoyili, optimallik tamoyili, operatsion-texnologik tamoyili, qayta aloqa tamoyili)ni ajratadilar[2].

Taʼlim sohasida akmeologik yondashuvni qoʻllashning asosiy maqsadi - pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining hozirgi darajasini yuqori, optimal darajaga koʻtarishdan iborat. “Ideal-mukammallik” sari boʻlgan bu yoʻl doimiy harakat jarayonida pedagog rivojlanishining real xususiyatlarini takomillashtirishning optimal modeliga tayangan holda amalga oshiriladi. Pedagog rivojlanishning reproduktiv usullari oʻrtasida tanlov qilish orqali nafaqat oʻzini anglaydi, balki u oʻzini sifat jihatidan oʻzgartiradi, psixologik toʻsiqlarni yengadi, hayotiy maqsadlarini qayta koʻrib chiqadi, akmeologik jihatdan muhim fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini izlaydi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning oʻziga xos trayektoriyasini belgilaydi[3]. Boʻlajak oʻqituvchilarni yuqori malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash sifatida tayyorlashda akmeologik yondashuvning taʼlim imkoniyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini akmeologik bilimlar bilan boyitishda;

- akmeologik usullar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatida;

- yetuklik darajasi nuqtayi nazaridan zamonaviy talaba dunyosining “professional” qiyofasini yaratishga imkon beradigan shaxsning kasbiy mahoratining xususiyatlari va boʻlajak oʻqituvchi faoliyati oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilishda;

- akmeologik tahlilni qoʻllashda professionallikka erishishga yordam beradigan yoki unga toʻsqinlik qiladigan qonuniyatlar, mexanizmlar, shartlar va omillarni izlashni oʻz ichiga oladi va ular asosida shaxsni rivojlantirish yoʻllari va usullari va uning professionalligi tanlangan prognozlar tuziladi;

- oliy pedagogik ta'lim sharoitida shaxsning erishilgan shaxsiy va kasbiy rivojlanishi darajasini aniqlash imkonini beradigan tashkiliy-metodik ta'minotga asoslangan umumiy xususiyatlarni tuzishda;

- pedagogik kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga qaratilgan izchil samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanishni loyihalash va amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyatni shakllantirishda;

- bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik ta'lim darajasini oshirishda, bu ularga mustaqil kasbiy va pedagogik faoliyatda doimiy akmeologik rivojlanishni amalga oshirishga imkon beradi (akmeologik savodxonlikdan akmeologik kompetensiyaga va refleksli boshqaruv tipidagi akmeologik madaniyatga erishishgacha)[4].

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning muhim shartlari:

- rivojlanish uchun zarur resurs imkoniyatlarini ta'minlash, ta'lim muassasasida akmeologik muhitni yaratish. Akmeologik muhit - bu samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarini rag'batlantiradigan muassasa yoki tashkilotdagi professional muhit hisoblanadi. Akmeologik muhitning parametr-o'lchovlari - yuqori shaxsiy va kasbiy standartlar, samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish, bunday rivojlanishni, bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida akmeologik motivatsiyani rag'batlantirish va jamoada qulay ijobiy psixologik muhit;

- ta'lim sohasida kasbiy mahoratga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

- pedagogik kasbining jozibali imidjining ijtimoiy nufuzini oshirish;

- shaxsning subyektivlik darajasini oshirish[5].

Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning muhim omillari kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, psixologik to'siqlar va cheklovlar ta'sirini qoplash imkonini beruvchi ko'nikmalardir. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning vazifalari:

1. Kreativ kompetentlik darajasi va o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlanganligini diagnostika qilish.

2. Amaldagi o'qitish texnologiyalari va kreativlikni rivojlantiruvchi eng samarali texnologiyalarni o'zaro taqqoslash hamda intensiv usul va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Professional o'zini-o'zi rivojlantirish dasturlari, modellarni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalarni o'rganish. Ushbu mavzu bo'yicha ishlaydigan o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirish.

4. Muammo bo'yicha ishning asosiy bosqichlarini, yo'nalishlarini, shakllarini aniqlash.

5. O'z-o'zini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, tajribani umumlashtirish.

6. Kasbiy jarayon samaradorligini mustaqil kuzatib borish, o'z-o'zini nazorat qilish.

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, amalga oshirilgan tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik usullar,

uni amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorligi aniqlandi va mazkur pedagogik modelni takomillashtirish yo'llari ko'rsatildi. Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi maqsadli tavsiyalarni beramiz:

- Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil vazifalarning mazmuniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kengroq kiritish;

- Ma'ruza darslar muammoli muloqot ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

- Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni oflayn va onlayn amalga oshirish;

- Talabalarni individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda tyutorlar va professor-o'qituvchilarni ta'lim sifatidagi ma'suliyatini oshirish.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

2. Д.М.Кошман Научно-методические основы акмеологической компетентности будущего учителя: практическое руководство;/ М-во образования Республики Беларусь, Гомельский гос. ун-т им. Ф.Скорины. – Гомель : ГГУ им. Ф. Скорины, 2017.

3. Orinova, N. M. (2021). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 2(9).

4. Арипджанова А. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дис. автореф. – Т.: 2017.

5. O'rinova, N. M., & Yo'ldosheva, D. A. Q. (2022). OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA SAMARALI YO'LLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 97-105.

6. Yo'ldosheva, D. A. (2022, August). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI TA'LIM TIZIMIDA SAMARADORLIKKA ERISHISHNING KAFOLATI. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 6).



## PROFESSIONAL-PEDAGOGIK MADANIYATNING XOSSASI SIFATIDAGI INNOVATIONLIKNING SHAXSIYAT DARAJASIDA NAMOYON BO'LISH TASNIFLARI

**Rayimov To'liqinjon G'aybullayevich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta pedagogi*

**Annotatsiya:** *Maqolada zamonaviy madaniyatli shaxsning eng muhim jihatlari ochib berilgan. Pedagogning innovatsion faoliyati pedagogik madaniyat tarkibi sifatida talqin etilgan. Ijodiy tafakkurning yetakchi xossalari e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lishiga oid fikrlar misollar asosida tahlil qilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik madaniyat, pedagogik texnologiya, innovatsion hayot tarzi, insonparvarlik pedagogikasi.*

**Abstract:** *In the article the important aspects of modern and cultural person are revealed. Pedagogical personality of innovative person is commented as a uniqueness of culture. Attention is paid to the leading features of creative thinking. At the same time, ideas about the manifestation of innovation at the level of personality as a feature of professional-pedagogical culture are analyzed on the basis of examples.*

**Key words:** *pedagogical culture, pedagogical technology, innovative lifestyle, humanitarian pedagogy.*

### KIRISH

Shaxsning kamol topish imkoniyatlariga nisbatan gumanistik jamiyatning bilimlar jamiyati sifatida shakllanishi haqidagi tasavvurga asoslangan yondashuvlar e'tiborlidir. "Bunga erishish uchun hozirgi jamiyatni shunday o'zgartirish, qayta qurish kerakki, bilimlar, madaniy boyliklar uning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va moddiy ishlab chiqarishlarida yaratilsin. Hozirgi jamiyatni bilimlarni yaratish va ularning amal qilishiga qayta yo'naltirishning zaruriyati, avvalambor, shu bilan belgilanadiki, yaxlit shaxsni shakllantirish va kamol toptirish, insonning mohiyati individuum hayotda o'zlashtirgan bilimlar majmui bilan belgilanishiga erishish yangi jamiyatning oliy maqsadi hisoblanadi". Shaxs innovatsion tipining o'ziga xos xususiyatlariga ham hozirgi jamiyat o'zgarishining ayni shu g'oyasidan kelib chiqib yondashiladi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy shaxsning A.Inkeles tomonidan taklif qilingan tahliliy modeli diqqatga sazovordir. Ushbu shaxsning eng muhim jihatlari quyidagilardir:

1. Eksperimentlar, innovatsiyalar va o'zgarishlarga ochiqlik.
2. Fikrlar rang-barangligiga tayyorlik, o'z dunyoqarashining o'zgarishidan cho'chimasdan turli xil nuqtayi nazarlar mavjudligini tan olish.
3. O'tmishga qarab emas, balki hozirgi zamon va kelajakka qarab mo'ljal olish.
4. Hayot to'siqlarini yengish qobiliyati.

5. Ijtimoiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham maqsadlarga erishish uchun bo'lg'usi harakatlarni rejalashtirish.

6. Ijtimoiy hayotni tartibga solish va prognoz qilish imkoniyatiga ishonch ko'zi bilan qarash.

7. Ishga qo'shgan hissasi va kasbiy mahoratiga qarab haq to'lanishiga bo'lgan ishonchga asoslangan odillik hissi.

8. Ma'lumot va ta'limni yuksak darajaga qo'yish.

9. Boshqalarning sha'ni va qadr-qimmatini ularning maqomi va mavqeidan qat'iy nazar hurmat qilish.

### **ASOSIY QISM**

Pedagog bu – yuksak madaniyatli mutaxassis, o'z fanini chuqur biluvchi, umumiy va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxs, malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shunday ekan biz ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'lim oluvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanliklari, mustaqil bilim olishga, jamiyatda o'z o'rinlarini topish uchun qanday tayyorgarligi bilan o'lchashimiz, baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart. Ta'lim insoniyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Yangi asrda jamiyatning har tomonlama ravnaq, topishi, taraqqiy etishi bevosita ta'limning rivojlanishi, mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Ayni paytda ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotganligi, keng ko'lamli axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. "Innovatsiya – sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati" bo'lib, "innovatsion texnologiya - pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayonidir". Jadal zamonaviy rivojlanish sharoitlarida jamiyat, madaniyat va ta'limning innovatsion pedagogik faoliyatning, aniqrog'i innovatsion texnologiyalarning zarurligi qator omillar bilan belgilanadi: - ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarni taqazo etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ta'lim tizimida yangilanishlar, turli o'quv muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda metodika va texnologiyalardan foydalanishning zarurligi. Pedagoglar faoliyatining innovatsion yo'naltirilganligi ta'lim siyosatining yangilanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi;

3- ta'lim mazmunida o'quv fanlari miqdori va tarkibidagi o'zgarishlar orqali insonparvarlik g'oyalarining kuchayishi; ta'lim va tarbiya tizimida muntazam tashkiliy yangiliklarni taqozo qiluvchi yangi o'quv predmetlarini kiritish orqali. Bunday vaziyatda pedagoglar orasida pedagogik bilim va mavqeyi oshadi, pedagoglarning kasbiy mahorati sezilarli ravishda ortadi. - pedagoglar tomonidan yangiliklarni qo'llashga va o'zlashtirishga nisbatan yondashuvning o'zgarishi. Ta'lim –tarbiya jarayonlari qat'iy vaqt me'yorlariga rioya etish talab qilinadigan sharoitlarda pedagoglar nafaqat dastur va darsliklarni ixtiyoriy tanlash, balki o'zlarining pedagogik faoliyatlarida usul va vositalarni tanlashda ham ma'lum chegaralar mavjud edi.

Pedagogning kasbnomasida pedagogik mahorat, pedagogik tajriba, pedagogik texnologiya kabi tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim oluvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirish, tafakkur kengligini rivojlantirish ham pedagogning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagoglarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan. Olib borilgan tadqiqotlar har qanday pedagog quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi shart ekanini ko'rsatdi.

*Birinchi*dan, pedagog, pedagogik kasbning jamiyat hayotidagi o'rnini, uning paydo bo'lish tarixini yaxshi bilishi kerak. Chunki pedagogika tarixini o'rganish jarayonida kishi pedagogik faoliyatning insoniyat hayotidagi o'rnini, pedagogikadagi asosiy qonun-qoida va tamoyillarning shakllanish tarixini bilib oladi.

*Ikkinchi*dan, bo'lajak pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko'z oldiga keltirishi, e'tibor) ni xulq-atvor madaniyati va shu jumladan pedagogikaviy aloqasini egallagan bo'lishi shart.

*Uchinchi*dan, pedagog falsafani yaxshi bilishi kerak. Chunki falsafa odamga abstrak fikr yuritishni o'rgatadi. Pedagog auditoriyaga kirganda, unda abstrakt tafakkur sust rivojlangan bo'lsa, o'zini yo'qotib qo'yadi. Auditoriyadagilar diqqatini o'ziga jalb qilishi uchun, kishida abstrakt tafakkur yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

*To'rtinchi*dan, muayyan fan bilimlarni o'rgatuvchi pedagog yosh avlodni axloq va odobga ham o'rgatishi kerak. Zero, bunday vazifa pedagog va pedagoglarning burchi, hamda mas'uliyati hisoblanadi.

*Beshinchi*dan, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi kishi, albatta, estetik tarbiyalangan bo'lishi shart. Estetik tarbiyaning jamiyat tarqqiyotida naqadar muhim rol o'ynashi hammaga ma'lum. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim va tarkibiy qismi ekanini unutmazlik kerak[2]. Yuqoridagi ijtimoiy sifatlardan tashqari pedagogning kasbiy madaniyati va pedagogning kasbiy shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kasbiy madaniyati uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati-tizimli ta'limdan iborat bo'lib, pedagogning kasbiy shakllanishi oliygoh dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonida amalga oshadi. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga, zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lishga, shuningdek, o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

## **XULOSA**

Ta'lim sohasidagi innovatsion jamoalar va innovatorlar ish amaliyotining nazariy tahlili, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik voqelikning mazkur hodisasiga bag'ishlangan tadqiqotlar maydonida vujudga kelgan yondashuvlarni o'rganish shaxsiyat darajasida professional-pedagogik madaniyatning sifati sanalgan innovatsionlik tipologiyasining quyidagi mezon ko'rsatkichlarini ajratish zarur, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi: birinchidan, innovatsiya shaxsiy ahamiyatga molik qadriyat sifatida qabul qilinganmi;

ikkinchidan, innovatsiyaga ta'lim tizimini rivojlantirishning zaruriy ijtimoiy mexanizmi sifatida yondashish ma'qullanadimi; uchinchidan, innovatsiya munosabatlarning yaxlit tizimi va o'ziga xos usulda tashkil etilgan faoliyat sifatida tushuniladimi; to'rtinchidan, bu munosabat o'z kasbiy faoliyatini tashkil etishga nisbatan tatbiq qilinganmi; beshinchidan, o'z faoliyatida uni innovatsion tashkil etishning xususiyati qay darajada o'zlashtirilgan.

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lishining asosiy tiplariga kelsak, umuman olganda, yuqorida keltirilgan taqsimlashning to'g'riligi boshqa tadqiqot ma'lumotlari bilan korrelyatsiya darajasining yuqoriligi bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari tipologik guruhlarning tarkibiy tuzilishi bevosita pedagogik faoliyat muhitining innovatsionlik darajasi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Bu hol innovatsiya kollektiv subyekting innovatsion o'zaro aloqalar maydonidagi o'rni va imkoniyatlarini atroflicha tahlil qilishga majbur etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Волков Ю.Г. Homo Humanus. Личность и гуманизм. – Челябинск, 1995. (Volkov Yu.G. Homohumanus. Personality and humanism. - Chelyabinsk, 1995.)
2. Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М., 1998. (Karpova Yu.A. Innovation, intellect, education. - M., 1998.)
3. Crozier M. L'entreprise a L'ecounte. Apprendre le management postindustriale. – P., 1991.
4. Ангеловски К. Учителя и инновации. – М.: Наука, 1991.( Angelovsky K. Teachers and innovations. – M.: Nauka, 1991.)
5. Учитель. Школа. Общество. Социологический очерк 90-х гг. / Под ред. Смирновой Е.А. – СПб., 1995 (Teacher. School. Society. Sociological essay of the 90s. / Ed. Smirnova E.A. - St. Petersburg, 1995)
6. .Oribjonovich, K. H. (2022). PEDAGOGICAL SKILL IN THE ACTIVITY OF A TEACHER IS A PRODUCT OF INDIVIDUAL CHARACTERISTICS. International Journal of Pedagogics, 2(12), 18-22.
7. Педагогика. // М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: Иқтисод-Молия, 2008.( Pedagogy. // Under the general editorship of M.Kh. Tokhtakhodzhaeva. - T.: Economy-Finance, 2008.)
8. Роджерс К. К науке о личности// История зарубежной психологии. – Тексты. – М.: Изд-во МГУ, 1996 (Rogers K. Toward the Science of Personality// History of Foreign Psychology. - Texts. - M.: Publishing House of Moscow State University, 1996)
9. Мелик-Пашаев А.А. Гуманизация образования: проблемы и возможности // Вопросы психологии. – 1995 (Melik-Pashaev A.A. Humanization of Education: Problems and Opportunities // Questions of Psychology. – 1995)

## PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONLARINI LOYIHALASHTIRISH VA BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, FUNKSIYALARI VA METODLARI

Sattorov Najmiddin Po'latovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish va boshqarish tamoyillari, uning funktsionalligi, boshqarish metodlari yuzasidan tahlillar keltirilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.*

**Tayanch so'zlar:** *ta'lim, pedagog, mexanizm, tizimli yondashuv, tamoyil, axborot, funksiya.*

**Abstract:** *This article analyzes the principles of designing and managing educational processes of higher education institutions, its functionality, management methods, and developed suggestions and recommendations.*

**Key words:** *education, pedagogue, mechanism, systematic approach, principle, information, function.*

### KIRISH

Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va samaradorligini ta'minlashda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi yaxlit pedagogik tizimni tashkil etishini inobatga olish, mazkur jarayon subyektlarining qiziqishlarini rivojlantirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda innovasion jarayonlarni oldindan loyihalashtirish boshqaruvning qator funksiya va metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

### ASOSIY QISM

Pedagogik jarayonlarning samaradorligi ko'p jihatdan mazkur jarayonga tadbiq etilayotgan innovatsiyalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), innovasion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, subyektlarning qiziqishi yo'nalishida tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarni subyekt tomonidan o'ziga xos qabul qilinishini keltirish mumkin. Pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur:

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoni o'ziga xos integrativ tizim ekanligi;
- pedagogik jarayonlar komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;

- pedagogik jarayonlar samaradorligi mazkur jarayon subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligini ifodalashi;

- pedagogik jarayonlarda amaliyotga tadbiiq etilayotgan, ya'ni samaradorligi tekshirilayotgan yangilik va innovatsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi;

- pedagogik jarayonlarning samaradorligi subyektlarning ehtiyojlari va manfaatlariga hamda shaxsiy qiziqishlariga bog'liqligi;

- pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni yaratish motivlashtirish zaruriyatini belgilashi;

- kommunikasion jarayonlarda pedagogik jarayonlar subyektlarining faolligi hamda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishi zaruriyati;

- pedagogik jarayonlarda har bir subyekt o'z ijodiy imkoniyatlaridan foydalana olishi uchun shart-sharoitlar yaratishning majburiyligi;

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish mazmun- mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshqaruv funksiyalari va metodlaridan foydalanishni nazarda tutishi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda inobatga olinishi zarur bo'lgan innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, subyektlarning individual psixologik xususiyatlari, tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonda ijodiy muhitni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi [1]. Pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni shakllantirish subyektlarning erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin fikrlashi, o'z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratilishini nazarda tutadi va bu o'z navbatida, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlaridan foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda subyektlar faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va obyektiv baholash asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlash, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va qo'llaniladigan metodlarning o'ziga xos jihatlarni inobatga olish zarur. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda boshqarish bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, birinchisi ikkinchisini to'ldiruvchisi, ya'ni tashkil etish boshqarishga asos sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning asosiy funksiyalari sifatida: rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat funksiyalarini ajratib ko'rsatgan [2]. Anri Fayol boshqarishni kelajakni ko'ruvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi. Mazkur fikrga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashkil etish ham boshqaruv funksiyasi sifatida, ham boshqaruv vositasi sifatida ta'riflanayotganligini ko'ramiz, shuningdek, menejment nazariyasida rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat

funksiyalarini ajratilishi va ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligi ham yuqorida keltirgan fikrimizni tasdiqlaydi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda professor-o'qituvchilar tomonidan bajariladigan ishlarining mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: pedagogik jarayonlarni rejalashtirish; subyektlar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash; subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish. Shuningdek, professor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchi-talabalar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsad va mavjud imkoniyatlarni o'quvchi-talabalar manfaati va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning faoliyatini vaziyatlarga moslashtirib borishda muvofiqlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi. Ko'zlangan natijalarga erishishda o'quvchi-talabalarining boshlang'ich tushunchalari darajasi, qobiliyatlari, shaxsiy xislatlari, qiziqishlari, shuningdek, pedagogik jarayonlarni vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirishning murakkab tomonlarini o'rganish va shular asosida mazkur jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan omillarni aniqlash jarayonida nazorat funksiyasi professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan funksiyalarni shartli ravishda professional va ijtimoiy-psixologik funksiyalarga ajratish mumkin. Pedagogik jarayonlarning subyektlari tomonidan o'z funksional vazifalarini (o'qitish va o'qish) bajarishi jarayonida professional funksiyalar amalga oshiriladi va mazkur jarayonda pedagogik jarayon subyektlari hisoblangan professor-o'qituvchilar bilan o'quvchi-talabalar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlar tarbiyaviy munosabatlarning inson-inson munosabatlari shakli bo'lib, bunda ijtimoiy-psixologik funktsiya amalga oshiriladi [3]. Mazkur funktsiyani amalga oshirish jarayonida axborotlar bilan ishlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda axborotlar bilan ishlash turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi. Mazkur funktsiya subyektlar o'rtasidagi axborotlarning almashuvini ta'minlash vazifasini bajaradi. Pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri axborotlar tizimi bo'lib, u pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujjatlarni, iqtisodiy- ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bunda axborotlarning yangiligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'rganish va ishonchliligini aniqlash jarayonida axborot-tahlil funktsiyasi amalga oshiriladi. Ushbu funktsiyaning asosiy vazifasi pedagogik

jarayonlar va uning subyektlari hisoblangan o'quvchi-talabalar to'g'risida axborotlar to'plash va ularni muntazam o'rganish hamda tahlil qilish asosida obyektiv baholashdan iborat bo'lib, mazkur axborotlarning yangiligi va ishonchliligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki to'plangan axborotlar mavjud shart-sharoitlarni, o'zaro munosabatlarni va ta'limiy muhitning holatini hamda o'quvchi- talabalarning qiziqishi, moyilligi, individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini ifodalaydi hamda o'z navbatida, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [4]. Axborot-tahlil funksiyasini samarali amalga oshirish, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun zaruriy axborotlarni to'plash va ularning ahamiyatini, yangiligi va ishonchliligini o'rganish hamda tahlil qilish asosida obyektiv baholash kabi vazifalarni amalga oshirish usullari va yo'llari majmuidan iborat bo'lgan, pedagogik jarayonlarga samarali, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatuvchi, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish mexanizmi hisoblanadigan boshqaruv metodlaridan biri axborot to'plash metodidan oqilona foydalanish zaruriyatini belgilaydi.

#### **XULOSA**

Pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayon ishtirokchilari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlar yaratib berish bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalar faoliyatini takomillashtirish asosida samaradorlikka erishish uchun har bir o'quvchi-talaba haqida ishonchli va asosli axborotlarni to'plash hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya/ Pod red. V.A.Slastenina. - Moskva: Akademiya, - s. 37.
2. Zaxarov Denis Viktorovich PRINSIPY MENEDJMENTA PO A. FAYOLYu // Dostijeniya nauki i obrazovaniya. 2020. №18 (72). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-menedzhmenta-po-a-fayolyu> (data obratzeniya: 11.06.2023).
3. Tenitilova K.S., Belyayeva V.G., Abayeva S.M. Monitoring urovnya sformirovannosti professionalnoy kompetentnosti pedagoga. Mejdunarodnyy nauchno-issledovatel'skiy jurnal – № 6 (120) – Chast 4 – Iyun. ISSN 2227-6017 online. Yekaterinburg-2022.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.f.d. ... diss. -Toshkent, TDPU, 2007, - 305 b



## HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA OLIY TA'LIMDA TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH

**Sobirov Azizbek Abduraxmonovich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari, shuningdek, dars samaradorligini oshirishda hamkorlikda ishlash tamoyillarining muhim jihatlari xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda ishlash tamoyillari, insonparvarlik pedagogikasi, ta'lim sifatini takomillashtirish.*

**Abstract:** *This article discusses the methods of effective organization of the educational process in higher educational institutions based on the pedagogy of cooperation, as well as important aspects of the principles of teamwork in improving the effectiveness of the lesson.*

**Key words:** *pedagogy of cooperation, principles of cooperation, humanitarian pedagogy, improving the quality of education.*

### KIRISH

Hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi yo'lida muhim qadam hisoblangan, bolalarni o'qitish va tarbiyalashda nafaqat o'qituvchilarning ta'lim oluvchilar va hamkasblar bilan, shuningdek, ota-onalar, atrof-muhit, jamoa faollari bilan birgalikdagi faoliyatidir. Ota-onalar, atrof-muhit, jamoa faollari, nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan birgalikdagi harakat, dars va darsdan tashqari faoliyatda ularning ishtirok etishi, ta'lim-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yordam ko'rsatishi, mavjud muammolarni birgalikda hal etish va o'zaro hamfikrlilik muhitini tashkil etishni talab etadi. Pedagog-novatorlar esa pedagogika fani rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, yuqori natijalarni ko'zlaydigan iste'dodli pedagoglar bo'lishi lozim. Hamkorlik pedagogikasining g'oya va tamoyillarini amalga oshiruvchi pedagog-novatorlarning konseptual g'oyalarini tahlil etish, ularning ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yondashuvi yangi, insonparvar tizimga egaligini alohida qayd etishni taqozo etadi. Hamkorlik pedagogikasining rivojlanishi, eng avvalo ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan bevosita aloqadordir. Shu bilan birga, bugungi kunda ham ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, shaxsiy insonparvarlik yondashuvi hamkorlik pedagogikasining muhim yo'nalishlari sanaladi.

### ASOSIY QISM

Ta'lim sifatini takomillashtirish deganda ta'lim jarayonlarini tizimli loyihalashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash, qayta aloqaning intensivligini ta'minlash, pedagogik tizimning ochiqligi, dinamikligi, statistikligi, ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi, intellektual, hissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini faollashtirishga erishish

tushuniladi. Ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishida hamkorlik pedagogikasi yetakchilik qiladi. Buning uchun darslarda ta'lim oluvchiga fikr erkinligi, o'zaro bahsmunozaraga kirishish, fikrini isbotlash uchun imkoniyat yaratish kerak bo'ladi. Yu.A.Maslova ham ta'lim jarayoni sifatini uch asosiy jihatlarini alohida qayd etadi:

- birinchidan, bilimlar va ko'nikmalar sifatidagi asosiy xususiyatlar;
- ikkinchidan, o'quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar;
- uchinchidan, ta'lim muassasasining obro'si, nufuzi, o'qituvchilar va ta'lim olayotganlarning kommunikativ layoqati va boshqa xususiyatlari tegishlidir [6].

Shu o'rinda oliy o'quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlarning bosh mezoni sifatida dars sifatiga qaratilar ekan, bunda har bir ta'lim oluvchining darsga bo'lgan qiziqishini orttirishda hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, ta'lim oluvchining darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi sifatidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. K.Rodjers an'anaviy pedagogikaning o'qituvchi bilimlarini bayon etishi, ta'lim oluvchilar ularni o'zlashtirishga harakat qilishi, dars va imtihonlar – ta'limning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanishi, shuningdek, pedagog boshqaruvchi, ta'lim oluvchilar esa unga bo'ysunuvchilar sifatidagi qotib qolgan qoidalarni tanqid qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan K.Rodjers[5] ta'limning ikki turini ajratib ko'rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axboriy va ta'lim oluvchilarga ularning o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zaruriy, haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta'lim. Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yoki K.Rodjers fikricha, ahamiyatli ta'limdir. Oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, pedagogikaning atrofdagi shaxsga nisbatan pedagogik-psixologik ta'sirlarni rasman bekor qilish, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaga umumiy tartibda o'tish, oliy ta'limda pedagog hamda hozirda ta'lim oluvchilar o'rtasida insoniy va axloqiy munosabatlarni o'rnatish hamda tarkib toptirish bilan farq qilishi, qolaversa, bugungi kun ta'lim oluvchilarining shaxsiy va ilmiy faoliyatida bularning barchasi muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Yuqorida ta'kidlangan insonparvarlik nuqtayi nazaridan aynan ta'lim va tarbiyaning asosiy belgilangan maqsadi shundan iboratki, har bir ta'lim oluvchi bilish hamda muloqot qila olish faoliyatining to'laqonli huquqli subyekti, qolaversa, samarali faoliyatni tashkil eta oladigan tashabbuskor shaxs bo'la oladi. Ta'lim jarayonida o'quv-tarbiyani insonparvarlashtirishning asosiy muhim parametrlari va ko'rsatkichi sifatida qanchalik bu jarayonlar shaxsning umumiy mazmunda o'z-o'zini to'laqonli namoyon eta olishi uchun turli shart-sharoit yaratilganligi, shuningdek, undagi tabiiy va ilmiy layoqatni yuzaga chiqarganligi, uning ijodkorligi, erkinlik, tashabbuskorlik qobiliyatlarining turli yo'nalishda shakllanganligi bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonlarni umumiy tartibda insonparvarlashtirishning keng masalalarini tahlil qilar ekanmiz, L.V.Zanina uni amalga oshirishning yo'llaridan biri sifatida "qaysidir fanlar doirasida kuchni turli faoliyatda sarflashda emas, turli nazariy va amaliy bilim sohalari, madaniyat, tashqi muhit mashg'ulotlari uchun tanlangan ma'lumot erkin olinadigan va buni umumiy tarzda pedagogik-psixologik vazifalarni birlashtiradigan" integratsion ta'lim mazmunini qayta

tashkil etishda va faoliyatga tadbiiq etishda aks etadi, deb ta'kidlab o'tadi. L.V.Zanina tadqiqot ishida ta'lim oluvchilarda "Menlik" tuyg'usining katta imkoniyatlarga ega ekanligiga ishonch uyg'ota oladigan pedagogni har jabhada insonparvarlikning muhim jihati, deb hisoblaydi. Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning turli jihatlarini E.V.Bondarevskaya, S.V.Kulnevich, B.M.Bim-Bad, V.V.Serikov, J.G'.Yo'ldoshev, R.G'.Safarova, N.M.Egamberdieva kabilarning ishlarida bayon etilgan. Hamkorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan yana biri shaxsiy-insonparvarlik yondashuvidir. Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi markazida turadi. Bunday rivojlanishning o'lchovi ta'limning asosiy natijasi, yaxlitlikda o'qituvchi, tarbiyachi, boshqaruvchi, tarbiyaviy muassasa ish sifati mezoni deya e'lon qilinadi. Mazkur yondashuv ta'lim oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatlari, imkoniyatlari, erkinlik va adolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ta'lim muassasasining maqsadi – shaxsning ichki kuchlari va imkoniyatlarini uyg'otish, ularning to'liq va erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir. Aynan bugungi kunga kelib ta'limning asosiy maqsadi o'quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi asnosida ta'limga va shaxsga nisbatan yangicha va innovatsion qarash: shaxsiy pedagogik faoliyatning obyekti emas, aksincha subyekti sifatida aks etadi; shaxs esa – bunda qandaydir ichki va tashqi maqsadlarga erishish vositalari emas, balki ta'lim tizimi maqsadi; har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidorli; shaxsning muhim sifatlarini sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish:

- pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;
  - ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash;
  - hamkorlik, muloqot mahorati;
  - to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish; ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;
- ta'lim oluvchi shaxsga ta'lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat;
- pedagog va ta'lim oluvchi huquqlarini tenglashtirish;
  - ta'lim oluvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi.

Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri natija bermaydigan "majburlab o'qitish" metodidan voz kechish balki majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlikni yo'lga qo'yish; o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi; majburlashning o'rnini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; ta'lim oluvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo'yib berilishi; ta'lim oluvchilarga ularning subyektligi, o'z-o'zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, hayotiy o'z o'rnini belgilashiga yordam ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash. Shu o'rinda individual yondashuvni yangicha talqin etishda quyidagicha xulosa qilish mumkin: "barcha o'quv fanlardan ta'lim oluvchiga qarab borish emas, aksincha ta'lim oluvchidan boshlab sekin asta o'quv faniga borish" tamoyilining bajarilishi; bunda ta'lim oluvchilarning barcha qobiliyatlari va mavjud bugungi

imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'qitish; ta'limda o'zlashtirishda o'rtachalikdan voz kechish; ta'lim oluvchi shaxsining eng yaxshi sifatlarini izlash; shaxsni pedagogik tashxis eta olish (qiziqish, turli qobiliyatlari, jarayonga yo'nalganlik, Menlik, ijobiy xarakter, kreativ fikrlash jarayonlarining o'ziga xosligi)ning qo'llanilishi; shaxsning o'quv-tarbiya jarayonidagi barcha o'ziga xosliklarini hisobga olish zarur. Bugungi kunda olamni yaxlit tarzda turli fanlar kesimida o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, aksariyat kishilar ongida yirik muammolar va ularni echishning muayyan darajasi mavjud emas. Ma'lumki, xalqning ijtimoiy tajribasi ta'lim jarayonida yosh avlodga taqdim etiladi. Ta'lim strategiyasini o'zgartirish uchun uchinchi ming yillik bo'sag'asida yangicha metodologiya asosida ta'lim tizimi isloh qilina boshlandi. Bu esa, fanda sohalararo aloqadorlik, hamkorlikda faoliyatni tashkil etish paradigmasini vujudga keltirdi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari, shuningdek, dars samaradorligini oshirishda hamkorlikda ishlash tamoyillarining muhim jihatlarini o'rganishda birgalikda ishlash, tasniflash, tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy, transformatsiya, statistik metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning o'zaro harakati jarayonida muvofiqlikka erishish ularning jipslashuviga (kooperatsiya) o'tishining zarur shartini aks ettiradi. O'zaro jipslik mehnat jarayonida bir yoki bir necha vazifani bajarishda hamkorlikda ishtirok etadigan kishilar faoliyatini tashkil etish shakllaridan birini aniqlab beradi. O'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning jipsligining asosiy tavsifi o'quv maqsadlariga erishish uchun ularning imkoniyatlarini integratsiyalashda namoyon bo'ladi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, biz ta'lim sifati samaradorligini oshirishda ta'lim oluvchilarning o'zaro jipsligi, ularning hamkorlikdagi faoliyatiga kirishishi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchilarning hamkorligi asosida birgalikdagi faoliyatning ma'lum maqsadga erishish uchun ularning kuchlarining birlashuvi yotadi. Kooperatsiyadan farqli ravishda ta'lim oluvchilarning hamkorligi o'quv-bilish faoliyati subyektlarining o'zaro harakati va uning tashkillanishida o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatish, faol sheriklik, bir-biriga mas'ullikning jadalligi bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi tahlillardan aniq bo'ldiki, maqsadga erishishda o'zaro kelishuvga asoslangan hamkorlikdagi o'quv-bilish faoliyati subyektlarining harakati ta'lim oluvchilar hamkorligining yana bir invariant belgisini o'zida aks ettiradi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili o'quv-bilish faoliyatida ta'lim oluvchilarning subyektiv nuqtayi nazarlarini faollashtirishga asoslangan dialogik o'zaro birgalikdagi harakat uning ishtirokchilarida ko'plab nuqtayi nazarlar, qarashlar, farazlarni hosil qiladi, shu bilan birga, ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega va ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi tashqi muhitni aniqlab beradi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология.– М.: УРАО, 2003. – 208 с.
2. Бондаревская Е.В., Кульневич С.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – 178 с.
3. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 288 с.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Т.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
5. Роджерс К., Фрейберг Д. Свободо учиться. Москва. Смысл.2019. стр.-601.
6. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /Т.: «Turon-Iqbol», 2006. - 592 b.
7. Safarova R., Musaev U.Q., Musaev P. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –Т.: Fan, 2005. – 255 b.
8. Сериков, В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. – 272 с.
9. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida ta'lim oluvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fan. dok. ... diss. – Т., 2010. – 332 b.

## BO'LAJAK PEDAGOG-KADRLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING O'RNI VA ROLI

**Sobirov Botirjon Toxirjanovich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda elektron axborot resurslar yaratish va qo'llash texnologiyalari doirasida amaliy, laboratoriya hamda mustaqil ta'lim jarayonlarida motivatsiyalarini shakllantirish, rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *AKT, texnologiya, ta'lim, dasturiy ta'minot, elektron resurs, motivatsiya, ijodiy yondashuv, veb sayt, liderlik qobiliyati.*

**Abstract:** *This article reveals the ways to form and develop the motivation of future teachers in practical, laboratory and independent educational processes within the framework of the technologies of creating and using electronic information resources in the development of creativity and leadership skills.*

**Key words:** *ICT, technology, education, software, electronic resource, motivation, creative approach, website, leadership ability.*

### KIRISH

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaqirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'limni o'zgartirish va isloh qilish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Oldingi bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, AKTdan to'g'ri foydalanish ta'lim sifatini oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ASOSIY QISM

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy,

psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qathiy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi. Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi
- kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi
- birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik.

Pedagogning kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Ta'limni axborotlashtirish, ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish so'zsiz o'z samarali natijasini bermoqda. Shu o'rinda aytishimiz joizdirki, axborotlashgan

ta'lim tizimida nafaqat ta'lim resurslari, balki elektron tarbiya resurslaridan ham foydalanish shubhasiz muhim hisoblanadi, chunki har qanday ta'lim-tarbiya bilan uyg'unlashgandagina etuk ma'naviyatga zamin bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim tizimi oldiga elektron tarbiya resurslari yaratish muammosini qo'yadi. Bugungi kungacha bo'lgan ta'lim tizimidagi elektron resurslarning holati tahlili ko'rsatishicha, ta'lim muassasalarining mahalliy tarmoq negizini faqatgina ta'limiy saytlar hamda o'quv - metodik materiallar tashkil etadi. Shunday ekan, elektron ta'lim resurslariga qo'shimcha elektron tarbiya resurslarini ham yaratish shubhasiz dolzarb va muhim hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkilashtirish uchun ma'lum bir shartsharoitlar mavjud. Birinchidan, axborot resurslari bo'lishi kerak.

Bularga

- shaxsiy kompyuter;
- proektor;
- multimedia vositalari;
- skaner (murakkab sxemalar va chizmalarni, negativ plyonkadagi tasvirlarni kompyuterga o'tkazish uchun);
- raqamli fotoapparat;
- video kamera (video konferensiyalar o'tkazish uchun va yana boshqa maqsadlarda);
- printer, nusxa ko'chiruvchi qurilma (tarqatma materiallarni qog'ozga tushirish va ko'paytirish va yana boshqa maqsadlar uchun) va boshqa resurslar.

Ikkinchidan, maxsus dasturiy ta'minotlar hisoblanadi. Boshqa ishlarni yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko'p bo'lib, misol uchun: Animatsion roliklar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan foydalaniladi. Multimediali taqdimot ma'ruzalarini yartishda hammamizga ma'lum bo'lgan Power Point dasturidan foydalaniladi. Biz yashayotgan asrda o'qitishni osonlashtiradigan, balki ta'lim oluvchilarning ushbu sohadagi bilimlarini chuqurlashtiradigan dasturlar va dasturiy ta'minotlar oqimi mavjud.

## **XULOSA**

